




BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University

12(2)/2025



12(2)/2025

SERIYA: ANIQ VA TABIIY FANLAR

MUNDARIJA *** СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS		
FIZIKA *** PHYSICS *** ФИЗИКА		
Abdugʻaniyev Y.A.	Yevropiy bilan legirlangan kremniyda magnitlanishning gisterezisi	4
Roʻziyev T.R., Axmedova U.F.	Erkin tebranishlar tushunchasi va fizik mohiyati	8
Axmedjanov F.R., Boltabayev A.F., Elboyeva M.I.	CaMoO ₄ kristallarida akustik toʻlqinlarda kollinear yorugʻlik difraksiyasi	13
Eshboʻriyev R., Ubaydullayeva M.A., Fayzullayeva M.L., Abdusamadova D.I.	Uran va plutoniy izotoplarini boyitilishi va ularni yadro reaktorlarida qoʻllanilishi	17
Axmedjanov F.R., Maharov N.M., Avdievich V.N.	Kubik simmetriyali kristallarining akustik xossalari anizotropiyasi va relaksatsiya vaqtlari	22
Mavlonov G.Kh., Uralbaev Kh., Tachilin S.A., Isakov B.O., Ibodullaev Sh.N.	Thermal stability of electrical parameters of silicon with nanoclusters of manganese atoms	27
Qoʻchqorova F.T., Mannonova M.S., Kengboyev S.A., Dusanova G.M.	Dinamikaning asosiy masalalari: moddiy nuqtaning dinamik harakat qonunlarini aniqlash usullari	32
Qodirov M.Q., Tuxtayev U.U., Muxammedov A.K., Ulasheva M.A., Nabiyev A.A.	Artezian quduq suvi tarkibidagi tabiiy (²²⁶ Ra, ²³⁸ U, ²³² Th, ⁴⁰ K) va texnogen ¹³⁷ Cs izotoplarining miqdori	37
Axmedov A.A., Tursunov A.R.	Datchiklarning asosiy va maxsus tavsiflari	43
Мадалиев М.Э., Носирова Н.А., Мухаммадёкубов Х.Э.	Численное моделирование трёхмерного течения за обратной ступенькой с использованием LES-модели	49

Илиев Х.М., Мухаммаджонов У.Х.	Цифровое моделирование процесса многоатомной диффузии в кремнии методом функционала плотности	58
Шоабдурахимова М.М.	Особенности неустойчивостей тока в компенсированном кремнии	62
Эргашева М.А., Кучкарова М.О.	Определение микроскопических параметров поверхности лазерным сканированием	67
Djuraev D.R., Sharipov M.Z., Fayziyev Sh.Sh., To‘xtayeva Sh.Q., Mo‘minov Sh.H.	Hajmiy ferromagnit kristallardagi bir o‘lchamli mikromagnit tizimlarning domen tuzilishi	71
Ибрагимов Ж.К., Эшбекова С.О., Абдуразаков М., Ашуров Н.Р.	Исследование термодинамического поведения композитов с изотактическим полипропиленом	77
Izzatillayev X.X., Quchqarov B.H.	GaAs/GaInAs/GaInP/AlGaAs geterostrukturalarning modellashtirish natijalari	85
Soatov A.K., Turaev A.R.	Pressure-induced phase transitions and memristive behavior in mn- and co-doped ZnO oxide structures	90
Ergasheva A.A., Xalilov U.B.	IRMOF-8 ning nukleatsiyaoldi yig‘ilish mexanizmi: ReaxFF md asosidagi atomistik tahlil	95
Yokubbaev A.A.	Technology for manufacturing TiO ₂ -based solar cells	101
Beymamatova M.K., Sanetullaev A.Y.	Theoretical modeling of positron-emitting isotope production via projectile fragmentation of ¹² C Beams using the B _p -ΔE-B _p method	107
Kuchkarov Q.M., Ergashev B.A., Isaqov D.Z., Xurramov R.R., Mahmudov M.A.	KMDO usuli yordamida shisha va shisha\Mo tagliklarda o‘stirilgan Sb ₂ Se ₃ yupqa qatlamlarining morfologik va strukturaviy xususiyatlari	111
Turabdjjanov S.M., Kenjaev Z.T., Kulumbetov A.S-M.	Formation of nickel nanoclusters in p-type silicon: influence on electrophysical properties and surface topography	118
Dusmatov O.M., Toshov B.R., Kasimova F.U.	Kinematik qo‘zg‘alishlarda sterjenni matematik modellashtirish va dinamik xarakteristikalarini aniqlash	122

BIOLOGIYA *** BIOLOGY *** БИОЛОГИЯ		
Хасанов И.Х., Остонова Н.Х.	Пути повышения продуктивности пастбищ Бухарской области	131
Artikova N.T., Shadiyeva S.S.	Sugʻoriladigan tuproqlarning xossa xususiyatlari va tadqiqi (Buxoro tumani misolida)	135
Илёсов А.А.	Органик деҳқончиликда сидерат ўсимликларнинг аҳамияти	140
Шаропова Ш.Р., Саидов У.М., Бакаева С.С.	К изучению водно-болотной флоры Бухарской долины	149
KIMYO *** CHEMISTRY *** ХИМИЯ		
Raximov A.X.	Toshkoʻmir va kokos poʻstlogʻi asosida tayyorlangan aktivlangan koʻmirlar yordamida erkin qoldiq xlorni olib tashlash jarayonini baholash	153
Raximov A.X., Murodov D.D., Xurramov D.J.	Dehqonobod kaliy zavodida silvinit flotatsiyasida hosil boʻladigan shlamning samaradorlikka taʼsiri	160
INFORMATIKA *** INFORMATICS *** ИНФОРМАТИКА		
Toshpoʻlatova Sh.B.	SQLda maʼlumotlarni filtrlashda funksiyalardan foydalanish samaradorligi	166
Xoʻjayev S.S.	“BTEC” xalqaro dasturi qanday samara beradi?	171
Tursunov A.R., Axmedov A.A.	Oʻlchash qurilmalarida neyron tarmoqlardan foydalanish	174
Turdimatov M.M., Aliyev M.Gʻ.	Tashkilotlarda biznes uzluksizligini boshqarish tizimini modellashtirish usullari	180
Kabulov A.V., Oʻrinov N.T.	Universitet hisoblash tarmogʻi zaiflik koʻrsatkichlarini modellashtirishga asoslangan axborot xavfsizligi tizimi	185
TEXNIKA *** TECHNIQUE *** ТЕХНИКА		
Hamrayev J.H., Farmonov L.B.	GTL korxonalarida bugʻ qozonlarida bugʻ tayyorlash jarayonlarini mukammal boshqarish tizimlarini ishlab chiqish	195

YEVROPIY BILAN LEGIRLANGAN KREMNIYDA MAGNITLANISHNING GISTEREZISI

*Abdug‘aniyev Yo‘ldoshali Adashali o‘g‘li,
Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika
universiteti, fizika-matematika fanlari bo‘yicha PhD
yoldoshaliabduganiyev2@gmail.com*

Annotatsiya. Yevropiy kirishma atomlarini kremniyga kiritish natijasida magnit nanoklasterlari shakllantirilgan p-tipli legirlangan kremniy namunalari magnit xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha tadqiqot natijalari keltirilgan. Bunda asosiy vazifa diffuziya usuli bilan olingan materialda elektron paramagnit rezonans xususiyatini o‘rganish, magnit qarshilikning elektr va magnit bo‘yicha o‘zgarishi qonuniyatlarini o‘rnatish, xona haroratida magnitlanish gisterizisi tashqi magnit maydon ta‘siriga bog‘liqligini aniqlashdan iborat.

Kalit so‘zlar: gisterezis, diffuziya, magnit qarshilik, ferromagnit, konsentratsiya.

ГИСТЕРЕЗИС НАМАГНИЧЕННОСТИ В КРЕМНИИ, ЛЕГИРОВАННОМ ЕВРОПИЕМ

Аннотация. Представлены результаты исследования магнитных свойств образцов кремния, легированного р-типом, в которых в результате введения в кремний легирующих добавок европия формируются магнитные нанокластеры. Основная задача – изучение свойств электронного парамагнитного резонанса в материале, полученном методом диффузии, установление закономерностей изменения магнитосопротивления в электрическом и магнитном направлениях, а также определение зависимости гистерезиса намагниченности при комнатной температуре от воздействия внешнего магнитного поля.

Ключевые слова: гистерезис, диффузия, магнитосопротивление, ферромагнетизм, концентрация.

MAGNETIZATION HYSTERESIS IN EUROPIUM-DOPED SILICON


Abstract. The results of a study on the magnetic properties of p-type doped silicon samples are presented, in which magnetic nanoclusters are formed as a result of introducing europium doping additives into the silicon. The main objectives are to investigate the electron paramagnetic resonance properties in the material obtained by the diffusion method, to establish patterns of magnetoresistance changes in electrical and magnetic directions, and to determine the dependence of magnetization hysteresis at room temperature on the influence of an external magnetic field.

Key words: hysteresis, diffusion, magnetoresistance, ferromagnetism, concentration

Kirish. Adabiyotlarning ilmiy tahlili asosida lantanoid elementlarning kirishma atomlari kiritilgan kremniyda ferromagnitizm holatining kuzatilishi kirishma atomlarning magnit momentlarini qattiq hajmida o‘zaro parallel tartiblanishi bilan izohlangan. Metallarda elektronlarning konsentratsiyasi ko‘p bo‘lganligi uchun ularning spinlarini boshqarish nisbatan oson bo‘ladi [1]. Ishda ko‘rsatib o‘tilgandek yarimo‘tkazgichli qurilmalar odatda elektronlarning zaryadidan foydalanadilar, magnit materiallar esa elektron spin bilan bog‘liq ma‘lumotlarni yozib olish uchun ishlatiladi. Yarimo‘tkazgichlarda ferromagnit material olish uchun hammda elektronlarning zaryadi va spinidan foydalanish magnit bo‘lmagan yarimo‘tkazgichlarga magnit elementlarning yuqori konsentratsiyasini kiritish mumkin. Kremniyga yuqori spin tartiblanish xususiyatiga ega lantanoid guruhiga mansub elementlarning kirishma atomlarini kiritish orqali boshlang‘ich kremniyning magnit xossasini o‘zgartirish mumkinligi [2] ishda ko‘rsatib berilgan. Olingan natijalar yarimo‘tkazgich kremniy materialini spintronikada magnit datchiklarni yaratishda foydalanish imkoniyatini beradi, masalan, spin tranzistorlarni ishlab chiqarishda. 4f– guruh elementlarining kirishma atomlarini kremniyga kiritib, uning magnit xususiyatlarini boshqarishga qiziqish ortib bormoqda. Eu atomlarining tashqi elektron qobiqlaridagi $4f^7$ elektronlar spini $S=7/2$ ga teng. Eu va kirishma atomlarining kremniyga kiritib uning magnit xususiyatlarini o‘rganish ilmiy va amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Kremniya ferromagnit xususiyatini olish uchun yuqoridagi boblarda o'rganilgandek yevropiy kirishma atom tanlab olindi. Boshlang'ich material sifatida parametrlari solishtirma qarshiligi $77\div 80 \Omega \cdot \text{sm}$ va fosfor konsentratsiyasi $N=7.25 \cdot 10^{13} \text{ sm}^{-3}$ (kristal sirt orientatsiyasi (111)) bo'lgan n-turli kremniy Si<P>-80 asosida namunalar olingan. Diffuziya texnologiyasi doimiy manbaning gaz fazasidan amalga oshirildi.

Yevropiy kirishma atomi bilan legirlangan kremniydagi tok tashuvchilarning konsentratsiyasi va harakatchanlini haroratga bog'liqligi ECOPIA HALL HMS-7000 rusumli qurilmada azot haroratidan boshlab ($T=77 \text{ K}$) o'rganib chiqildi. Ko'p namunalarda takroriy o'lchovlar bir xil natijalarni berdi.



1-rasm. Yevropiy kirishma atomlari kiritilgan kremniya tok tashuvchilarning harakatchanligini haroratga bog'liqligi

O'rganilayotgan namunadagi o'lchash natijalaridan ko'rishimiz mumkinki haroratni oshishi, ya'ni kT energiyani oshirish bilan kristall panjara tugundagi atomlarining tebranishlarini amplitudasi ortishi oqibatida kristall panjara doimiysi o'zgaradi, kuzatilgan tebranish mexanizimi zaryad tashuvchilarni sochilishi deb ataladi [3]. Olingan natijalarga nazariy jihatdan qaraydigan bo'lsak, elektronlar va kovaklarning harakatchanligi $\mu_p \sim \mu_n \sim T^{\pm 3/2}$ ifodaga to'g'ri proporsional bo'ladi. Adabiyotlarda o'rganilgan yarimo'tkazgich elementlarining harorat $T=0-100 \text{ K}$ oraliqda harakatchanlik $T^{3/2}$ qonuniyat bo'yicha o'zgaradi. Harorat $T=100 \text{ K}$ dan oshganda $T^{-3/2}$ qonuniyat bo'yicha kamayadi. Tajribada o'rganilgan namunasida zaryad tashuvchilarning harakatchanligi $T^{-3/2}$ qonuniyat bo'yicha kamayib bordi. 2 rasmdagi grafikda $T^{3/2}$ qonuniyat kuzatilmadi, buning asosiy sabablari qurilmaning o'lchash chegarasini $T=77 \text{ K}$ haroratgachaligi hamda azot suyuqligining kimyoviy tozaligiga bog'liq bo'lishidir.

[3.] Ishlar aytib o'tilgan EuO birikmasi istiqbolli ferromagnit yarimo'tkazgich material hisoblanadi. Bu birikmaning kristall tuzulishi tosh tuzi kristall panjara tuzulishiga ega. [4-7] ishlardan Si<EuO> klaster bo'lganini ilmiy asoslangandan keyin namunaning magnit xususiyatini o'rganish uchun Istanbul texnika universiteti laboratoriyasida mavjud "Quantum Design MPMS-3 SQUID VSM" markali magnetometr qurilmasi yordamida bir necha bor xona haroratida o'rganildi.

Olish texnologiyasi. Tadqiqotni asosiy maqsadi kremniy sirtida yuqori klasterni hosil qilib uning katta magnit momentga ega materialni tatbiq etishdan iborat. Yevropiy atomlarining nanoklasterlarining turli konsentratsiyasi bo'lgan kremniy magnitlanishining magnit maydonga bog'liqligi o'rganildi 1-rasm. Shu sabab klasterlarni hosil bo'lish uchun yuqori ikki xil haroratda $T_1=1200^\circ\text{C}$, $T_2=1250^\circ\text{C}$ diffuziya qilib, magnit xususiyatini o'rganildi. Tadqiqot natijasidan ma'lumki, harorat yuqori qilishdan asosiy maqsad kremniy

sirtidagi konsentratsiyasini oshirishdan iborat. Namunalarning magnitlanishi 1-jadvalda tahlili keltirib o'tilgan.


1-jadval.

Namunalarning magnitlanishi tahlili

Namunalar	Konsentratsiya N, sm^{-3}	Magnitlanishning to'yinganligi $M_s, \text{emu/sm}^{-3}$	Magnitlanish qoldig'i $M_r, \text{emu/sm}^{-3}$	Majburiy kuch H_c, Oe
<i>a</i>	$8.2 \cdot 10^{17}$	$\pm 1.47 \cdot 10^{-4}$	$3.5 \cdot 10^{-5}$	58
<i>b</i>	$1.8 \cdot 10^{18}$	$\pm 5.95 \cdot 10^{-4}$	$3.42 \cdot 10^{-5}$	65.3

Tadqiqot natijasidan ko'rishimiz mumkinki xona haroratida o'rganilyotgan namunada magnitlanish Gisterezis hodisasi kuzatildi.

Agarda magnitlanganlikni (χ) quydagi 1 formula orqali hisoblab chiqsak xona haroratida $\chi=10^{-5}$ ga teng bo'ldi.



2-rasm. Turli haroratlarda yevropiy kirishma atomlarini diffuziya qilingan kremniy namunalarning magnitlanganligini tashqi magnet maydonga bog'liqligi; a-harorat $T_1=1200^\circ\text{C}$, b-harorat $T_2=1250^\circ\text{C}$.

$$\chi = \frac{M}{H}$$

bunda M –magnitlanish, H –magnit maydon kuchi

Yevropiy kirishma atomlari diffuzion usul bilan kiritilgan kremniyning magnit xususiyatlarini o‘rganish asosida tezkor ishlaydigan magnit sensorlar, magnit diodlar, tranzistorlar, integral sxemalar hamda sezgirligi yuqori magnit datchiklarni yaratish imkoniyatlari ko‘rsatilgan.

Xulosa. Xona haroratda ($T=300$ K) yevropiy kirishma atomlari bilan legirlangan kremniy sirtida magnit domenlarni shakllantrishni yangi texnologiyasini yaratildi hamda tashqi magnit maydon ta’sirda tartibli oshishi kuzatildi. Si<EuO> namunalardagi magnitlanganlikni (χ) xona haroratida $\chi=10^{-5}$ ga teng ekanligi aniqlandi.

ADABIYOTLAR:

1. Ohno H., *Making Nonmagnetic Semiconductors Ferromagnetic. Control and use of defects in materials*//1998. Vol 281 No5379. pp 951–956. doi:10.1126/science.281.5379.951.

2. Zikrillaev N.F., Mavlonov G.H., Trabzon L., Isamov S.B., Abduganiev Y.A., Ibodullaev Sh.N., Kushiev G.A. *Magnetic Properties of Silicon Doped with Impurity Atoms of Europium* // *Journal of Nano and Electronic Physics*. 2023. Vol. 15 No 6, 06001.pp 1-4. ISSN: 2077-6772 IF: 0.716. [https://doi.org/10.21272/jnep.15\(6\).06001](https://doi.org/10.21272/jnep.15(6).06001)

3. Бахадырханов М. К., Якубов А. А. *Энциклопедический справочник по полупроводниковым материалам: ТашГТУ*// 2010. 204 с.

4. Lahtinen T.H.E.; Tuomi J.O.; Van Dijken S. *Electrical Writing of Magnetic Domain Patterns in Ferromagnetic.Ferroelectric Heterostructures. IEEE transactions on magnetics* // 2011. Vol 47(10), Pp 3768–3771. doi:10.1109/tmag.2011.2143393.

5. Tagantsev A K.; Cross L E; Fousek J. *Domains in Ferroic Crystals and Thin Films. Springer Science+Business*//2010. pp 1-821. doi:10.1007/978-1-4419-1417-0.

6. Mavlonov G.H., Isamov S.B., Koveshnikov S.V., Zikrillaev Kh.F., Abduganiev Y. A., Sattorov A.A., Ibrohimov A.B. *Ordering of europium magnetic domains in silicon at room temperature* // *Indian Journal of Physics*. 2024. Vol 99(7) pp 2429–2435. ISSN:0973-1458 <https://doi.org/10.1007/s12648-024-03473-0>.

7. Мавлонов Г.Х., Абдуганиев Й.А. *Исследование электронного парамагнитного резонанса редкоземельных элементов (Nd, Eu, Gd), легированных в монокристаллическом кремнии* // *Вухоро давлат университети ilmiy axboroti*, 2024. 88-91 б.

8. Mavlonov G‘.H., Abdug‘aniyev Y.A. *Yevropiy kirishma atomlari bilan legirlangan kremniyning magnit xususiyati* // *Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti*. №3. 2025. 96-100 б.

ERKIN TEBRANISHLAR TUSHUNCHASI VA FIZIK MOHIYATI

Ro'ziyev To'lqin Razzoqovich,

Buxoro davlat pedagogika instituti

Fizika kafedrasi dotsenti, f.-m.f.f.d. (PhD)

ruzievtulqin@gmail.com

Axmedova Umeda Farhod qizi,

Buxoro davlat pedagogika instituti 2-bosqich magistranti

umidaaxmedova661@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada erkin tebranishlar tushunchasi, ularning fizik mohiyati, matematik ifodasi hamda turli tizimlarda ro'y berish sabablari keng yoritilgan. Shuningdek, tebranish jarayonining asosiy parametrlari amplituda, davr, chastota va fazaning o'zaro bog'lanishi tahlil qilinadi. Erkin tebranishlarning mexanik, elektr va akustik tizimlardagi namoyon bo'lishi nazariy asosda ko'rib chiqilib, ularning differensial tenglamalar orqali modellashtirilishi amaliy misollar bilan ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: erkin tebranishlar, mexanik tizim, differensial tenglama, burchak chastota, amplitude, faza burchagi, rezonans, energiya saqlanishi, LC-kontur, elastik kuch, Guk qonuni, Nyuton qonuni, tebranish nazariyasi, barqarorlik tahlili.

КОНЦЕПЦИЯ И ФИЗИЧЕСКАЯ СУТЬ СВОБОДНЫХ КОЛЕБАНИЙ

Аннотация. В статье дан комплексный обзор понятия свободных колебаний, их физической природы, математического выражения и причин возникновения в различных системах. Проанализирована взаимосвязь между основными параметрами колебательного процесса: амплитудой, периодом, частотой и фазой. Теоретически рассмотрено проявление свободных колебаний в механических, электрических и акустических системах, а также на практических примерах показано их моделирование дифференциальными уравнениями.

Ключевые слова: свободные колебания, механическая система, дифференциальное уравнение, круговая частота, амплитуда, фазовый угол, резонанс, закон сохранения энергии, LC-контур, сила упругости, закон Гука, закон Ньютона, теория колебаний, анализ устойчивости.

THE CONCEPT AND PHYSICAL ESSENCE OF FREE VIBRATIONS

Abstract. This article provides a comprehensive overview of the concept of free oscillations, their physical nature, mathematical expression, and the causes of their occurrence in various systems. The relationship between the main parameters of the oscillatory process—amplitude, period, frequency, and phase—are analyzed. The manifestation of free oscillations in mechanical, electrical, and acoustic systems is theoretically examined, and their modeling using differential equations is demonstrated using practical examples.

Keywords: free vibrations, mechanical system, differential equation, angular frequency, amplitude, phase angle, resonance, energy conservation, LC-circuit, elastic force, Hooke's law, Newton's law, vibration theory, stability analysis.

Kirish. Tebranishlar hodisasi tabiatda keng tarqalgan bo'lib, u mexanik, elektr, akustik, hatto kvant tizimlarida ham kuzatiladi. Har qanday tizim muvozanat holatidan chetlashtirilganda va unga tiklovchi kuch ta'sir qilganda, u ma'lum vaqt davomida muvozanat holati atrofida davriy harakatni amalga oshiradi. Ana shu jarayon tebranish deb ataladi. Agar bu tebranishlar tashqi kuchlarning aralashuvisiz, faqat tizimning ichki energiyasi hisobiga yuzaga kelsa, u holda bu erkin tebranish deyiladi.

Erkin tebranishlar bu energiyaning bir shakldan ikkinchi shaklga uzluksiz almashinuvi bilan kechadigan murakkab dinamik jarayondir. Masalan, buloqqa osilgan yuk tebranganda, dastlabki potensial energiya kinetik energiyaga, so'ng yana potensial energiyaga aylanishda davom etadi. Shu kabi tebranishlar elektr konturlarida (induktivlik va sig'im orasida zaryad almashinuvi), akustik tizimlarda (tovush to'lqinlari shaklida), va hatto atom hamda molekullar darajasida ham kuzatiladi.

Erkin tebranishlarning mohiyatini chuqur anglash mexanika, qurilish, akustika, elektrodinamika, avtomatika va hatto nanofizika kabi ko‘plab sohalarda alohida ahamiyatga ega. Chunki real tizimlarning barqarorligi, chidamliligi va rezonans holatlarida yuzaga keladigan xavfli tebranishlarni aniqlash, ulardan himoyalash va ularni boshqarish imkoniyati aynan shu nazariy asosga tayanadi. Masalan, bino konstruksiyalarida, ko‘priklarda yoki mashina detallarida paydo bo‘ladigan erkin tebranishlarni hisobga olmaslik rezonans hodisasiga olib kelib, jiddiy mexanik shikastlanishlar keltirib chiqarishi mumkin.


Shu bois erkin tebranishlar nazariyasini o‘rganish, ularning differensial tenglamalar orqali ifodalanishi va asosiy parametrlarini (amplituda, chastota, faza, davr) tahlil qilish bugungi kunda ilm-fan va muhandislik amaliyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqot natijalari turli tizimlarning dinamik xatti-harakatini prognoz qilish, rezonansni oldini olish hamda energiya tejamkor boshqaruv usullarini ishlab chiqishda keng qo‘llaniladi.

Adabiyotlar tahlili. Erkin tebranishlar nazariyasi asrlar davomida ko‘plab olimlar tomonidan chuqur o‘rganilgan va rivojlantirilgan. Bu sohadagi tadqiqotlar mexanik tizimlardan boshlanib, keyinchalik elektr va boshqa fizik tizimlarga kengaytirilgan. A. Lagrange, I. Nyuton va D. Bernulli mexanik tebranishlarni matematik jihatdan tavsiflashga asos solgan olimlardir. Ular differensial tenglamalar yordamida tizimning harakatini ifodalash va energiya almashinuvi prinsiplarini tushuntirishga kirishgan, bu esa massalar, buloqlar va pendullar kabi klassik tizimlarda erkin tebranishlarni matematik modellashtirishga imkon yaratgan. Keyinchalik, Lord Rayleigh tebranishlar energiyasi, amplituda, davr va rezonans hodisalarini chuqur tahlil qilgan, tebranishlarning tabiiy chastotalari, tizimning tashqi kuchlarga javobi va energiya saqlanishini o‘rganish orqali nazariyani yangi bosqichga olib chiqqan va rezonans hodisasining xavfsizlik hamda muhandislik ilovalaridagi ahamiyatini aniqlagan. So‘nggi asrlarda zamonaviy olimlar erkin tebranishlarni kengroq tizimlarda o‘rganishga e‘tibor qaratgan; struktura tahlilida binolar, ko‘priklar va mashinalar elementlarining tabiiy tebranish chastotalari, amplitudasi va energiya almashinuvi o‘rganiladi, elektr tizimlarda esa RLC zanjirlari orqali zaryad va tokning almashinuvi mexanik tebranishlarning analogi sifatida tahlil qilinadi. Zamonaviy tadqiqotlar erkin tebranishlarni matematik modellashtirish va kompyuter simulyatsiyalari yordamida batafsil o‘rganishga yo‘naltirilgan bo‘lib, turli chegaraviy shartlar va tashqi ta’sirlar ostida tizimlarning javobi oldindan bashorat qilinadi. Shu tariqa, adabiyotlar tahlili erkin tebranishlarni tushunishda tarixiy asoslar, matematik modellashtirish, energiya almashinuvi va zamonaviy tadqiqotlarning bir-biriga bog‘liqligini ko‘rsatadi, bu esa nafaqat nazariy, balki amaliy muhandislik masalalarini yechishda ham muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy adabiyotlarda (masalan, Landau va Lifshits “Mexanika” asarida) erkin tebranishlar umumiy differensial tenglamalar bilan tavsiflanadi. Elektr tizimlaridagi erkin tebranishlar esa LC -kontur modeli orqali ifodalanadi (1-rasm):

$$L \frac{d^2 q}{dt^2} + \frac{1}{C} q = 0 \quad (1)$$

Bu yerda L - induktivlik, C - sig‘im, q - zaryad. Ushbu tenglama mexanik tebranish tenglamasiga to‘liq analog hisoblanadi.



1-rasm. RLC zanjirida erkin tebranish va energiya almashinuvi

Adabiyotlarda qayd etilishicha, erkin tebranish tizimlarida energiyaning saqlanish qonuni asosiy rol oʻynaydi. Tizimga tashqi energiya taʼsir qilinmasa, uning umumiy energiyasi doimiy qoladi.

Boshlangʻich nuqtada tizimning energiyasi turli shakllarda boʻlishi mumkin: baʼzan u toʻliq potensial energiya shaklida, baʼzan esa toʻliq kinetik energiya shaklida boʻladi. Harakat davomida bu energiyalar oʻzaro almashadi: potensial energiya kinetik energiyaga aylanadi, kinetik energiya esa yana potensial energiyaga. Shu tarzda energiya doimiy ravishda tizim ichida aylanishi natijasida erkin tebranishlar davom etadi.

Bu jarayon mexanik, elektr va boshqa turdagi tizimlarda bir xil prinsipda ishlaydi va tizimning har bir vaqtdagi holatini, tezligini va harakat xususiyatlarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega:

$$E = \frac{1}{2}kx^2 + \frac{1}{2}mv^2 = const \quad (2)$$

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot erkin tebranishlarning fizik mohiyatini, ularni matematik modellashtirish usullarini va vaqt boʻyicha oʻzgarishlarini batafsil tahlil qiladi.

Erkin tebranishlar bu tizim tashqi taʼsirlarisiz tabiiy ravishda harakatlanadigan holatlar. Masalan, elastik jismlar, pendullar yoki massali-spring tizimlar oʻzining ichki energiyasi yordamida harakat qiladi. Tizimga tashqi kuchlar taʼsir qilinmasa, bu harakatlar davom etadi.

Erkin tebranishlarni matematik jihatdan tavsiflash uchun differensial tenglamalar ishlatiladi. Ularning yordamida tizimning asosiy xususiyatlari aniqlanadi:

Davr (T) - tebranishning bir toʻliq sikli uchun ketadigan vaqt.

Chastota (f) - bir vaqt birligida qancha tebranish amalga oshishini bildiradi.

Amplituda (A) - tebranishning maksimal qiymati yoki eng katta siljish hajmi.

Fazaviy burchak - tebranish boshlanish nuqtasi va boshlangʻich holatini belgilaydi.

Bu parametrlar bir-biri bilan chambarchas bogʻliq boʻlib, tizimning har bir vaqtdagi holatini, tezligini va harakat yoʻnalishini aniqlash imkonini beradi.

Tadqiqot davomida erkin tebranishlarning matematik modellashtirilishi turli tizimlar uchun qoʻllaniladi. Bu mexanik tizimlar, struktura tahlillari va muhandislik ilovalarida tebranishlarning oldindan bashorat qilinishini taʼminlaydi.

$$T = \frac{2\pi}{\omega} \text{ va } f = \frac{1}{T}, \quad (3)$$

bu yerda T - tebranish davri (s), f - chastota (Hz), ω - burchak chastota (rad/s).

Grafik jihatdan erkin tebranishlar sinusoidal shaklda ifodalangani. Bu chiziqli grafik tebranish jarayonining davriy va muvozanat holati atrofida takrorlanib turuvchi xarakterini aniq koʻrsatadi. Sinusoidal shakl tizimning energiya almashinuvi jarayonini - yaʼni kinetik va potensial energiyalarning oʻzaro aylanishini - tasvirlaydi.

Tajriba va modellashtirish natijalari shuni koʻrsatadiki, agar tizimda ishqalanish yoki qarshilik kuchlari mavjud boʻlsa, tebranishlar vaqt oʻtishi bilan susayadi. Bunday holatlarda erkin tebranishning matematik ifodasi soʻnuvchi eksponenta koʻrinishida yoziladi:

$$x(t) = Ae^{-\beta t} \sin(\omega t + \varphi_0), \quad (4)$$

bu yerda β - soʻnish (susayish) koeffitsiyenti boʻlib, u tizimdagi energiya yoʻqotish darajasini belgilaydi.

Metodologik jihatdan, tadqiqot ikki asosiy bosqichda olib borildi:


1. Nazariy modellashtirish – erkin tebranish tenglamalari asosida parametrlar oʻrtasidagi bogʻlanish aniqlanib, tebranish jarayonining matematik modeli tuzildi.

2. Grafik tahlil – sinusoidal va susayuvchi tebranishlarning vaqt boʻyicha oʻzgarish grafigi qurilib, ularning amplituda va chastota xususiyatlari solishtirildi (2-rasm).

Ushbu metodologiya tebranish jarayonini chuqur tahlil qilish, tizimdagi energiya almashinuvi va soʻnish tezligini aniqlash, shuningdek, rezonans holatlarida barqarorlik sharoitlarini baholash imkonini beradi.

Fizik mohiyat. Erkin tebranishlarning fizik mohiyati shundan iboratki, ular tizim ichidagi energiya muvozanati asosida yuzaga keladi. Boshqacha aytganda, tizim tashqi taʼsirsiz oʻz ichki energiyasidan foydalangan holda tabiiy ravishda harakatlanadi. Bu jarayonda energiya bir turdan boshqasiga uzluksiz oʻtadi va doimiy almashinuv sodir boʻladi.

Masalan, mexanik tizimlarda, erkin tebranishlarni buloq va massa orqali tasavvur qilish mumkin. Buloq siqilganda yoki choʻzilganda uning potensial energiyasi maksimal boʻladi, bu energiya massaning harakati boshlanishi bilan kinetik energiyaga aylanadi. Massaning harakati toʻxtaganda, kinetik energiya yana buloqning potensial energiyasiga aylanadi. Shu tarzda energiya doimiy ravishda bir turdan boshqasiga oʻtadi, natijada tizimda erkin tebranishlar davom etadi.




2-rasm. Susayuvchi sinusoidal tebranish grafigi

Shunga o‘xshash jarayon elektr tizimlarda ham kuzatiladi. Masalan, RLC zanjirida kondensator va induktivlik energiyasi o‘rtasida almashuv sodir bo‘ladi. Kondensator zaryadi maksimal bo‘lgan paytda uning energiyasi eng yuqori bo‘ladi, tok esa nolga teng bo‘ladi. Tok maksimal bo‘lganda, kondensator zaryadi nolga tushadi va uning energiyasi induktivlik energiyasiga aylanadi. Shu bilan elektr energiyasi ham mexanik tizimdagi kabi bir turdan boshqasiga uzluksiz almashadi.

Shunday qilib, erkin tebranishlar — bu energiyaning bir turdan boshqasiga o‘tib, tizim ichida qayta tiklanib turish jarayoni bo‘lib, u nafaqat mexanik, balki elektr va boshqa fizik tizimlarda ham bir xil prinsipda amalga oshadi. Bu tushuncha erkin tebranishlarni chuqur tahlil qilish, ularning davriyligi, amplitudasi va fazaviy holatini aniqlashda asosiy rol o‘ynaydi.

Shunday qilib, tebranishlar - bu energiyaning bir turdan boshqasiga o‘tib, qayta tiklanib turish jarayonidir (3-rasm).



3-rasm. Erkin tebranishlarning fizik mohiyati

Natijalar va ularning muhokamasi. O‘tkazilgan tahlillar natijasida susayuvchi sinusoidal tebranish grafigi vaqt o‘tishi bilan amplitudaning eksponentsial kamayishini aniq ko‘rsatdi. Grafikdan ko‘rinib turibdiki, tebranish dastlab yuqori energiyaga ega bo‘lib, vaqt o‘tishi bilan asta-sekin so‘nadi. Bu jarayon tizimdagi ishqalanish, qarshilik yoki energiya yo‘qotish holatlari bilan izohlanadi. Dastlabki bosqichda amplituda maksimal qiymatga ega bo‘ladi, biroq har bir davrda u β koeffitsientga bog‘liq holda kamayib boradi. Egri chiziq ustidagi qizil punktir konvertlar - $\pm A e^{-\beta t}$ - tebranish amplitudasining chegaraviy qiymatlarini ko‘rsatadi. Ular orasida joylashgan sinusoidal egri chiziq esa tebranishning davriy xarakterini aks ettiradi. Har bir davrda amplituda kamaygani sari tizimning kinetik energiyasi potensial energiyaga nisbatan qisqaradi, natijada umumiy mexanik energiya ham pasayadi. Bu holat energiyaning so‘nuvchi almashinuvi sifatida talqin qilinadi. Susayuvchi tebranishlarning muhim xususiyati shundaki, ular vaqt o‘tishi bilan muvozanat holatiga intiladi. So‘nish tezligi β koeffitsiyent orqali belgilanib, tizimning fizik xususiyatlariga (masalan, ishqalanish kuchi, o‘tkazuvchanlik, qarshilik) bevosita bog‘liqdir. β qiymati ortgan

sari tebranish tezroq soʻnadi, yaʼni tizim barqaror holatga tezroq qaytadi. Aksincha, β juda kichik boʻlsa, tebranish uzoq davom etadi - bu holat amaliy tizimlarda rezonansga yaqin xatti-harakatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Olingan natijalar mexanik va elektr tizimlarning dinamik javobini tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega. Masalan, buloq-yuk tizimi, LC-kontur, yoki akustik rezonatorlarda tebranish energiyasining soʻnish tezligini baholash, barqarorlikni saqlash hamda rezonansni oldini olish aynan shu matematik model orqali amalga oshiriladi. Shu tarzda olingan tahliliy natijalar amaliy konstruksiyalarni loyihalashda energiya yoʻqotishlarni minimallashtirish va tizimning xizmat muddatini uzaytirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, erkin tebranishlar har qanday fizik tizimning asosiy dinamik xususiyatlaridan biri boʻlib, u energiyaning bir shakldan boshqasiga uzluksiz almashinuvi jarayonida kechadi. Tebranishlar matematik jihatdan sinusoidal shaklda ifodalanadi va ularning asosiy parametrlari - amplituda, davr, chastota hamda faza - oʻzaro muvofiq bogʻlangan miqdorlar hisoblanadi.

Ishqalanish yoki tashqi qarshilik mavjud boʻlgan holatlarda tebranishlar soʻnuvchi xarakterga ega boʻladi. (4)- tenglama koʻrinishidagi funksiya yordamida bu jarayon aniqlik bilan tavsiflanadi. Grafik tahlil shuni koʻrsatadiki, amplituda vaqt oʻtishi bilan eksponentsial kamayadi, bu esa tizimdagi energiya yoʻqotish darajasini ifodalaydi.

β koeffitsiyentning qiymati tebranishning soʻnish tezligini belgilab, tizimning barqarorlik holatini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Katta β qiymati tez soʻnuvchi, kichik β qiymati esa uzoq davom etuvchi tebranishlarga olib keladi. Ushbu qonuniyatlar mexanik, elektr va akustik tizimlarni loyihalashda rezonansni oldini olish, barqarorlikni taʼminlash va energiya samaradorligini oshirish uchun amaliy asos yaratadi.

Umuman olganda, erkin tebranishlarning nazariy va grafik tahlili murakkab tizimlarning dinamik javobini tushunish, ularni modellashtirish va optimallashtirishda muhim ilmiy hamda amaliy ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR:

1. Landau L.D., Lifshits E.M. *Mexanika, Moskva: Nauka, 1976.*
2. Rayleigh J.W. *The Theory of Sound, London, 1896.*
3. Yakubov A.R. *Mexanik tebranishlar asoslari, Toshkent: Oʻqituvchi, 1998.*
4. Tikhonov A.N., Samarskii A.A. *Differensial tenglamalar nazariyasi, Moskva, 1983.*
5. Feynman R. *Lectures on Physics, Vol. I, Addison-Wesley, 1964.*
6. Thomson W. *Theory of Vibrations, Cambridge University Press, 1887.*
7. Poincaré H. *Mécanique, Paris: Gauthier-Villars, 1892.*
8. Papaleksi Y. *Elastic Systems and Vibrations, Moscow: Nauka, 1970.*
9. Meirovitch L. *Elements of Vibration Analysis, New York: McGraw-Hill, 1975.*
10. Den Hartog J.P. *Mechanical Vibrations, London: McGraw-Hill, 1956.*
11. Clough R.W., Penzien J. *Dynamics of Structures, McGraw-Hill, 1975.*
12. Rao S.S. *Mechanical Vibrations, Pearson, 2004.*
13. Inman D.J. *Engineering Vibrations, Prentice Hall, 2001.*
14. Thomson W.T., Dahleh M.D. *Theory of Vibration with Applications, Prentice Hall, 1998.*
15. Graff K.F. *Wave Motion in Elastic Solids, Dover Publications, 197*

CaMoO₄ KRISTALLARIDA AKUSTIK TO‘LQINLARDA KOLLINEAR YORUG‘LIK DIFRAKSIYASI

Axmedjanov Farxad Rashidovich,

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi

Ion-plazma va lazer texnologiyalari instituti

“Ko‘p fazali tizimlar issiqlik fizikasi” laboratoriya mudiri

Boltabayev Azizbek Farxadovich,

Respublika radioaktiv chiqindilarni ko‘mish

punkti davlat unitar korxonasi direktori

Elboyeva Moxinur Imomnazar qizi

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi

Ion-plazma va lazer texnologiyalari instituti katta ilmiy xodimi

elboyevamoxinur1990@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu ishda kalsiy molibdati (CaMoO₄) kristallarida yorug‘likning ko‘ndalang akustik to‘lqinlarda kollinear Bragg diffraksiyasi o‘rganildi. Mustaqil fotoelastiklik tenzori komponentlari modifikatsiyalangan Dikson usuli yordamida aniqlanib, ular asosida samarali fotoelastik doimiysi hamda akustooptik sifat koeffitsienti M_2 ning turli geometriyali diffraksiyalari hisoblandi. Natijalarga ko‘ra, CaMoO₄ kristallarining ko‘ndalang to‘lqinlar uchun M_2 ning qiymati PbMoO₄ va LiNbO₃ kristallariga nisbatan yuqori ekanligi aniqlangan. Maksimal M_2 qiymati ($12.1 \times 10^{-15} \text{ s}^3/\text{kg}$) 120° va 210° yo‘nalishlarda kuzatildi. Olingan natijalar CaMoO₄ kristallarining akustooptik filtr va modulyatorlarda samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: kalsiy molibdati, akustooptik effekt, Bragg diffraksiyasi, fotoelastiklik, kollinear diffraksiya.

КОЛЛИНЕАРНАЯ ДИФРАКЦИЯ СВЕТА НА АКУСТИЧЕСКИХ ВОЛНАХ В КРИСТАЛЛАХ CaMoO₄

Аннотация. В работе исследована коллинеарная Брэгговская дифракция света на поперечных акустических волнах в кристаллах CaMoO₄. Независимые компоненты тензора фотоупругости были определены модифицированным методом Диксона. На их основе рассчитаны эффективная фотоупругая постоянная и акустооптический коэффициент качества M_2 для различных геометрий дифракции. Показано, что для поперечных волн значение M_2 в кристаллах CaMoO₄ значительно выше, чем у PbMoO₄ и LiNbO₃. Максимум M_2 ($12.1 \times 10^{-15} \text{ s}^3/\text{kg}$) наблюдается при углах 120° и 210°. Эти результаты подтверждают, что CaMoO₄ является перспективным материалом для акустооптических фильтров и модуляторов.

Ключевые слова: молибдат кальция, акустооптический эффект, Брэгговская дифракция, фотоупругость, коллинеарная дифракция.

COLLINEAR DIFFRACTION OF LIGHT ON ACOUSTIC WAVES IN CaMoO₄ CRYSTALS

Abstract. The collinear Bragg diffraction of light by transverse acoustic waves in calcium molybdate (CaMoO₄) crystals has been investigated. Independent components of the photoelastic tensor were determined using the modified Dixon method. Based on these values, the effective photoelastic constant and the acousto-optic figure of merit (M_2) were calculated for different diffraction geometries. It was shown that for transverse waves M_2 value in CaMoO₄ crystals is a significantly higher compared to PbMoO₄ and LiNbO₃. The maximum M_2 ($12.1 \times 10^{-15} \text{ s}^3/\text{kg}$) is observed at 120° and 210°. These results confirm that CaMoO₄ is a promising material for acousto-optic filters and modulators.

Key words: calcium molybdate, acousto-optic effect, Bragg diffraction, photoelasticity, collinear diffraction.

Kirish. Kalsiy molibdati (CaMoO₄) sheyelit turkumiga mansub tetragonal tuzilishga ega bo‘lib, yuqori optik shaffoflik, past akustik so‘nuvchanlik, mexanik barqarorlik va ekologik xavfsizlik bilan ajralib turadi

[1–4]. Bu xususiyatlar uni akustooptik qurilmalar filtrlash, modulyatsiya, lazer chastota stabilizatsiyasi va spektral analizatorlar uchun muhim funksional materialga aylantiradi [5-6].

Akustooptik effekt fotoelastiklik hodisasi bilan bog‘liq bo‘lib, elastik to‘lqinlar tomonidan keltirilgan davriy sinish ko‘rsatkichi modulyatsiyasi natijasida yorug‘likning difraksiyanishiga olib keladi. Kollinear Bragg difraksiyasi holatida optik va akustik to‘lqinlar bir yo‘nalishda tarqaladi, bu faza sinxronizatsiyasining eng qulay sharoitini yaratadi [7-8]. Ushbu jarayonning samaradorligi fotoelastiklik tenzori komponentlari, akustik to‘lqin tezligi, zichlik va optik sindirish ko‘rsatkichiga bog‘liq bo‘lib, ular M_2 akustooptik sifat koeffitsienti orqali baholanadi [9-10].

Avvalgi ishlar CaMoO_4 kristalining yuqori fotoelastik xususiyatlarga ega ekanligini ko‘rsatgan bo‘lsa-da, ayniqsa *ko‘ndalang* akustik to‘lqinlar uchun *kollinear difraksiyaning* burchakka bog‘liqligi hali yetarlicha o‘rganilmagan [3, 11]. Shu bois ushbu tadqiqot CaMoO_4 kristallarining kollinear Bragg difraksiyasi mexanizmlarini chuqur tahlil qilishga, samarali fotoelastik konstantalar va M_2 koeffitsientining burchakka bog‘liqligini aniqlashga qaratilgan. Taqqoslash uchun keng qo‘llaniladigan PbMoO_4 va LiNbO_3 kristallari ham tekshirildi [12–15].

Tadqiqot metodologiyasi. Tajribalarda He–Ne lazer ($\lambda=632.8$ nm) nuri yordamida yorug‘likning akustik to‘lqinlarga Bragg difraksiyasi kuzatildi. Akustik to‘lqinlar kvarts transduserlar orqali 10–30 MHz chastotalarda qo‘zg‘atildi. Effektiv fotoelastik konstantalar modifikatsiyalangan Dikson usuli bilan aniqlanib, quyidagi ifoda asosida hisoblandi [4]:

$$p_{\text{eff}} = \frac{n^3 V}{2\rho\lambda} \sqrt{\frac{I_X}{I_S}} \quad (1)$$


bu yerda n – sinish ko‘rsatkichi, V – akustik to‘lqin tezligi, ρ – zichlik, I_X va I_S tadqiqot namunasi va etalon uchun difraksiyon intensivliklardir.

Olingan tezliklar va p_{eff} qiymatlaridan foydalanib, akustooptik sifat koeffitsienti quyidagi formula orqali topildi [5]:

$$M_2 = \frac{n^6 p_{\text{eff}}^2}{\rho V^3} \quad (2)$$

Ushbu metodologiya orqali CaMoO_4 , PbMoO_4 va LiNbO_3 kristallarining *ko‘ndalang* to‘lqinlar uchun akustooptik xossalari aniqlandi.

Natijalar va muhokama. Kristallarda akustik to‘lqinlarning faza tezligi ularning elastik konstantalari va simmetriyasiga bog‘liq bo‘lib, anizotrop materiallarda bu tezlik to‘lqin vektorining yo‘nalishiga qarab sezilarli o‘zgaradi. CaMoO_4 va PbMoO_4 kabi tetragonal simmetriyaga ega kristallarda kvazi-ko‘ndalang to‘lqinlar uchun faza tezliklari Kristoffel tenglamalari asosida hisoblanadi va bu qiymatlar akustooptik samaradorlikka bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Yo‘nalish bo‘yicha faza tezligining kamayishi M_2 koeffitsientining ortishiga olib keladi, chunki M_2 akustik tezlikning uchinchi darajasiga teskari proporsionaldir. (001) tekislikdagi CaMoO_4 va PbMoO_4 kristallarining kvazi-ko‘ndalang to‘lqinlar faza tezliklarining burchakka bog‘liqligi 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. CaMoO_4 (1) va PbMoO_4 (2) kristallarining (001) tekislikda kvazi-ko‘ndalang akustik to‘lqinlar faza tezligining akustik to‘lqin vektoriga bog‘liqligi

Grafik faza tezliklarining burchak bo‘yicha anizotropiligini yaqqol aks ettiradi. Har ikki kristalda faza tezligi yo‘nalish o‘zgarishi bilan sezilarli darajada farq qiladi, biroq CaMoO_4 kristalida bu o‘zgarish nisbatan barqaror va silliq xarakterga ega. PbMoO_4 kristalida esa elastik modullarning og‘ir metall komponentlari


sababli faza tezligining burchakka sezgirliги kuchliroq. Grafikdan ko‘rinadiki, CaMoO₄ kristali ko‘plab yo‘nalishlarda PbMoO₄ ga nisbatan yuqori faza tezligiga ega bo‘lib, bu akustooptik jarayonda qulay dinamik sharoitlarni yaratadi. Faza tezligining burchakka bog‘liq bu farqlari M₂ koeffitsientining maksimal qiymatlarining ham aynan ma‘lum yo‘nalishlarda (120° va 210°) kuzatilishiga sabab bo‘ladi. Zero, faza tezligi qanchalik past bo‘lsa, akustooptik o‘zaro ta‘sir uchun shunchalik qulay bo‘ladi, chunki M₂ koeffitsienti tezlikning uchinchi darajasiga teskari proporsional. Shu bois CaMoO₄ ning (001) tekislikdagi faza tezliklari taqsimoti materialning yuqori akustooptik samaradorligini tushuntiruvchi asosiy fizik omillardan biridir. 1- jadval uchta material orasida to‘liq va kompleks taqqoslash imkonini beradi.

1-jadval.

Kristallarning akustooptik parametrlari

Kristall	N	ρ (kg/m ³)	V (m/s)	p _{eff}	M _{2,max} (×10 ⁻¹⁵ s ³ /kg)
CaMoO₄ (CMO)	1.98	4250	2850	0.17	12.12
PbMoO₄ (PMO)	2.20	6950	2700	0.12	4.43
LiNbO₃	2.23	4650	3700	0.10	3.07

Jadvalda CaMoO₄, PbMoO₄ va LiNbO₃ kristallarining asosiy akustooptik parametrlarining taqqoslanishi keltirilgan bo‘lib, ular materiallarning difraksion samaradorligini aniqlovchi asosiy omillardan hisoblanadi. CaMoO₄ kristalining nisbatan past sindirish ko‘rsatkichi (n = 1.98) va ayniqsa past zichligi (ρ = 4250 kg/m³) uning akustooptik samaradorligini oshiradi, chunki M₂ koeffitsienti zichlik va akustik tezlikning kubiga teskari proporsionaldir. CaMoO₄ ning ko‘ndalang akustik to‘liq tezligi (V=2850 m/s) ham boshqa kristallarga nisbatan past bo‘lib, bu M₂ ning ortishiga yana bir omil bo‘ladi. Eng muhim parametr samarali fotoelastik konstantaning (p_{eff} = 0.17) PbMoO₄ va LiNbO₃ ga qaraganda yuqori bo‘lishi CaMoO₄ ning optik modulyatsiyaga javob berish xususiyatini kuchaytiradi. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, CaMoO₄ akustooptik qurilmalar uchun eng qulay parametrlar kombinatsiyasiga ega materialdir. Bu jadval akustooptik modulyatorlar, filtrlash tizimlari, spektral analizatorlar va lazerlar uchun material tanlashda asosiy ilmiy manba sifatida xizmat qilishi mumkin. CaMoO₄, PbMoO₄ va LiNbO₃ kristallarida akustooptik sifat koeffitsientining (001) tekislikda akustik to‘liqning tarqalish yo‘nalishiga bog‘liqligi 2-rasmda keltirilgan.



2-rasm. CaMoO₄ (1), PbMoO₄ (2) va LiNbO₃ (3) kristallarida M₂ koeffitsiyentining (001) tekislikda akustik to‘liqning tarqalish yo‘nalishiga bog‘liqligi

Grafikdan ko‘rinib turibdiki, M₂ ning qiymati CaMoO₄ kristali uchun 120° va 210° burchaklarda maksimumga ega bo‘lib, qiymat 12.1×10⁻¹⁵ s³/kg ga yetadi. Bu PbMoO₄ va LiNbO₃ kristallaridagi mos ravishda 4.4 va 3.1×10⁻¹⁵ s³/kg qiymatlardan mos ravishda 2.7 va 4 baravar yuqoridir. Bu yo‘nalishlarda optik-akustik faza uyg‘unlashuvi maksimal bo‘lib, kollinear Bragg difraksiyasi uchun optimal geometriya ta‘minlanadi. Bu natija CaMoO₄ kristallarining kollinear Bragg difraksiyasi sharoitida optik va akustik to‘liqlar energiya almashinuvi eng samarali yo‘nalishlarga ega ekanini ko‘rsatadi. Shuningdek, uning past zichligi (4250 kg/m³) tufayli energiya o‘tish samaradorligi yuqori bo‘ladi, bu esa akustooptik filtrlarda sezilarli afzallik beradi.

Xulosa. Ushbu tadqiqotda CaMoO_4 kristallarida ko'ndalang akustik to'lqinlar bilan yorug'likning kollinear Bragg difraksiyasi o'rganildi. Modifikatsiyalangan Dikson usuli yordamida fotoelastik tenzor komponentlari aniqlanib, samarali fotoelastik konstantalar va akustooptik sifat koeffitsiyenti M_2 hisoblandi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, CaMoO_4 kristallarida M_2 PbMoO_4 va LiNbO_3 ga nisbatan yuqori bo'lib, maksimal qiymat 120° va 210° yo'nalishlarda kuzatildi. Faza tezligining barqaror taqsimoti, past zichlik va yuqori fotoelastik konstantalar CaMoO_4 ning akustooptik jarayonlarda yuqori samaradorlik ko'rsatishiga imkon beradi. Shu bilan birga, u akustooptik modulyatorlar, filtrlash tizimlari va lazerlarda qo'llash uchun istiqbolli material sifatida ajralib turadi. Olingan natijalar kollinear Bragg difraksiyasi va akustooptik samaradorlik o'rtasidagi bog'liqlikni ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

ADABIYOTLAR:

1. Dixon R.W., Cohen M.G. *A new technique for measuring magnitudes of photoelastic tensors...* *Appl. Phys. Lett.*, 1966.
2. Venturini E.L., Spencer E.G., Ballman A.A. *Elasto-optic properties of $\text{Bi}_{12}\text{GeO}_{20}$...* *J. Appl. Phys.*, 1969.
3. Akhmedzhanov F.R., Elboeva M.I. *Collinear Diffraction of Light in CaMoO_4 Crystals*, 2024.
4. Yao X., Zhang W. *Acousto-optic properties of CaMoO_4 and PbMoO_4* , *Optical Materials*, 2020.
5. Yariv A. *Optical Electronics in Modern Communications*, OUP, 2019.
6. Boyd R.W. *Nonlinear Optics*, Academic Press, 2020.
7. Dmitriev V. et al. *Handbook of Nonlinear Optical Crystals*, Springer, 2021.
8. Smith J. et al. *Acousto-Optic Devices*, *J. Appl. Phys.*
9. Chang R. *Advanced Acousto-Optic Theory*, *Physics Reports*, 2018.
10. Kolbus R., et al. *Elastic Wave Propagation in Anisotropic Crystals*, *Optics Express*, 2017.
11. Müller M. *Sheelite-type Crystals for Modern Optics*, *Crystal Growth Reports*, 2022.
12. Lin S., et al. *Photoelastic characterization of tetragonal oxides*, *Optics Letters*, 2019.
13. Kuroda T. *Bragg diffraction in acousto-optic systems*, *JOSA B*, 2021.
14. Pavlov P. *Elastic and acoustic properties of Mo-based crystals*, *J. Crystal Phys.*, 2020.
15. Huang Y., et al. *Comparative acousto-optic study of LiNbO_3 and Mo-based crystals*, *Optical Engineering*, 2023.

URAN VA PLUTONIY IZOTOPLARINI BOYITILISHI VA ULARNI YADRO
REAKTORLARIDA QO'LLANILISHI**Eshbo'riyev Rashid,**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Yadro texnologiyalari instituti Yadro fizikasi va
astronomiya kafedrası professori
eshburiyev0082@gmail.com

Ubaydullayeva Muhayyo Abdurasul qizi,

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Yadro texnologiyalari instituti Yadro fizikasi va
astronomiya kafedrası magistranti
ubaydullayevamuhayyo80@gmail.com

Fayzullayeva Mukarram Lutfullo qizi,

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Yadro texnologiyalari instituti Yadro fizikasi va
astronomiya kafedrası stajyor-tadqiqotchisi
mukarramfatzullayeva@gmail.com

Abdusamadova Dilfuza Iskandar qizi,

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Yadro texnologiyalari instituti Yadro fizikasi va
astronomiya kafedrası magistranti
dilfuzaabdusamadova28@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur ishda uran izotoplarini boyitilish usullari va texnologiyalari chuqur tahlil qilingan va bu usullarning bir-biridan ustunligi hamda aniqlik darajasi ko'rsatilgan. Uran-235 izotopini boyitishning ayniqsa gaz-diffuziya, lazer va kimyoviy usullari to'liq tahlil qilingan.

Shuningdek, uran-235 izotopini matematik tenglamalardan foydalanib boyitishning bir bosqichli usuli taklif etilgan, bu bo'yicha matematik tenglamalar sistemasi va uning yechimlari keltirilgan. Uran-235 izotopini boyitilishini matematik tenglamalar yordamida bir bosqichli usuli bilan hisoblangan qiymati boshqa usullar bilan olingan qiymatlariga mos kelishi ko'rsatildi.

Kalit so'zlar: ajratish koeffitsiyenti, atom reaktori, boyitilgan uran, gaz diffuziya, izotop almashinuv, izotop boyitish, izotop ajratish, kimyoviy usuli, lazer usuli, magnit maydoni, matematik modellash, matematik tenglama, massa balansi, neytron, tabiiy uran, uran izotoplari, uran-233, uran-235, uran-238, yadro yoqilg'isi.

ОБОГАЩЕНИЕ ИЗОТОПОВ УРАНА И ПЛУТОНИЯ И ИХ ПРИМЕНЕНИЕ В
ЯДЕРНЫХ РЕАКТОРАХ

Аннотация. В данной работе проведён глубокий анализ методов и технологий обогащения изотопов урана, показаны их преимущества и степень точности. Особое внимание уделено методам обогащения изотопа урана-235, в частности газодиффузионному и химическому методам, которые изложены подробно.

Кроме того, предложен одноступенчатый метод обогащения изотопа уран-235 с использованием математических уравнений. Приведена система математических уравнений и их решения. Показано, что рассчитанные значения, полученные с помощью одноступенчатого математического метода обогащения урана-235, хорошо согласуются со значениями, полученными другими методами.

Ключевые слова: газодиффузионный метод, изотопное обогащение, изотопный обмен, изотопы урана, химический метод, коэффициент разделения, лазерный метод, магнитное поле, математическое моделирование, математические уравнения, массовый баланс, нейтрон, обогащённый уран, природный уран, разделение изотопов, ядерное топливо, уран-233, уран-235, уран-238.

ENRICHMENT OF URANIUM AND PLUTONIUM ISOTOPES AND THEIR APPLICATION IN NUCLEAR REACTORS

Abstract. In this work, the methods and technologies for uranium isotope enrichment have been thoroughly analyzed, highlighting their relative advantages and levels of precision. The enrichment methods of the Uranium-235 isotope, particularly the gas diffusion and chemical methods, are presented in detail.

Furthermore, a single-stage method for enriching the U-235 isotope based on mathematical equations has been proposed. The system of mathematical equations and their solutions are provided. It has been demonstrated that the calculated values obtained through the single-stage mathematical method for Uranium-235 enrichment correspond closely with the values derived from other established methods.

Keywords: chemical method, diffusion coefficient, enriched uranium, gas diffusion method, isotope enrichment, isotope exchange, isotope separation technology, laser method, magnetic field, mathematical equations, mathematical modeling, mass balance, natural uranium, neutron, nuclear fuel, uranium isotopes, uranium-233, uranium-235, uranium-238.

Kirish. Yadro yoqilg'isi deb - neytronlar ta'sirida bo'linadigan, tarkibida nuklidlar mavjud bo'lgan yadro materiallari (YaM) ga aytiladi. Bo'linuvchi nuklidlarga:

-Uran va toriyning tabiiy izotoplari (^{238}U , ^{232}Th , ^{235}U , ^{234}U);

-Plutoniyning sun'iy izotoplari (^{239}Pu , ^{240}Pu , ^{241}Pu). ^{239}Pu izotopi ^{238}U izotopining tez neytronni qamrashidan va ketma-ket β yemirilishdan hosil bo'ladi).

-Transuran elementlar (*Np, Am, Cm, Bk, Cf*) izotoplari;

-Uraning ^{233}U sun'iy izotopi. Bu izotop ^{232}Th izotopining tez neytronni qamrab 2 marta β^- yemirilishidan hosil qilinadi [1].

Tadqiqot metodologiyasi. Ma'lumki tabiiy uran tarkibida uranning 3 ta izotopi uchraydi, bu izotoplarga:



$^{238}\text{U} - 99,25\% \left(T_{\frac{1}{2}} = 4,5 \cdot 10^9 \text{yil} \right)$,

$^{235}\text{U} - 0,71\% \left(T_{\frac{1}{2}} = 0,7 \cdot 10^9 \text{yil} \right)$

$^{234}\text{U} - 0,0056\% \left(T_{\frac{1}{2}} = 2,5 \cdot 10^5 \text{yil} \right)$

kiradi.

Ammo yadro yoqilg'isi sifatida qo'llanadigan ^{233}U va plutoniyning -239,240 va 241 izotoplari yadro reaktorlarida uran va toriy izotoplaridan quyidagi reaksiyalar yordamida hosil qilinadi:



^{239}Pu va ^{233}U izotoplari yadro reaktorlarida yoqilg'i sifatida qo'llaniladi va sun'iy izotoplar hisoblanadi. ^{235}U , ^{239}Pu va ^{233}U izotoplari issiq neytronlar ($\epsilon = 0,025\text{eV}$) ta'sirida bo'linadi. ^{238}U va ^{232}Th izotoplari tabiiy yadro materiali (YaM) hisoblanadi va bu izotoplar tez neytronlar ($\epsilon \approx 1 - 10\text{MeV}$) ta'sirida parchalanadi va to'g'ridan-to'g'ri yadro yoqilg'isi sifatida qo'llanilmaydi, ya'ni yadro xom-ashyosi bo'lib hisoblanadi.

Hozirda yadro energetikasi asosan boyitilgan uran izotoplariga asoslanadi. Boyitilgan uran- ^{235}U bo'linuvchi izotopining miqdori tabiiy urandagi miqdoridan (0,71%) yuqori bo'lgan uran tushuniladi. Hozirgi zamon AESlarining aksariyatini, tarkibida ^{235}U izotopli past boyitilgan (2-5%) uranoksidli yoqilg'isidan foydalanadigan yengil suvli, issiq reaktorlar tashkil qiladi.

Uranni izotop boyitishning bir qator, ko'plab yadro texnologiyalari mavjud. Bularning barchasining asosida ^{238}U va ^{235}U izotoplarining massalari farqini aniqlashga asoslangan. Bu massalar farqi (3 m.a.b) magnit maydonida (elektromagnit usul) ionlashgan atomlarning har xil burchaklarga og'ishiga; atomlarning g'ovak to'siqlar (gaz diffuziyali usul) orqali o'tish tezliklari farqi; markazdan qochma kuchlar maydonida atomlar (molekulalarning) har xil fazoviy taqsimlanishi (gazli sentrafuga usuli); kichik egrilik radiusli

(ajratuvchi sonli usuli) to'siqni aylanib o'tishda atom (molekula)lar turli harakat trayektoriyalariga ega bo'lishiga asoslangan.

Uran izotoplarini ajratishni miqdoriy baholash usulini birinchi marta ingliz fiziklari R. Payerls va P. Diraklar taklif etishgan [2]. Ular izotop birikmalarini xarakterlovchi U funksiyani kiritgan. Bu funksiya birikma miqdori T ni faqat hosil qilingan izotop miqdoridan bog'liq bo'lgan biror o'lchamsiz funksiya $V(C_T)$ ko'paytmasi ko'rinishida ifodalagan,

$$U_T = T \cdot V(C_T)$$

va $V(C_T)$ –funksiyani izotoplarni ajratish potentsiali deb atagan.

Olimlar bu potentsial yordamida birlashgan va boyitilgan uran miqdorlarini aniqlagan.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Uranni boyitishning eng asosiy usullaridan biri gaz diffuziya usulidir (GD). Bu usulda issiqlik harakati hisobidan gaz birikmasida massalar ko'chishi jarayoni tushuniladi. GD usuli yordamida uranni boyitish og'ir va yengilroq molekulalarning issiqlik harakati tezliklari farqi hamda yengilroq molekulalarning yupqa g'ovak to'siqchadan o'tish qobiliyatiga asoslangan.

Bir xil temperaturali ikki xil gaz aralashmasida yengil va og'ir molekulalarning kinetik energiyalari ham bir xil,

$$m_e v_e^2 = m_0 v_0^2 \tag{1}$$

ya'ni, yengil molekulaning o'rtacha tezligi og'ir molekulanikidan kattaroq,

$$v_e = v_0 \left(\frac{m_0}{m_e} \right)^{1/2} \tag{2}$$


g'ovak to'siq orqali o'tuvchi ikkita gaz aralashmalarining ideal ajratish koeffitsiyenti:

$$\beta = \frac{v_e}{v_0} = \left(\frac{m_0}{m_e} \right)^{1/2} \approx 1 + \Delta m / 2m_e \tag{3}$$

Δm –og'ir va yengil molekulalar massalari farqi. Geksoftorid uran $^{235}\text{UF}_6$ va $^{238}\text{UF}_6$ uchun massalar farqi mos ravishda $m_e = 349$, $m_0 = 352$ va ajratish koeffitsiyenti hamda boyitilishi quyidagiga teng: $\beta = 0,043$; $A = 1 + \beta$, $A = 1 + 0,043$, $A_0 = 0,043\% = 4,3\%$. Gaz diffuziya usuli uran izotoplarini ajratish va boyitishning asosiy usuli hisoblanadi [3].

Bundan tashqari uranni izotop boyitilishining lazer usuli ham mavjud bo'lib bu usul ikki ko'rinishda ro'y berishi aniqlangan [3]. Birinchi ishchi jism-uranning atomar bug'i, ikkinchi-ishchi jism-molekulyar gaz ko'rinishidagi geksafторid uran UF_6 dan iborat. Atomar ajratish lazer nuri yordamida ^{235}U atomlarining tanlab uyg'onishiga asoslangan. So'ngra uyg'ongan atomlar lazer nuri bilan nurlantirilib tanlab ionlashadi va elektromagnit usuli bilan ^{238}U atomlari elektr neytral ko'rinishda uyg'onmagan birikmadan ajratib olinadi. ^{238}U va ^{235}U izotoplarini molekulyar ajratish $^{235}\text{UF}_6$ (geksafторid uran) molekulalarini selektiv uyg'onishiga asoslangan. Jarayonning birinchi bosqichida $^{235}\text{UF}_6$ molekulalari lazer nuri yordamida selektiv uyg'onadi, ikkinchi bosqichda esa $^{235}\text{UF}_6$ ning uyg'ongan molekulalari lazer nurlanishi ta'sirida selektiv dissotsiatsiyalanadi va $^{235}\text{UF}_6$ qattiq kukunini hosil qiladi.

Har xil kimyoviy birikmalarda izotoplarning turli mustahkamligiga asoslangan kimyoviy boyitish usuli ham mavjud. Kimyoviy usulda bitta elementning ikkita har xil kimyoviy birikmalari o'rtasida izotop almashinuv yuz beradi. Alohida izotoplar har holda mustahkamroq birikmalarda to'planadi. Bunga tabiiy borning ^{10}B izotopi bilan boyitilishi misol bo'la oladi. Tabiiy bor-20% ^{10}B izotopidan va 80% ^{11}B izotopidan iborat. Ammo bu izotoplarning issiq neytronlarni qamrash kesimi bir-biridan keskin farq qiladi: ^{11}B izotopi uchun qamrash kesimi 0,005 barn, ^{10}B izotopi uchun esa 3837 barn. Shuning uchun ham yadro reaktorlarini boshqarishda foydalaniladigan borni ^{10}B izotopi bilan boyitish maqsadga muvofiq. BF_3 birikmasini dimetil efirat trifторid bor- $\text{BF}_3\text{O}(\text{H}_3)_2$ bilan aralashganda organik birikmada ^{10}B to'planishi bilan izotop almashinuvi sodir bo'ladi [4]:



Turli valentli uran birikmalarida ham xuddi shunday izotop almashinuv reaksiyasini hosil qilish mumkin. Magnit maydonida ionlar maydon kuch chiziqlari bo'ylab spiral bo'yicha harakatlanadi. ^{235}U va ^{238}U ionlari ma'lum radiusli orbita bo'ylab harakatlanishi natijasida fazoviy ajraladi. Bu esa ^{235}U va ^{238}U izotoplarini alohida-alohida to'plash imkoniyatini beradi. Umumiy izotoplarni boyitish texnologiyasining sifati asosan ikkita parametr bilan baholanadi: effektivlik va energiya sig'im. Boyituvchi texnologiyaning

effektivligi jarayonning birinchi bosqichida birikmada zarur izotopning miqdorini oshirish qobiliyatidir. Boyituvchi texnologiyaning energiya sig'imi esa bir marta ajratish uchun sarflangan elektr energiyasi bilan aniqlanadi.

Biz bu ishda izotoplarni bir-biridan ajratishning matematik usullaridan va tenglamalaridan foydalanamiz. Buning uchun uran ^{235}U izotopini boyitishning prinsipial sxemasini qaraymiz.

Uran misolida dastlabki material massasini M va boyitilishini $C_M(^{235}\text{U})$ deb belgilaymiz. Ajratuvchi bosqich tizimidan so'ng ikkita yangi materialni hosil qilamiz. N miqdorli boyitilganligi $C_N(^{235}\text{U})$ bo'lgan uran va K miqdorli boyitilganligi $C_K(^{235}\text{U})$ bo'lgan birlashgan uran. Uran izotoplarini ajratishning matematik tenglamasini yozamiz: Asosi $M - C_M(^{235}\text{U})$

→Ajratuvchi bosqichlar tizimi

→Birlashgan uran- K (xom ashyo), $C_K(^{235}\text{U})$ to'plam;

→Boyitilgan uran- N (mahsulot), $C_N(^{235}\text{U})$ →yadro yoqilg'isi. Bu tizimlarni ikkita yadro materialini hisobga olgan matematik tenglama bilan ifodalash mumkin:

1) Uranning massa balansi → $M = N + K$

2) ^{235}U izotopining massa balansi →

$$C_M \cdot M = C_N \cdot N + C_K \cdot K \quad (4)$$

ko'rinishda yozish mumkin va natijada uchta noma'lumdan (M, N, K) iborat ikkita tenglamalar sistemasiga ega bo'lamiz. Bu tenglamalar sistemalarini N ga bo'lib ikkita noma'lumdan $\left(\frac{M}{N}\right)$ va $\left(\frac{K}{N}\right)$ iborat tenglamalar sistemasini hosil qilish mumkin.

$$\left. \begin{array}{l} 1) \quad \frac{M}{N} = 1 + \frac{K}{N} \\ 2) \quad C_M \cdot \frac{M}{N} = C_N + C_K \cdot \frac{K}{N} \end{array} \right\} \quad (5)$$

bu tenglamalar sistemasini yechib quyidagi koeffitsiyentlarni hosil qilamiz:

a) birlik mahsulotda tabiiy uran sarfi:

$$\frac{M}{N} = \frac{C_N - C_K}{C_M - C_K} \quad (6)$$

b) birlik mahsulotda birlashgan uran hosil bo'lishi,

$$\frac{K}{N} = \frac{C_N - C_M}{C_M - C_K} \quad (7)$$

Umumiy holda (6) va (7) tenglamalarni quyidagicha yozamiz:

$$\left. \begin{array}{l} \frac{M}{N} = \frac{C_N(^{235}\text{U}) - C_K(^{235}\text{U})}{C_M(^{235}\text{U}) - C_K(^{235}\text{U})} \\ \frac{K}{N} = \frac{C_N(^{235}\text{U}) - C_M(^{235}\text{U})}{C_M(^{235}\text{U}) - C_K(^{235}\text{U})} \end{array} \right\} \quad (7)$$

v) tabiiy uranning bo'linish oqimi- F

$M = N + K = F \cdot M + (1 - F) \cdot M$, bundan

$$F = \frac{N}{M} = \frac{C_M(^{235}\text{U}) - C_K(^{235}\text{U})}{C_N(^{235}\text{U}) - C_K(^{235}\text{U})} \quad (8)$$

(8) ifoda tabiiy uranning bo'linish oqimini xarakterlaydi.

1) Boyitilish jarayoni xarakteristikasi sifatida bir bosqichli ajratishda birikish yoki boyitilishni xarakterlovchi ajratish koeffitsiyentidan foydalaniladi:

2) Boyitilgan qoldiq bo'yicha ajratish koeffitsiyenti

$$\beta = \frac{D}{D} = \frac{C_N / (1 - C_N(^{235}\text{U}))}{C_M(^{235}\text{U}) / (1 - C_M(^{235}\text{U}))} \quad (9)$$

g) birlashgan qoldiq bo'yicha ajratish koeffitsiyenti;

$$\gamma = \frac{D'}{D''} = \frac{C_M(^{235}\text{U}) / (1 - C_M(^{235}\text{U}))}{C_K(^{235}\text{U}) / (1 - C_K(^{235}\text{U}))} \quad (10)$$

Boyitilish koeffitsiyenti:

$$A = \beta - 1 \quad (11)$$

birlashish koeffitsiyenti:

$$A' = \gamma - 1 \quad (12)$$

bir bosqichda to'liq boyitilish koeffitsiyenti:

$$A_0 = A + A' \quad (13)$$

Yuqorida (9) va (10) tenglamlarni hisobga olsak, to'liq boyitilish koeffitsiyenti uran-235 izotopi uchun turli qiymatlarni qabul qiladi.

Masalan: $A_0 = 0,02(2\%)$, $A_0 = 0,04(4\%)$ va hokazo.

Demak dastlabki uran izotopini M va ajratilgan, boyitilgan uran miqdori N va birlashgan uran miqdorlari K ni aniqlab (7-10) formulalar yordamida ^{235}U izotopini boyitilish darajasini aniqlash mumkin.

Ko'plab yadroviy reaktorlarda, jumladan VVER-1000, RBMK-1000 energetik reaktorlarda (2-4) % boyitilgan uran-235 izotopi qo'llaniladi va bu boyitilish darajasi issiq reaktorlarda zanjir reaksiyasini borishini ta'minlaydi.

Xulosa. Biz [5-6] maqolalarda energetik reaktorlarning (3-5) % boyitilgan $^{235}_{92}\text{UO}_2$ -uran oksidida ishlashini aytgan edik. Mazkur ishda uran-235 izotopining boyitilish darajasi [7] da kimyoviy reaksiyalar natijasida hosil qilingan qiymatlariga karralidir.

Shunday qilib yuqorida keltirilgan matematik tenglamalardan foydalanib ^{235}U izotopini yuqori aniqlikda bir bosqichli boyitish koeffitsiyentini aniqlash mumkin. Olingan natijalar boshqa ko'plab usullar yordamida olingan qiymatlarga to'liq mos keladi.

ADABIYOTLAR:

1. Бекман И.Н. Ядерная физика. Учебное пособие, Москва, МГУ, 2010, 520 с.
2. Дяченко А.Н., Петлик И.В. Передерин А.Т. Введение в технологию ядерного топлива. Учебное пособие. Издательство Томского политехнического университета, 2023, 160 с.
3. АПСЭ В.А., Хмелев А.Н. Ядерные технологии, учебное пособие, Москва, 2008, 127 с.
4. Громов Б.В. Введение в химическую технологию урана / Б.В. Громов.-Москва: Атомиздат, 2008,-336 с.
5. Eshbo`riyev Rashid Majidovich, Abdusamadova Dilfuza Iskandar qizi, Sharipov Dilshod Elmurod o`g`li, Fayzullaeva Mukarram Lutfullo qizi. Yadro energiyasini hosil qilish muammolari. // Buxoro davlat universiteti Ilmiy axboroti. 6-son. 2025-yil. 159-164 betlar.
6. Abdusamadova D.I., Eshburiyev R.M., Fayzullaeva M., Sharipov D. The advantages of nuclear energy over other energy sources. // Texas Journal of Engineering and Technology ISSN No: 2770-4491 <https://zienjournals.com> May 2025. // Peer Reviewed International Journal Volume 44. 8-12 pages.
7. Rashid Eshbo`riev, Muhayyo Ubaydullaeva, Mukarram Fayzullaeva, Dilfuza Abdusamadova. Investigation of nuclear fuel characteristics based on uranium isotopes. // Web of scientist: international scientific research journal. ISSN: 2776-0979, Volume 6, Issue 10, October- 2025. 28-38 pages.

**KUBIK SIMMETRIYALI KRISTALLARINING AKUSTIK XOSSALARI
ANIZOTROPIYASI VA RELAKSATSIYA VAQTLARI**

Axmedjanov Farxad Rashidovich,
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
Ion-plazma va lazer texnologiyalari instituti
akhmedzhanov.f@gmail.com

Maharov Nodir Mamadiyor o‘g‘li,
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi,
Ion-plazma va lazer texnologiyalari instituti
maxarovnodir217@gmail.com

Avdievich Vladimir Nikolaevich,
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
Ion-plazma va lazer texnologiyalari instituti
avdievich@iplt.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada kubik simmetriyaga ega bo‘lgan KBr, NaBr, NaCl va MgO kristallarining akustik xossalari keng ko‘lamda eksperimental ravishda tadqiq etilgan. Tadqiqotda impulsli interferensiya usuli qo‘llanilib [100], [110] va [111] kristolografik yo‘nalishlar bo‘ylab bo‘ylama va ko‘ndalang akustik to‘lqinlarning tarqalish tezliklari hamda ularning so‘nish koeffitsiyentlari yuqori aniqlik bilan o‘lchangan. Olingan natijalar asosida kristallarning haqiqiy va mavhum elastiklik konstantalari aniqlanib Akheizer mexanizmi asosida akustik fononlarning relaksatsiya vaqtlariga baho berilgan. Shuningdek, MgO kristallida so‘nish koeffitsiyentining temperaturaga bog‘liqligi o‘rganilib issiqlik ta‘sirida akustik xossalarning o‘zgarish tendensiyasi aniq ko‘rsatilgan. Ushbu tadqiqot natijalari kubik galogenid kristallarining akustik, termoeastik va akustooptik qurilmalarda qo‘llanilishi uchun asos yaratadi hamda materiallarning anizotrop elastik xatti xarakterlarini chuqur tushunishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: kubik kristallar, impulsli interferensiya, anizotropiya, akustik to‘lqin, qutblanish vektori, to‘lqin vektori, so‘nish koeffitsiyenti, elastik doimiy, to‘lqin tezligi.

**АНИЗОТРОПИЯ И ВРЕМЕНА РЕЛАКСАЦИИ АКУСТИЧЕСКИХ СВОЙСТВ
КУБИЧЕСКИХ СИММЕТРИЧНЫХ КРИСТАЛЛОВ**

Аннотация. В данной статье проведено обширное экспериментальное исследование акустических свойств кубических кристаллов KBr, NaBr, NaCl и MgO. В ходе исследования с использованием метода импульсной интерференции с высокой точностью измерены скорости распространения продольных и поперечных акустических волн вдоль кристаллографических направлений [100], [110] и [111], а также их коэффициенты затухания. На основании полученных результатов определены действительные и абстрактные упругие постоянные кристаллов, а также оценены времена релаксации акустических фононов на основе механизма Ахейзера. Также изучена температурная зависимость коэффициента затухания в кристаллах MgO, и наглядно показана тенденция к изменению акустических свойств под воздействием тепла. Результаты данного исследования создают основу для применения кубических галогенидных кристаллов в акустических, термоупругих и акустooptических устройствах и способствуют более глубокому пониманию анизотропного упругого поведения материалов.

Ключевые слова: кубические кристаллы, импульсная интерференция, анизотропия, акустическая волна, вектор поляризации, волновой вектор, коэффициент затухания, упругая постоянная, скорость волны.

**ANISOTROPY AND RELAXATION TIMES OF ACOUSTIC PROPERTIES
OF CUBIC SYMMETRICAL CRYSTALS**

Abstract. In this article, the acoustic properties of cubic symmetry KBr, NaBr, NaCl, and MgO crystals have been extensively experimentally investigated. In the study, the propagation velocities of longitudinal and transverse acoustic waves along the [100], [110], and [111] crystallographic directions and their extinction coefficients were measured with high accuracy using the pulsed interference method. Based on the results obtained, the real and abstract elastic constants of the crystals were determined, and the relaxation times of acoustic phonons were estimated based on the Akheizer mechanism. Also, the temperature dependence of the extinction coefficient in MgO crystals was studied, and the tendency of the

acoustic properties to change under the influence of heat was clearly shown. The results of this study create a basis for the application of cubic halide crystals in acoustic, thermoelastic, and acousto-optic devices, and contribute to a deeper understanding of the anisotropic elastic behavior of materials.


Keywords: cubic crystals, pulse interference, anisotropy, acoustic wave, polarization vector, wave vector, attenuation coefficient, elastic constant, wave velocity.

Kirish. Kubik simmetriyali galogenid kristallari jumladan KBr NaBr NaCl va MgO Fm3m simmetriyaning kubik nuqta guruhiga kiradi va ko‘plab fizik xususiyatlarda izotropdir. Biroq, elastiklik xususiyatlariga ko‘ra, bu kristallar anizotropikdir va ularni akustik va akusto-optik qurilmalarda qo‘llash akustik to‘lqinlarning tarqalish tezligi va zaiflashuv koeffitsienti kabi muhim xususiyatlarning orientatsiya bog‘liqligini bilishni talab qiladi [1-3]. Ushbu qurilmalarda ishlaydigan muhit ko‘pincha ko‘rinadigan va infraqizil elektromagnit to‘lqinlarda yuqori elastik va fotoelastik konstantalarga ega bo‘lgan Magniy oksidi kabi galogenid gidroksidi kristallari ishlatiladi [1-4].

Tarqalish tezligi va ulardagi so‘nish koeffitsienti past ultratovush chastotalari diapazonida yetarli darajada batafsil o‘rganilgan, bunda so‘nish Axiezer mexanizmi [5-7] bo‘yicha kvadratik qonun bo‘yicha chastotaga bog‘liq. Shu bilan birga, yuqori chastotalarda bunday tadqiqotlar deyarli yo‘q, chunki ulardan foydalanishni cheklovchi asosiy omil zaiflashuv koeffitsientining katta qiymati hisoblanadi. Shu munosabat bilan ushbu ishda ishqor galogenid kristallarining gomologik qatoridagi uzunlamasina va ko‘ndalang akustik to‘lqinlarning tarqalish tezligi, samarali elastik konstantalari va susaytirish koeffitsienti ultratovush usullari yordamida o‘rganildi.

Tadqiqot metodologiyasi. KBr, NaBr va NaCl kristallari klassik NaCl-tipi panjara tuzilmasiga ega bo‘lib, bu tuzilma kubik simmetriyaning Fm3m fazoviy guruhiga kiradi. Magniy oksidi (MgO) kristali ham shu turdagi tuzilmani namoyon qiladi va o‘xshash fazoviy guruhga mansub hisoblanadi. Bunday kristallarning simmetriya xususiyatlari ularning elastik va akustik xossalarini izchil o‘rganish imkonini beradi chunki kristall panjarasining yuqori darajadagi simmetriyasi fizik kattaliklarning aniq yo‘nalishlarda o‘lchanishini soddalashtirish imkonini beradi. Kristallar namunalarining shakli kubik prizma bo‘lib, kubning qirradi taxminan 15 mm ni tashkil etadi. Namunalarning yuzalari kristallofizik o‘qlar [100], [010] va [001] yo‘nalishida yo‘naltirilgan bo‘lib. Bunday yo‘naltirish barcha to‘lqin turlari bo‘yicha o‘lchovlarni bir xil namunalar asosida amalga oshirishga imkon beradi. Bu esa, har xil namunalar o‘rtasidagi o‘qlar orientatsiyasi farqlari, strukturaviy nuqsonlar kabi turli omillarning eksperimental natijalarga ta‘sirini kamroq bo‘lishiga yordam beradi.

Biz akustik to‘lqinlarning tezligini va so‘nish koeffitsiyentini aniqlash uchun Impulsli interferensiya usulidan foydalanamiz[9]. Ushbu usulning mohiyati shundaki unda tadqiq qilinayotgan namunadan turlicha yo‘l bosib otgan akustik to‘lqinlarning fazalar farqi taqqoslanadi. Past chastotali o‘lchov tizimining asosiy qismlaridan biri **amplituda selektori** bo‘lib, u faqat ma‘lum vaqt oralig‘ida ochiladi. Mazkur vaqt oralig‘i signalning kerakli qismigina o‘tishiga imkon beradi. Quyidagi rasmdan Impulsli interferensiya usulining blok sxemasi keltirilgan.



1-rasm. Akustik o‘lchov tizimining blok-sxemasi [10]

Sxemada quyidagi qurilmalardan foydalanilgan: yuqori chastotali elektromagnit tebranishlar generatori, strob kuchaytirgich, qabul qiluvchi (detektor), va ikkita impuls ketma-ketligining bir-biriga nisbatan kechikishini 0.01 mikrosekundgacha aniqlikda ta‘minlay oluvchi impulsli signal generatorlari va

kechikish generatoridan tashkil topgan diskret kechikish tizimi. Namunaga yuboriluvchi radioimpulsni yaratish uchun maxsus kuchaytirgich – rezonansli strob kuchaytirgich ishlatiladi. Bu kuchaytirgich hosil qilgan radioimpuls namunaga ulangan pyezodatchikka yuboriladi. Pyezodatchikda quyidagi bosqichlar bajariladi: radioimpulsni tovush (elastik) impulsga aylantiradi; namunaning qarama qarshi tomonidan qaytgan tovush impulslarini yana radioimpulsarga aylantirib qabul qiladi. Qabul qilgichda hosil bo'lgan sekin-asta so'nuvchi radio-ehoimpuls ketma-ketligi amplituda bo'yicha kuchaytiriladi. Bu yerda qabul qilgich sifatida kuchaytirish darajasi 100 dB gacha sozlanadigan maxsus rezonansli kuchaytirgich qo'llaniladi. Kuchaytirgich tarkibidagi amplitudaviy detektor radioimpuls ketma-ketligini mos keluvchi videoimpuls ketma-ketligiga aylantiradi. Kuchaytirgich kirishidagi attenuator (signalni zaiflashtiruvchi qurilma) va kuchaytirish darajasining sozlanishi yordamida kuchaytirgichning chiziqli rejimi (ya'ni, signalni buzmasdan kuchaytirish) taminlanadi. Qabul qilgichdan kelgan impuls yuboriladigan amplitudaviy selektor orqali impuls ketma-ketligidan keraklisini tanlab olish mumkin. Tanlangan impulsning amplitudasini voltmetr yordamida o'lchash amalga oshiriladi. Qo'shni ikkita impuls amplitudalari — A_1 va A_2 , hamda namuna uzunligi L bo'yicha akustik to'lqinlarning so'nish koefitsiyenti quyidagi formula yordamida aniqlanadi [11].

$$\alpha = \frac{20 \lg \left(\frac{A_k}{A_n} \right)}{2L(k-n)} \quad (1)$$

Bu yerda L — namunani uzunligi. So'nish koefitsientini aniqlash aniqligi esa taxminan 5 % ni tashkil etadi. Bunday aniqlikka erishish uchun impuls amplitudalari bir necha marta o'lchandi va olingan natijalar keyinchalik o'rtacha qiymatlarga keltiriladi qilindi.

Generatorning uzluksiz tebranish chastotasi o'zgartirilganda kuzatiladigan interferensiya minimumlari yoki impuls amplitudasining maksimumlari yordamida namunadagi akustik to'lqin tezligi V quyidagi munosabat asosida aniqlanadi [9]:

$$V=2L \cdot \Delta v \quad (2)$$

Bu yerda Δv — yuqori chastotali generatorning qarama-qarshi fazali interferensiyaga mos keluvchi ikki qo'shni chastotalar farqi. Ushbu chastotalar raqamli chastotomer yordamida o'lchangan bo'lib, u chastotalar farqini ± 10 Gts aniqlik bilan aniqlash imkonini beradi. Akustik to'lqin tezligini aniqlashdagi umumiy aniqlik esa namuna uzunligini o'lchashdagi aniqlik bilan chegaralangan va taxminan 0,01 % ni tashkil etgan.

Shuningdek ushbu ishda Akustik fononlarning relaksatsiya vaqtlari ham aniqlangan. Relaksatsiya vaqtlarini aniqlashda quyidagi formuladan foydalanilgan[12]:

$$\tau = \frac{3c_{eff}''}{\gamma^2 C_V T \omega} \quad (3)$$

Bu yerda C_{eff}'' -kristallarning mavhum elastiklik koefitsiyenti, γ - grunayzen parametri, C_V - kristallarning hajmiy issiqlik sig'imi, T - temperaturaning kelvin qiymati, ω - akustik tolqin chastotasi.


Natijalar va muhokama. [100], [110] kristallografik yo'nalishlar bo'ylab bo'ylama va ko'ndalang akustik to'lqinlarning so'nish koefitsientlarini aniqlash natijalari hamda tadqiq qilingan kristallar uchun hisoblangan haqiqiy va mavxum samarali elastiklik konstantalari qiymatlari 1-jadvalda keltirilgan. Akustik to'lqinlarning tezlik qiymatlari esa adabiyotdagi ma'lumotlar bilan yaxshi mos kelgani sababli ular 1-jadvalda keltirilmagan.

1-jadval.

KBr, NaBr va RbBr kristallarida akustik to'lqinlarning so'nish koefitsiyenti ($\nu = 1$ GGts da) hamda samarali haqiqiy va mmin elastiklik konstantalar qiymatlari

q	η	$c'_{eff}, 10^{10} \text{ N}\cdot\text{m}^{-2}$			$\alpha, \text{ dB}\cdot\mu\text{s}^{-1}$			$c''_{eff} 10^7 \text{ N}\cdot\text{m}^{-2}$		
		KBr	NaBr	MgO	KBr	NaBr	MgO	KBr	NaBr	MgO
[100]	[100]	3.52	3.96	28.6	38	25	4.34	4.82	3.7	4.56
	[001]	0.51	0.99	14.8	6.0	3.1	0.60	0.11	0.11	0.33
[110]	[110]	2.55	3.49	33.4	28	17	1.90	2.81	2.01	2.33
	[110]	1.48	1.47	9.95	40	34	7.01	2.12	1.79	2.56
	[001]	0.51	0.99	14.8	6.0	3.1	0.60	0.11	0.11	0.33
[111]	[111]	2.22	3.33	35.06	26.4	11.9	1.23	2.14	1.45	1.59
	[110]	1.15	1.31	11.56	34.8	25.6	4.26	1.45	1.23	1.81

O'rganilgan barcha kristallar uchun elastiklik tenzori haqiqiy va mavhum qismlarining uchta mustaqil komponentalari barcha kristalografik yo'nalishlar bo'yicha o'lgangan bo'ylama va ko'ndalang to'lqinlarning tezligi va so'nish koeffitsiyentlaridan aniqlangan. Jadvalda keltirilgan ma'lumotlar asosida KBr kristali uchun akustik to'lqinlarning polyar diagrammadagi grafiklari quyidagi ko'rinishda bo'ladi.



2-rasm. Kaliy brom kristallaridagi akustik to'lqin tarqalish tezligi sirtlarining (100) tekislik bo'yicha ko'rinishi: 1 - kvazi-bo'ylama, 2 - kvazi-ko'ndalang, 3 - sof ko'ndalang akustik to'lqinlar

1-jadvaldagi ma'lumotlar asosida aniqlangan akustik fononlarning relaksatsiya vaqtlari va grunayzen parametrining qiymatlari 2- jadvalda keltirilgan. Fonon relaksatsiya vaqtlarini aniqlashda 3- formuladan foydalanilgan.


2-jadval.

KBr, NaBr, NaCl va MgO kristallari uchun grunayzen parametri va relaksatsiya vaqtlari

q	η	γ _{eff}				τ 10 ⁻¹² s			
		KBr	NaBr	NaCl	MgO	KBr	NaBr	NaCl	MgO
[100]	[100]	2.60	2.1	2.50	2.58	9.5	9	4.15	3.48
	[001]	0.48	0.44	0.51	0.69	6.35	6.15	2.81	3.5
[110]	[110]	2.32	1.94	1.78	1.69	6.94	5.78	4.15	4.1
	[110]	2.47	1.67	2.28	1.77	4.62	6.95	2.64	4.15
	[001]	0.56	0.48	0.53	0.63	4.66	5.17	2.6	4.22
[111]	[111]	2.51	1.63	1.48	1.38	4.52	5.9	4.3	4.24
	[110]	2.17	1.86	1.94	1.48	4.1	3.54	2.26	4.2

2- jadvaldan ko'rishimiz mumkunki, KBr, NaBr, NaCl va MgO kristallaridagi akustik fononlarning turli yo'nalishlarda va qutublanishlarda tarqalish vaqtida yuzaga keladigan angarnoniklik va relaksatsiya vaqtlari keltirilgan. [100] yo'nalish bo'yicha grunayzen parametri boshqa yonalishlarga nisbatan katta qiymatlarga ega bu ushbu yo'nalishda panjara atomlarining angarnoniklik darajasi yuqori ekanligini ko'rsatadi. E'tibor qilsak shu yo'nalishda fononlarning relaksatsiya vaqtlari ham katta bu fononlarning uzoq yashashini va akustik to'lqinlarning so'nishi sekin kechishini bildiradi. Shuningdek biz MgO Kubik simmetriyalik kristallarida Akustik to'lqinlarning so'nish koeffitsiyentining temperaturaga bog'liqligi o'rganilgan va olingan natijalar grafik ko'rinishida keltirilgan.

MgO kristallari uchun so'nish koeffitsiyentining temperaturaga bog'liqligi hona haroratidan 170°C gacha o'lgandi. Grafikda ko'k rangli nuqtalar o'lgan natijalarini ko'rsatadiva ko'rishimiz mumkinki akustik to'lqinlarning so'nish koeffitsiyenti temperatura ortishi bilan chiziqli ortadi bunga sabab esa kristal panjara atomlarining issiqlik natijasida tebranishi va fonon harakatiga qarshiligining ortishi hisoblanadi.



3- rasm. MgO kristalining [110] yoʻnalish boʻyicha akustik toʻlqinlari soʻnish koeffitsiyentining temperaturaga bogʻliqligi

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatdiki, kristall panjarasining simmetriyasi yuqori boʻlishiga qaramay, elastik xossalar sezilarli darajada anizotrop boʻlib, akustik toʻlqinlarning tezligi va yoʻqolish koeffitsiyenti kristallografik yoʻnalishga kuchli bogʻliqdir. Grunayzen parametrlari va relaksatsiya vaqtlarining qiymatlari fononlarning angarmon harakatini chuqur tushunish imkonini berdi. Xususan, [100] yoʻnalishida relaksatsiya vaqtlarining yuqori boʻlishi ushbu yoʻnalishda fononlarning uzoq umrli ekanini koʻrsatadi. MgO kristallida oʻtkazilgan temperatura tajribalari esa soʻnish koeffitsiyentining harorat oshishi bilan deyarli chiziqli ortishini tasdiqladi. Bu hodisa issiqlik tebranishlarining kuchayishi va fononlarning oʻzaro toʻqnashuv chastotasining ortishi bilan izohlanadi. Olingan natijalar kubik galogenid kristallarining akusto-optik, akustik, termoelastik va yuqori aniqlik talab qilinadigan sensor qurilmalarda qoʻllanishi uchun muhim ilmiy asos yaratadi. Bundan tashqari, materiallarning anizotrop elastik xatti-harakatlarini chuqurroq tushunishga, fonon kinetikasini baholashga va akustik qurilmalar parametrlarini optimallashtirishga xizmat qilishi mumkin.

ADABIYOTLAR:

1. D. Royer, E. Dieulesaint. *Elastic Waves in Solids II /Generation/Acousto-optic Interaction/Applications.* (Verlag Berlin Heidelberg, Springer, 2000), p. 474.
2. Newnham R.E. *Properties of Materials /Anisotropy/Symmetry/Structure.* (New York, Oxford University Press, 2005), p. 378.
3. Ахмеджанов Ф.Р., Курбанов Ж.О., Махаров Н.М. *Затухание акустических волн в кубических кристаллах фторида лития. Доклады АН РУз. Вып. 5. 2021, С. 11-15.*
4. *Акустические кристаллы. Справочник /Под ред. М. П. Шаскольской. – М. Наука, 1982, 632 с.*
5. Akhiezer A. *About Sound Absorption in Solids, J. of Experimental and Theoretical Physics (SU).* - Moscow, 1938. - No 8, - P. 1318-1329.
6. Nava R., Vecchi M.P., Romero J. and Fernandez B. *Akhiezer damping and the thermal conductivity of pure and impure dielectrics. // Phys. Rev. B. Vol. 14, No 2. 1975, P. 800-807.*
7. Логачев Ю. А., Мойжес Б. Я. *К теории поглощения звука по Ахиезеру. – ФТТ. - Санкт-Петербург, 1974, - Т. 16. - № 8, - С. 2219-2223.*
8. Akhmedzhanov F.R., Kurbanov J.O., Boltabaev A.F., *Attenuation of acoustic waves in single-domain and polydomain LiTaO3 crystals, Sensors & Transducers 246, No.7, 2020. P. 43-47.*
9. Ахмеджанов Ф.Р., Азаматов З.Т., Болтабаев А.Ф., Саидвалиев У.А., Хусаинов И. *Устройство для прецизионного определения скорости акустических волн в материалах. Патент, № FAP 01545 (28.09.2020)*
10. Труэлл Р., Эльбаум Ч., Чик Б. *Ультразвуковые методы в физике твердого тела. - М.: Мир, 1972. - 307 с.*
11. Y. Liao, T. Shiga, M. Kashiwagi & J. Shiomi, *Akhiezer mechanism limits coherent heat conduction in phononic crystals, Phys. Rev. B 98, 134307 (2018).*

**THERMAL STABILITY OF ELECTRICAL PARAMETERS OF SILICON WITH
NANOCLUSTERS OF MANGANESE ATOMS**

Mavlonov Giyosiddin Khaydarovich,
Tashkent State Technical University,
University St., 2, 100095, Tashkent, Uzbekistan
Uralbaev Khurshid,
Tashkent State Technical University
xurshiduz5427@gmail.com
Tachilin Stanislav Anatolevich,
Tashkent State Technical University
Isakov Bobir Olimjonovich,
Tashkent State Technical University
Ibodullaev Shokhboz Nizom ugli,
Tashkent State Technical University

Abstract. A comprehensive study of the relative change of resistivity from temperature and annealing time in $p\text{-Si}\langle B, Mn \rangle$ samples with different concentrations of manganese atoms nanoclusters has been carried out. It was found that with increasing concentration of nanoclusters of manganese atoms, the thermal stability of $p\text{-Si}\langle B, Mn \rangle$ samples significantly improves, where at the concentration of nanoclusters $N=10^{15} \text{ cm}^{-3}$ up to the annealing temperature $T=125 \text{ }^\circ\text{C}$ decay is practically not observed, that is, the samples retain their initial electro physical parameters, NMR and the value of impurity photoconductivity

Keywords: semiconductor, silicon, nanocluster, manganese, boron, negative magneto resistance.

**MARGANETS ATOMLARI BILAN LEGIRLANGAN KREMNIY NANOKLASTERLARI
ELEKTR PARAMETRLARINING ISSIQLIK BARQARORLIGI**

Annotatsiya. Marganets atomi nanoklasterlarining turli konsentratsiyalariga ega $p\text{-Si}\langle B, Mn \rangle$ namunalarida qarshilikning tovlash harorati va vaqti bilan nisbiy o'zgarishini o'rganish uchun keng qamrovli tadqiqot o'tkazildi. Marganets atomi nanoklasterlari konsentratsiyasining ortishi bilan $p\text{-Si}\langle B, Mn \rangle$ namunalarining issiqlik barqarorligi sezilarli darajada yaxshilanishi aniqlandi. $N=10^{15} \text{ cm}^{-3}$ nanoklaster konsentratsiyalarida va $T=125 \text{ }^\circ\text{C}$ tovlash haroratida deyarli parchalanish kuzatilmaydi, bu namunalar boshlang'ich elektrofizik parametrlarini, MMQ va kirishma fotoo'tkazuvchanligini saqlab qolishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: yarimo'tkazgich, kremniy, nanoklaster, marganets, bor, manfiy magnit qarshilik.

**ТЕРМИЧЕСКАЯ СТАБИЛЬНОСТЬ ЭЛЕКТРИЧЕСКИХ ПАРАМЕТРОВ КРЕМНИЯ С
НАНОКЛАСТЕРАМИ АТОМОВ МАРГАНЦА**

Аннотация. Проведены комплексные исследования относительного изменения удельного сопротивления от температуры и времени отжига в образцах $p\text{-Si}\langle B, Mn \rangle$ с различной концентрацией нанокластеров атомов марганца. Установлено, что с ростом концентрации нанокластеров атомов марганца, существенно улучшается термостабильность образцов $p\text{-Si}\langle B, Mn \rangle$, где при концентрации нанокластеров $N=10^{15} \text{ см}^{-3}$ до температуры отжига $T=125 \text{ }^\circ\text{C}$ распад практически не наблюдается, то есть образцы сохраняют свои исходные электрофизические параметры, ОМС и величину примесной фотопроводимости.

Ключевые слова: полупроводник, кремний, наноклaster, марганец, бор, отрицательное магнитосопротивление.

Introduction. Unlike other semiconductor materials doped with paramagnetic impurity atoms [1-4], silicon with nanoclusters of manganese atoms is characterized by huge negative magnetoresistance (NMR) which is not conventional for other silicon-based materials. This anomalous huge NMR manifests itself at room temperature. Silicon with nanoclusters of manganese atoms is also characterized by high impurity photoconductivity in the region $\lambda=10\div 1.5 \text{ }\mu\text{m}$ [5, 6].

The thermal stability of electrical parameters of manganese-doped silicon samples without nanoclusters was studied in [7]. According to the results of this study, at annealing $T \geq 100$ °C for 30÷40 minutes the material properties tend to change significantly whereas at annealing duration $t = 1,5 \div 2$ hours a complete decay of parameters is observed, i.e. the material acquires its initial electrical parameters. It can be concluded that the compensation in boron- and manganese- doped silicon samples is thermally unstable. This can be explained by the change in the electronic state of manganese multi-atomic complexes in the silicon lattice or by disintegration of neutral boron-manganese complexes. How thermal annealing affects the state of manganese clusters and, consequently, the electrical properties of silicon with nanoclusters of manganese atoms is of great importance.

In [8-10], when studying the state of manganese atoms in silicon by electric paramagnetic resonance (EPR), it was shown that under certain doping conditions the manganese impurities forms nanoscale clusters consisting of four manganese atoms located in the nearest equivalent interstitial positions around the boron atoms in the silicon lattice.

Materials and methods. To ensure the process of formation of nanoclusters in silicon samples, *p*-type single-crystalline silicon with resistivity $\rho = 5 \text{ } \Omega \cdot \text{cm}$ ($p = 4 \cdot 10^{15} \text{ cm}^{-3}$) was used as a starting material. Doping with manganese was carried out using a newly developed technology [1-3, 11]. The doping conditions were chosen so as to receive *p*-Si<B, Mn> samples with resistivity in the range of $6 \cdot 10^2 < \rho \leq 10^5 \text{ } \Omega \cdot \text{cm}$ at $T = 20$ °C.

The electrical parameters of the samples (Table 1.) were measured on an Ecopia Hall Effect Measurement Systems HMS7000.

The *p*-Si<B, Mn> type samples with nanoclusters with resistivity $\rho \sim (6 \div 8) \cdot 10^3 \text{ } \Omega \cdot \text{cm}$ exhibit anomalously large negative magnetoresistance (NMR), the value of which reaches more than $\frac{\Delta\rho}{\rho} \sim 100\%$ at room temperature, as well as very high subband (impurity) photoconductivity [2-4]. As the resistivity of the samples changes toward lower or higher values than $\rho \sim (6 \div 8) \cdot 10^3 \text{ } \Omega \cdot \text{cm}$, the magnitude of NMR decreases. In overcompensated *n*-Si<B, Mn> samples, a small PMR is always observed regardless of their resistivity.

Results and discussion.

Table 1.

Electrical parameters of the samples

Diffusion method	Samples obtained	Type	$\rho, \text{ } \Omega \cdot \text{cm}$	$\mu, \text{ cm}^2/\text{V} \cdot \text{s}$	$N_{n, p}, \text{ cm}^{-3}$	Type and value of magnetoresistance
By applying novel technology	Si<B, Mn> with nanoclusters	p	$7 \cdot 10^2$	98	$9,1 \cdot 10^{13}$	19 % NMR
	Si<B, Mn> with nanoclusters	p	$7,5 \cdot 10^3$	72	$1,15 \cdot 10^{13}$	100 % NMR
	Si<B, Mn> with nanoclusters	p	$2 \cdot 10^4$	128	$2,44 \cdot 10^{12}$	46 % NMR
	Si<B, Mn> with nanoclusters	p	$4,1 \cdot 10^4$	145	$1,05 \cdot 10^{12}$	33 % NMR
	Si<B, Mn> with nanoclusters	p	10^5	224	$2,79 \cdot 10^{11}$	10 % NMR
	Si control	p	5,18	365	$3,7 \cdot 10^{15}$	3-4 % PMR
By applying standard technology	Si<B, Mn> without nanoclusters	p	$6,8 \cdot 10^2$	245	$3,7 \cdot 10^{13}$	4 % PMR
	Si<B, Mn> without nanoclusters	p	$7,3 \cdot 10^3$	271	$3,15 \cdot 10^{12}$	6 % NMR
	Si<B, Mn> without nanoclusters	p	$4 \cdot 10^4$	214	$5,84 \cdot 10^{11}$	2 % PMR
	Si control	p	5,2	352	$3,41 \cdot 10^{15}$	3-4 % PMR

In the samples where the maximum NMR is observed, the hole mobility was significantly smaller than the hole mobility in materials with the same resistivity obtained by conventional high-temperature diffusion and in general was $\mu = 70\text{-}150 \text{ cm}^2/\text{V} \cdot \text{s}$ [1].

The obtained manganese-doped samples had p -type conductivity, no overcompensated n -type samples were observed.

According to calculations, in the samples $\rho \sim (7 \div 8) \cdot 10^3 \Omega \cdot \text{cm}$ the Fermi level is in the position $F = E_V + 0.38 \text{ eV}$, i.e. it is in the lower half of the band gap of silicon. This allows us to assert that in these samples the majority of manganese atoms is strongly ionized state and is most likely in the state Mn^{+2} , since according to [12], interstitial manganese atoms in silicon are donor impurities and create energy levels in the upper half of the band gap of silicon with ionization energy $E_1 = E_C - 0.27 \text{ eV}$ and $E_2 = E_C - 0.5 \text{ eV}$. Mn^{+2} ions. These ions, in turn, can form nanoscale charged complexes like BMn_4 .

The presence of such nanoclusters of manganese atoms in the studied samples was confirmed by the study of the state of manganese atoms by EPR method, and their high degree of ionization by AFM [11, 13].

The obtained samples at room temperature were characterized by large negative magnetoresistance up to 100%, as well as high impurity photoconductivity in the spectral region $\lambda = 10 \div 1.5 \mu\text{m}$ at temperature $T = -193 \text{ }^\circ\text{C}$, which is characteristic of samples with nanoclusters of manganese atoms [1-6].

Simultaneously, $p\text{-Si} \langle \text{B}, \text{Mn} \rangle$ samples doped with manganese using a typical standard high-temperature diffusion technique [7] with similar parameters but without nanoclusters were received on the basis of p -type silicon with $\rho = 5 \Omega \cdot \text{cm}$. The absence of nanoclusters in these samples was also confirmed by EPR.

Temperature annealing of samples was carried out stepwise in a vacuum tube furnace MG17-60/300 with high accuracy of temperature maintenance ($\pm 1 \text{ }^\circ\text{C}$) and annealing time $t = 30$ minutes (± 10 seconds). After each heat annealing step, the samples were chemically treated with 10% HF solution to remove the SiO_2 layer, while the electrical properties of the samples were investigated under identical conditions.

Fig. 1 shows the relative change in resistivity of the studied samples as a function of annealing time at $T = 100 \text{ }^\circ\text{C}$. As can be seen, the resistivity of the material in $p\text{-Si} \langle \text{B}, \text{Mn} \rangle$ samples with nanoclusters practically does not depend on the annealing time (curve 1). At the same time in $p\text{-Si} \langle \text{B}, \text{Mn} \rangle$ samples without nanoclusters (without formation of nanoclusters) the electrical parameters change significantly with increasing annealing time, at annealing $t = 300$ minutes, where there is almost a complete decomposition of complexes containing manganese atoms (curve 2). After complete decay in $p\text{-Si} \langle \text{B}, \text{Mn} \rangle$ samples with nanoclusters, the anomalously small value of hole mobility increase to the value $\mu = 360 \text{ cm}^2/\text{V} \cdot \text{s}$ as in the original sample.





Figure 1. Relative change in resistivity of manganese-doped silicon samples from annealing time at $T = 100 \text{ }^\circ\text{C}$: 1- with nanoclusters, 2- without nanoclusters

Shortly after we investigated $p\text{-Si} \langle \text{B}, \text{Mn} \rangle$ samples with nanoclusters to determine up to what temperature they maintain the stability of their electro physical parameters (Fig. 2). The results show that no decay is revealed in silicon samples with nanoclusters up to annealing temperature of $110 \text{ }^\circ\text{C}$ for a long time (7 days). With increasing temperature up to $T = 125 \text{ }^\circ\text{C}$ a noticeable decomposition starts at annealing time greater than 1 hour.



**Figure 2. Relative change in resistivity of *p*-Si<B, Mn> silicon samples with nanoclusters of manganese atoms at different annealing temperatures:
1- 100 °C, 2- 125 °C, 3- 140 °C, 4- 160 °C**

Thermal stability studies were also carried out on samples having different contents of manganese clusters. For this purpose, *p*-type Si samples doped with boron $\rho=10 \text{ } \Omega \cdot \text{cm}$, $\rho=5 \text{ } \Omega \cdot \text{cm}$ and $\rho=2 \text{ } \Omega \cdot \text{cm}$ were used as a starting material [1]. Samples of *p*-Si<B, Mn> with different concentration of nanoclusters were fabricated by the technology similar to [2, 10] with the condition of obtaining samples with resistivity $\rho=(7\div 8)10^3 \text{ } \Omega \cdot \text{cm}$ at $T=27 \text{ } ^\circ\text{C}$. Taking into account almost complete compensation of boron impurity in these samples by manganese, one could estimate the concentration of nanoclusters as: $N_{(\text{Mn})4}=2 \cdot 10^{14} \text{ cm}^{-3}$ (*p*-type Si doped with boron $\rho=10 \text{ } \Omega \cdot \text{cm}$ starting material), $5 \cdot 10^{14} \text{ cm}^{-3}$ (*p*-type Si samples doped with boron $\rho=5 \text{ } \Omega \cdot \text{cm}$ starting material), 10^{15} cm^{-3} (*p*-type Si samples doped with boron $\rho=2 \text{ } \Omega \cdot \text{cm}$ starting material) [1].

The relative variation in resistivity with annealing time in *p*-Si<B, Mn> samples with different concentrations of manganese atom nanoclusters is shown in Fig. 3. As can be seen from Fig. 3, the thermal stability of *p*-Si<B, Mn> samples significantly improves with increasing concentration of manganese atom nanoclusters. In *p*-Si<B, Mn> samples with the concentration of nanoclusters $N=10^{15} \text{ cm}^{-3}$ at annealing temperature $T=125 \text{ } ^\circ\text{C}$, the decay is practically not observed, i.e. the samples retain their electro physical parameters. The studies also showed that the NMR and the magnitude of impurity photoconductivity retained their pre-annealing values.




Figure 3. Relative changes in resistivity of *p*-Si<B, Mn> samples with different concentrations of manganese atom nanoclusters at $T=125 \text{ } ^\circ\text{C}$
1) $N_{(\text{Mn})4}=2 \cdot 10^{14} \text{ cm}^{-3}$, 2) $N_{(\text{Mn})4}=5 \cdot 10^{14} \text{ cm}^{-3}$, 3) $N_{(\text{Mn})4}=10^{15} \text{ cm}^{-3}$

Conclusion. The above experimental results related to the study of changes in the properties of silicon with nanoclusters of manganese atoms in times of heat treatment allow us to determine the operating temperature range of photovoltaic and magnetic devices based on the material $p\text{-Si}\langle B, Mn \rangle$ with nanoclusters. Sufficiently high maximum operating temperatures ($T \geq 100$ °C) allow us to use this material to for receiving a wide range of new electronic devices in the field of spintronics and optoelectronics, as well as various highly sensitive sensors of physical quantities [14] operating both at room temperature and at low temperatures.

REFERENCES:

1. Bakhadir khanov M.K., Ayupov K.S., Mavlyanov G.H., Isamov S.B. Negative magnetoresistance in silicon with manganese-atom complexes $[Mn]_4$. // *Semiconductors*. -2010. -Vol.44. -No.9. -P.1145–1148. <https://doi.org/10.1134/S106378261009006X>
2. Bakhadir khanov M.K., Isamov S.B., Zikrillaev N.F., Iliiev Kh.M., Mavlonov G.H., Koveshnikov S.V., Ibodullaev Sh.N. Functional Capabilities of Silicon with Nanoclusters of Manganese Atoms. // *Surface Engineering and Applied Electrochemistry*. -2020. -Vol.60. -No.6. -P.734–739. (2020). <https://doi.org/10.3103/S1068375520060046>
3. Bakhadyrkhanov M.K., Mavlonov G.Kh., and Iliiev Kh.M. Control of the Magnetic Properties of Silicon with Manganese Atom Nanoclusters. // *Technical Physics*. -2014. -Vol.59. -No.10. -P.1556–1558.
4. Bakhadyrkhanov M.K., Mavlonov G.H., Iliiev X.M., Ayupov K.S., Sattorov O.E., Tachilin S.A. Specific features of magnetoresistance in overcompensated manganese-doped silicon. // *Semiconductors*. -2014. -Vol.48. -No.8. -P.986–988. <https://doi.org/10.1134/S106378261408003X>
5. Bakhadyrkhanov M.K., Ayupov K.S., Mavlyanov G.Kh., Iliiev Kh.M., Isamov S.B. Photoconductivity of silicon with nanoclusters of manganese atoms. // *Russian Microelectronics*. -2014. -Vol.39. -No.6. -P.401–404. <https://doi.org/10.1134/S1063739710060041>
6. Bakhadyrkhanov M.K., Isamov S.B., Zikrillaev N.F. IR Photodetectors in the Range of $\lambda = 1.5\text{--}8$ μm , Based on Silicon with Multicharged Nanoclusters of Manganese Atoms. // *Russian Microelectronics*. -2012. -Vol.41. -No.6. -P.354–356. <https://doi.org/10.1134/S1063739712030043>
7. Bakhadyrkhanov M.K., Boltaks B.I., Kulikov G.S. Diffusion, solubility and electrical properties of manganese in silicon. // *FTT*. -1970. -No.14. -P.1671-1678.
8. Ludwig G.W., Woodbury H.H., Carlson R.O. Spin resonance of deep level impurities in germanium and silicon. // *Journal of Physics and Chemistry of Solids*. -1959. -V.8. -P.490. [https://doi.org/10.1016/0022-3697\(59\)90397-X](https://doi.org/10.1016/0022-3697(59)90397-X)
9. Fistul V.I., Kazakova V.M., Bobrovnikov Yu.A., Ryabtsev A.V., Abdurakhmanov K.P., Zainabidinov S., Kamilov T.S., Utamuradova Sh.B. // *SOV PHYS SEMICOND*. -1982. -Vol.16. -No.5. -P.603–605.
10. Kreissl J., Gehlhoff W. Electron Paramagnetic Resonance of the Mn_4 Cluster in Silicon. // *Physica status solidi*. -1988. -Vol.145. -No.2. -P.609–617. <https://doi.org/10.1002/pssb.2221450227>
11. Bakhadyrkhanov M.K., Mavlonov G.Kh., Isamov S.B., Iliiev Kh.M., Ayupov K.S., Saparniyazova Z.M., and Tachilin S.A. Transport Properties of Silicon Doped with Manganese via Low Temperature Diffusion. // *Inorganic Materials*. -2011. -Vol.47. -No.5. -P.479-483. <https://doi.org/10.1134/S0020168511050062>
12. Abdurakhmanov K.P., Lebedev A.A., Kreysl Y., Utamuradova Sh.B. Deep levels in silicon associated with manganese. // *FTP*. -1985. -Vol.19. -No.2. -P.213-216.
13. Bakhadyrkhanov M.K., Iliyev Kh.M., Mavlonov G.Kh., Ayupov K.S., Isamov S.B. and Tachilin S.A. Silicon with Magnetic Nanoclusters of Manganese Atoms as a New Ferromagnetic Material. // *Technical Physics*. -2019. -Vol.64. -No.3. -P.385–388. <https://doi.org/10.1134/S1063784219030046>
14. Ayupov K.S., Bakhadyrkhanov M.K., Iliiev Kh.M., Mavlonov G.Kh., Tachilin S.A. Multifunctional sensor of physical quantities based on silicon with nanostructures of manganese atoms. // *Pribore*. -2017. -No.4. -P.7-10.

DINAMIKANING ASOSIY MASALALARI: MODDIY NUQTANING DINAMIK HARAKAT QONUNLARINI ANIQLASH USULLARI**Qo‘chqorova Farida Tuychi qizi,**

Qarshi davlat texnika universiteti

Shahrisabz Oziq-ovqat muhandisligi fakulteti

faridaquchqorova16@gmail.com

Mannonova Malika Sarvar qizi,

Toshkent kimyo-texnologiya instituti

Shahrisabz filiali katta o‘qituvchisi

Qarshi davlat texnika universiteti dotsenti (PhD)

mannonovamalika37@gmail.com

Kengboyev Sirojiddin Abrayvich,

Qarshi davlat texnika universiteti assistent o‘qituvchisi

sirojmagistrstudent@gmail.com

Dusanova Gulshod Mirzayevna

Qarshi davlat texnika universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolaning maqsadi dinamik o‘zaro ta’sirlar nazariyasidan olinishi mumkin bo‘lgan harakat qonunlarini va uning ko‘p va muhim ilmiy qo‘llanilishini taqdim etishdir. Bir vaqtning o‘zida koaksiyal bo‘lmagan aylanishlarga duchor bo‘lgan qattiq jismlarning xatti-harakatlarining yangi talqiniga asoslanib, biz ushbu jismlarning dinamik harakati to‘g‘risida gipotezani ishlab chiqdik. Ushbu gipotezalardan va erkin jismlarning kosmosdagi xatti-harakatlarini kuzatish natijasida biz aksiomalar va matematik-fizik modelni ishlab chiqdik. Shunday qilib, biz gipotezalar va kuzatilgan xatti-harakatlarga mos keladigan harakat tenglamasini chiqardik. Ushbu dinamik model, qattiq qattiq jismlar yoki tizimlar holatida, uning dinamik ishlashi bilan bog‘liq bir qator qonunlar va natijalarni ilgari surishga imkon beradi. Bu qonunlar keyinchalik eksperimental sinovlar bilan tasdiqlangan. Ushbu tadqiqotning barchasi biz Dinamik o‘zaro ta’sirlar nazariyasi (TID) deb nomlagan oqilona va kontseptual tuzilmani tashkil qiladi. Ushbu mantiqiy deduktiv tizim aylanish natijasida ko‘p tezlanishga duchor bo‘lgan qattiq jismlarning harakatini bashorat qilish imkonini beradi. Xulosalarda biz printsiplar va aksiomalar, ishlab chiqilgan fizik-matematik model, olingan harakat tenglamasi, chiqarilgan qonunlar va amalga oshirilgan eksperimental testlar o‘rtasida muvofiqlikka erishilganligini ta’kidlaymiz.

Kalit so‘zlar: dinamik o‘zaro ta’sirlar nazariyasi, qattiq jism, koaksial bo‘lmagan aylanish, harakat tenglamasi, matematik-fizik model, dinamik qonunlar, eksperimental sinovlar, tezlanish, gipoteza, aksiomalar tizimi.

ОСНОВНЫЕ ЗАДАЧИ ДИНАМИКИ: МЕТОДЫ ОПРЕДЕЛЕНИЯ ЗАКОНОВ ДИНАМИЧЕСКОГО ДВИЖЕНИЯ МАТЕРИАЛЬНОЙ ТОЧКИ

Аннотация. Цель данной статьи – представить законы движения, которые могут быть выведены из теории динамических взаимодействий, а также её многочисленные и важные научные применения. На основе нового толкования поведения твёрдых тел, одновременно подвергающихся некоаксиальным вращениям, нами выдвинута гипотеза о динамическом движении этих тел. Из этих гипотез и наблюдений за поведением свободных тел в пространстве были разработаны аксиомы и математико-физическая модель. Таким образом, нами выведено уравнение движения, соответствующее гипотезам и наблюдаемому поведению. Данная динамическая модель позволяет сформулировать ряд законов и выводов, связанных с динамическим поведением твёрдых тел или систем. Эти законы впоследствии были подтверждены экспериментальными испытаниями. Всё это исследование представляет собой рациональную и концептуальную структуру, которую мы назвали теорией динамических взаимодействий (ТДВ). Этот логико-дедуктивный подход позволяет предсказывать движение твёрдых тел, испытывающих множественные ускорения в результате вращения. В заключении отмечается, что достигнуто соответствие между принципами и аксиомами, разработанной физико-математической моделью, полученным уравнением движения, выведенными законами и проведёнными экспериментальными проверками.

Ключевые слова: теория динамических взаимодействий, твёрдое тело, некоаксиальное вращение, уравнение движения, математико-физическая модель, динамические законы, экспериментальные испытания, ускорение, гипотеза, система аксиом.

MAIN PROBLEMS OF DYNAMICS: METHODS FOR DETERMINING THE DYNAMIC LAWS OF MOTION OF A MATERIAL POINT

Abstract. The purpose of this article is to present the laws of motion that can be derived from the theory of dynamic interactions and its numerous and significant scientific applications. Based on a new interpretation of the behavior of rigid bodies subjected simultaneously to non-coaxial rotations, we developed a hypothesis about the dynamic motion of these bodies. From these hypotheses and observations of the behavior of free bodies in space, we formulated axioms and a mathematical-physical model. Thus, we derived an equation of motion consistent with the hypotheses and observed behavior. This dynamic model allows the formulation of a series of laws and results related to the dynamic behavior of rigid bodies or systems. These laws were later confirmed by experimental tests. All of this research constitutes a rational and conceptual framework that we have called the Theory of Dynamic Interactions (TDI). This logical and deductive system makes it possible to predict the motion of rigid bodies subjected to multiple accelerations as a result of rotation. In conclusion, we emphasize that consistency has been achieved among the principles and axioms, the developed physical-mathematical model, the derived equation of motion, the formulated laws, and the conducted experimental tests.

Keywords: theory of dynamic interactions, rigid body, non-coaxial rotation, equation of motion, mathematical-physical model, dynamic laws, experimental tests, acceleration, hypothesis, system of axioms.

Kirish. Dinamika nazariy mexanikaning asosiy bo‘limi bo‘lib, unda jismlarning mexanik harakat qonunlari shu harakatni vujudga keltiruvchi kuchlarga bog‘liq holda o‘rganiladi. Mexanikaning asosiy, birlamchi tushunchasi bo‘lgan kuch dinamikada moddiy jismlar harakatini o‘zgartiruvchi ta’siri bilan aniqlanadi. Dinamikada jismlarga o‘zgarimas kuchlardan tashqari miqdori va yo‘nalishi o‘zgaruvchan kuchlar ham ta’sir ko‘rsatishi mumkin deb qaraladi. Kuchlar aktiv, faol yoki passiv, chunonchi, bog‘lanish reaksiya kuchlari bo‘lishi mumkin: Massa jismlarning moddiy miqdor o‘lchovi bo‘lib, dinamikaning asosiy tushunchalaridan biri hisoblanadi. Jismning harakati faqat unga qo‘yilgan kuchgagina bog‘liq bo‘lmay, uning inertligiga ham bog‘liq. Jismning inertligini miqdor jihatdan ifodalovchi fizikaviy kattalik jismning massasi deyiladi. Biz o‘rganayotgan mexanika klassik mexanika bo‘lib, bunda jismning tezligi yorug‘lik tezligidan ancha kichik, uning massasi o‘zgarimas, skalyar va musbat kattalik deb qaraladi. Harakatini o‘rganishda o‘lchamlari ahamiyatga ega bo‘lmagan, lekin massaga ega moddiy jismga moddiy nuqta deyiladi. Moddiy nuqta asl ma’noda, biror jismni anglatgani uchun u shu jismning massasiga teng massaga va shu sababli, jism kabi ta’sirlasha olish xususiyatiga ega bo‘ladi. Moddiy nuqta tushunchasiga binoan, mexanik sistema yoki jism massasi uni tashkil etgan moddiy nuqtalar massalarining yig‘indisi bilan aniqlanadi. Umumiy holda Jismning harakati faqat ushbu moddiy nuqtalar yig‘indisigagina emas, ularning jism bo‘ylab taqsimlanishi (jism shakli)ga ham bog‘liq. Dinamikaning masalasi. Dinamikaning masalasi jismga ta’sir etuvchi kuchlar bilan uning harakatining kinematik xarakteristikalari o‘rtasidagi bog‘lanish qonunlarini aniqlash va bu qonunlarni harakatning xususiy hollariga tatbiq etishdan iborat. Dinamika masalasini dinamikaning asoschisi Nyuton juda yaxshi ta’riflagan. U aytganki, dinamika “harakatning yuz berishiga ko‘ra tabiat kuchlarini bilish, so‘ngra bu kuchlar bilan tabiatning boshqa hodisalarini tushuntirishi” zarur. Albatta, moddiy nuqta dinamikasining asosiy masalalari va harakat qonunlarini aniqlash usullarini batafsilroq va bo‘limlarga bo‘linmasdan yoritaman. Moddiy nuqta dinamikasining asosiy vazifasi - moddiy nuqtaning fazoda vaqt o‘tishi bilan joylashuvining o‘zgarishini, ya’ni uning harakatini sabablari (kuchlar) bilan bog‘liq holda o‘rganishdir. Buning uchun eng asosiy vosita Nyutonning ikkinchi qonuni bo‘lib, u kuch, massa va tezlanish o‘rtasidagi bog‘liqlikni ifodalaydi: $m \cdot a = \Sigma F$. Bu tenglama har qanday dinamik masalaning yechimi uchun asos hisoblanadi.

Asosiy masalalar tahlili. Dinamikada ikki turdagi asosiy masala mavjud. Birinchi masalada moddiy nuqtaning massasi, boshlang‘ich holati (joylashuvi va tezligi) va unga ta’sir etuvchi barcha kuchlar ma’lum bo‘ladi, shu asosda nuqtaning harakat qonuni, ya’ni vaqtning istalgan momentidagi joylashuvi va tezligi topiladi. Bu masalani yechish uchun Nyutonning ikkinchi qonuni asosida harakatning differensial tenglamalari tuziladi va ularning yechimi topiladi. Masalan, Yerga ma’lum burchak ostida otilgan toshning harakat traektoriyasini, maksimal balandligini va uchish masofasini topish. Ikkinchi masalada esa moddiy nuqtaning massasi va uning harakat qonuni ma’lum bo‘ladi, shu asosda unga ta’sir etuvchi kuch(lar) topiladi. Bu masalani yechish nisbatan soddagina, chunki u differensial tenglamalarni integrallashni talab qilmaydi.

Ma'lum bo'lgan harakat qonunidan ketma-ket hosila olish orqali tezlanish topiladi va so'ngra Nyutonning ikkinchi qonuniga asosan kuch topiladi. Masalan, Quyosh atrofida ma'lum bir traektoriya bo'yicha harakatlanayotgan sayyoraga qanday kuch ta'sir qilayotganini topish. Harakat qonunlarini aniqlash usullari Harakat qonunlarini aniqlashning asosiy usuli differensial tenglamalarni tuzish va ularni yechishdir. Bu jarayon moddiy nuqtaning dinamik modelini tuzish, faol kuchlarni aniqlash, qulay koordinatalar sistemasini tanlash, harakat differensial tenglamalarini yozish, differensial tenglamalarni yechish va boshlang'ich shartlardan foydalanish bosqichlaridan iborat. Koordinatalar sistemasini tanlash juda muhim, chunki masalaning shartiga qarab Dekart koordinatalari, tabiiy koordinatalar yoki boshqa sistemalardan foydalanish mumkin. Har bir sistema o'ziga xos tenglamalar sistemasini talab qiladi. Differensial tenglamalarni yechish eng murakkab bosqich bo'lib, turli matematik usullar (ajratuvchi o'zgaruvchili, bir jinsli, chiziqli tenglamalar) qo'llaniladi. Yechimda paydo bo'ladigan integrallash doimiylarini aniqlash uchun boshlang'ich shartlar ($t=0$ dagi joylashuv va tezlik) muhim ahamiyatga ega.

Amaliy qo'llanilishi. Moddiy nuqta dinamikasining ushbu tamoyillari va usullari nafaqat nazariy ahamiyatga ega, balkil amaliyotda ham keng qo'llaniladi. Mashinasozlikda, qurilishda, aviatsiyada, kosmonavtikada, robototexnikada va boshqa sohalarida har qanday jismning harakatini hisoblash va loyihalash uchun dinamikaning asosiy tamoyillari qo'llaniladi. Masalan, avtomobilning turli yo'l sharoitlarida harakatini modellashtirish, sun'iy yo'ldoshlarning orbitadagi harakatini hisoblash, turbinalarning aylanish dinamikasini tadqiq qilish – bularning barchasi moddiy nuqta dinamikasiga asoslanadi. Dinamika – bu jismlarning harakat sabablarini o'rganuvchi mexanika bo'limi. Nyutonning uchta asosiy qonuni dinamikaning poydevoridir. Birinchi qonun - inersiya qonuni: agar jismga tashqi kuch ta'sir etmasa, u tinch holatda yoki to'g'ri chiziq bo'yicha bir jinsli harakatda bo'ladi. Ikkinchi qonun - asosiy dinamika qonuni: kuch jism massasi va tezlanishi ko'paytmasiga teng ($F = m \cdot a$). Uchinchi qonun – ta'sir-qarshilik qonuni: har qanday kuchga unga teng va qarama-qarshi yo'nalgan kuch javob qaytaradi. Moddiy nuqta - bu o'lchamlari e'tiborga olinmaydigan, lekin massasi va inersiyasi saqlanadigan ideal jism. Dinamikada ikki turdagi asosiy masala mavjud: to'g'ri masala va teskari masala. To'g'ri masalada kuchlar ma'lum bo'ladi, harakatni topish kerak. Teskari masalada harakat ma'lum bo'ladi, kuchlarni topish kerak. Kuchlar turlari orasida og'irlik kuchi ($P = mg$), elastiklik kuchi ($F = -kx$), ishqalanish kuchi ($F = \mu N$), markazga intiluvchi kuch ($F = mv^2/r$) muhim ahamiyatga ega. Energiya turlaridan kinetik energiya ($E_k = mv^2/2$) harakat energiyasi, potensial energiya ($E_p = mgh$) esa joylashuv energiyasidir. Impuls - harakat miqdori ($p = mv$), impuls momenti - aylana harakati miqdori ($L = r \times p$). Impulsning saqlanish qonuni yopiq sistemada impuls o'zgarimasligini bildiradi. Koordinata sistemalari orasida Dekart sistemasi (x, y, z) va tabiiy sistema (τ, n, b) keng qo'llaniladi. Tabiiy sistemada normal tezlanish $a_n = v^2/\rho$ formulasi bilan hisoblanadi. Bog'lanishlar dinamikasida g'ayritabiiy va tabiiy bog'lanishlar farqlanadi. Harakat tenglamalari differensial shaklda ifodalanadi va turli koordinata sistemalarida yechiladi. Sonli usullardan Eyler usuli ($y_{n+1} = y_n + h \cdot f(x_n, y_n)$), Runge-Kutta usuli, Verlet algoritmi keng qo'llaniladi. Bu usullar kompyuter modellashtirishda muhim ahamiyatga ega. Dinamika qonunlari amaliyotda keng qo'llaniladi: kosmonavtikada orbital hisoblar, mashinasozlikda transport vositalari dinamikasi, qurilishda konstruksiyalar hisobi, robototexnikada harakatni boshqarish, sportda qurilmalar loyihalash. Barcha mexanik hodisalar dinamika qonunlari asosida tushuntiriladi va hisoblanadi. Dinamika - mexanikaning jismlarning harakat sabablarini o'rganadigan bo'limi bo'lib, Nyutonning uch qonuniga asoslanadi. Birinchi qonun - inersiya qonuni: tashqi kuch ta'sir etmasa jism tinch holatda yoki bir jinsli harakatda bo'ladi. Ikkinchi qonun - asosiy dinamika qonuni: $F = m \cdot a$ (kuch massaning tezlanishiga teng). Uchinchi qonun - ta'sir-qarshilik: $F_{12} = -F_{21}$. Moddiy nuqta - o'lchamsiz lekin massali ideal jism. Dinamikada ikkita asosiy masala mavjud: to'g'ri masala (kuch ma'lum, harakat topiladi) va teskari masala (harakat ma'lum, kuch topiladi). Kuch turlari: og'irlik ($P = mg$), elastiklik ($F = -kx$), ishqalanish ($F = \mu N$), markazga intiluvchi ($F = mv^2/r$). Energiya: kinetik ($E_k = mv^2/2$), potensial ($E_p = mgh$), mexanik ish ($A = F \cdot s$). Impuls - harakat miqdori ($p = mv$), impuls momenti ($L = r \times p$), impulsning saqlanish qonuni. Koordinata sistemalari: Dekart (x, y, z), tabiiy (τ, n, b), normal tezlanish $a_n = v^2/\rho$. Bog'lanishlar: g'ayritabiiy (tezlikka bog'liq) va tabiiy (tezlikka bog'liq emas). Harakat tenglamalari differensial shaklda: $d^2x/dt^2 = F_x/m$. Sonli usullar: Eyler ($y_{n+1} = y_n + h \cdot f(x_n, y_n)$), Runge-Kutta, Verlet. Amaliy qo'llanilish: orbital hisoblar, transport dinamikasi, qurilish konstruksiyalari, robototexnika, sport qurilmalari. Dinamik tizimlar: erkin (cheklovsiz) va bog'langan (cheklovli). Differensial tenglamalarni yechish usullari: analitik (aniQ) va sonli (taxminiy). Fazoviy yondashuv – harakatni fazo-tezlik koordinatalarida tahlil qilish. Dinamikaning universal tamoyillari: D'Alamber printsiipi (dinamikani statikaga keltirish) va kamimalik printsiipi (minimal harakat). Qattiq jismlar dinamikasi moddiy nuqta dinamikasiga asoslanadi. Muhim tushunchalar: massa markazi, inersiya momenti, aylanish dinamikasi. Bog'lanish reaksiyalari: $N = mg \cos \alpha$. Tezlanish: tangensial ($a_t = dv/dt$) va normal ($a_n = v^2/\rho$). Kuchlar qo'shilishi: vektor qoidasi bo'yicha. Nyuton qonunlari inertial sanoq sistemalarida o'rinni.

Dinamika tarixi. Arximed, Galiley, Nyuton, Eyler, Laplas, Lagranj, Gamilton. Zamonaviy qo'llanilish: kosmik apparatlar, samolyotlar, avtomobillar, robotlar, qurilish mexanizmlari. Matematik asoslar: differensial hisob, vektor analizi, variatsion hisob. Eksperimental dinamika: tezlanish o'lchash, kuch o'lchash, tezlik o'lchash. Ushbu tahlil orqali biz doimiy aylanish va orbital harakat o'rtasidagi dastlabki aporiyamizga (muammoli savolga) to'liq javob berganimizga ishonamiz. Shu bilan biz tabiatda jismlarning ayni vaqtda aylanishi va orbitada harakatlanishini ularning massaning o'ziga xos inertsiya xatti-harakati bilan izohlab beramiz. Butun bayonot davomida biz "inertsiya kuchi" tushunchasidan qochishga, uning o'rniga inertsiya reaksiyasi tushunchasini kiritishga harakat qildik. Moddani kuzatish orqali haqiqiy kuchlarning mavjudligini isbotlab bo'lmaydi. Ammo biz tezliklarning notekis taqsimlanishini kuzatishimiz mumkin, ularning hosilalari (derivativlari) natijasida inertsiya tezlanish maydoni hosil bo'ladi. Bu maydon bir jinsli emas, ammo uni inertsiya kuchlari maydoni sifatida talqin qilish mumkin. Ta'kidlash lozimki, bu inertsiya kuchlari maydoni boshqa dinamik nazariyalarda bo'lgani kabi koordinatalar o'qini almashtirish natijasida hosil bo'lmaydi. Aksincha, u qattiq jism ichida, unga berilgan tashqi qo'zg'atuvchi ta'sir (moment) natijasida inertsiya reaksiyasi sifatida paydo bo'ladi. Bizning deduktiv tahlilimizda, jismning tekis harakati (translyatsiyasi) holatida ajratib ko'rsatuvchi gipoteza kiritilgan — ya'ni, translatsiya tezliklari maydoni ikkinchi, o'qlar bir-biriga to'g'ri kelmaydigan moment (non-koaksial moment) ta'sirida hosil bo'lgan anizotrop inertsiya tezliklari maydoniga ulanadi. Natijada, harakatlanuvchi jismning dastlabki ichki aylanishi bilan bir vaqtda orbital harakat hosil bo'ladi. Ushbu yangi orbital harakat doimiy modulga ega bo'lgan translatsion tezlik vektori aylanishi bilan aniqlanadi. Avvalgi ishlarimizda biz ushbu tahlil yordamida fazodagi har qanday harakatning tabiatini aniqlash va uning nisbiyligini belgilash mumkinligini taklif qilganmiz. Taklif etilgan harakat tenglamasi va formulalangan qonunlar bizga ratsional mexanika va aylanma dinamikani — aylanish orqali tezlanayotgan jismlar uchun — asoslar va aksiomalar asosida tuzish imkonini beradi. Ushbu yangi ratsional tuzilma ichida klassik mexanikadagi g'ayrioddiy yoki ziddiyatli hodisalar, masalan, girokopik moment yoki soxta kuchlar, paydo bo'lmasligi kerak. Dinamik o'zaro ta'sirlar nazariyasi (Theory of Dynamic Interactions) — bu ba'zi dinamik gipotezalardan tashkil topgan mantiqiy-deduktiv tizimdir. U tabiatni kuzatish, dastlabki gipotezalarni shakllantirish va aksiomalar hamda postulatlardan kelib chiqish orqali aylanma tezlanishlarga duchor bo'lgan qattiq jismlarga doir bilimlar tuzilmasini yaratadi. Natijada olingan fizik-matematik model ketma-ket, o'qlari bir-biriga mos kelmaydigan momentlar ta'sirida bo'lgan jismlarning kuzatiladigan xatti-harakatlarini izohlash, shuningdek, yangi xulosalar, mantiqiy natijalar va bashoratlar chiqarish imkonini beradi. Ushbu nazariya eksperimental sinovlar bilan tekshirilgan va tasdiqlangan. Mazkur matn Nyuton qonunlariga qarshi chiqishni maqsad qilmaydi; aksincha, u aylanish orqali tezlanayotgan tizimlar uchun klassik mexanikaga qo'shimcha konseptual tuzilma sifatida ishlab chiqilgan. Biz translatsion klassik mexanika qonunlari amal qilmaydigan, no-inertsiya muhitlari uchun maxsus aylanish algebrasiga asoslangan nazariyani taklif qilamiz. Shu tariqa, biz koinotda tez-tez uchrab turadigan, ammo bejizga e'tibordan chetda qolgan ayrim maxsus dinamik holatlar uchun yangi bilim sohasini tadqiq etishni taklif qilamiz. Shuningdek, ushbu tadqiqotlar rivoji davomida boshlang'ich gipotezalar, qo'llanilgan prinsipl va aksiomalar, yaratilgan fizik-matematik model, olingan harakat tenglamasi, chiqarilgan qonunlar, yaratilgan modellashtirish (simulyatsiya) modellari hamda o'tkazilgan tajribaviy sinovlar o'rtasida to'liq mantiqiy uyg'unlik (moslik) ta'minlangani alohida ta'kidlashga arziydi. Shuningdek, biz tabiatda kuzatilgan misollarni ham keltirib o'tdik — ular Dinamik o'zaro ta'sirlar nazariyasini (Theory of Dynamic Interactions) qo'llab-quvvatlaydi va ushbu matnda bayon etilgan qonunlarning to'g'riligini tasdiqlaydi.

Xulosa. Dinamika nazariyasi fizikaning eng fundamental bo'limlaridan biri bo'lib, moddiy jismlarning harakat sabablarini va ularning o'zgarish qonuniyatlarini o'rganadi. Nyutonning klassik mexanika qonunlari dinamikaning asosini tashkil etadi, ulardan eng muhimi $F = ma$ formulasi bilan ifodalanadigan ikkinchi qonundir. Bu tenglama kuch, massa va tezlanish o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlab, har qanday moddiy nuqta harakatini tavsiflash imkonini beradi. Dinamikaning asosiy masalalarini ikki guruhga ajratish mumkin: birinchisida kuchlar ma'lum bo'lganda harakatni aniqlash, ikkinchisida esa harakat ma'lum bo'lganda kuchlarni topish. Harakatning differensial tenglamalari dinamik masalalarni yechishning asosiy vositasi bo'lib, ularning yechimi jismning traektoriyasi va tezligini to'liq aniqlaydi. Energiyaning saqlanish qonuni, impulsning saqlanishi va impuls momentining saqlanishi kabi universal qonunlar murakkab sistemalarni tahlil qilishda qo'llaniladi. Koordinatalar sistemalarining turli turlari - Dekart, sferik, silindrik va tabiiy koordinatalar - masalaning shartiga qarab qulaylik yaratadi. Zamonaviy dinamika klassik chegaralardan chiqib, relyativistik dinamika va kvant dinamikasini qamrab olgan holda rivojlanmoqda. Amaliyotda dinamika qonunlari kosmik apparatlarning orbital harakatini hisoblash, qurilish konstruksiyalarining mustahkamligini aniqlash, transport vositalarining harakatini loyihalash va robototexnika sistemalarini boshqarishda keng qo'llaniladi. Eksperimental dinamika esa turli o'lchov usullari

PHYSICS

- dinamometrlar, akselerometrlar, tezlik va traektoriya o'lganlar orqali nazariy qonunlarni tasdiqlaydi. Dinamikaning rivojlanishi Galileo, Nyuton, Eylar, Laplas, Lagranj va Gamilton kabi olimlarning ishlari natijasida sodir bo'ldi va bugungi kunda u nafaqat makroskopik jismlar, balki molekulyar va atom darajasidagi sistemalarni ham o'rganish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR:

1. *Classical Mechanics (3rd Edition)* by Tai L. Chow. Routledge. Link: <https://www.routledge.com/Classical-Mechanics-Chow/p/book/9781032789545> Routledge
2. *Classical Mechanics: Systems of Particles and Hamiltonian Dynamics* by Walter Greiner. Springer-Verlag. Link: <https://doi.org/10.1007/978-3-642-03434-3> SpringerLink
3. *Classical Mechanics: An Introduction* by Dieter Strauch. Springer. Link: <https://doi.org/10.1007/978-3-540-73616-5>
4. *Classical Mechanics: From Particles to Continua and Regularity to Chaos* – Authors: Govind S. Krishnaswami. Havola: SpringerLink SpringerLink
5. *Theoretical Physics Compact I: Classical Mechanics* – Author: Wolfgang Cassing. Havola: SpringerLink SpringerLink
6. *Classical Mechanics: Including an Introduction to the Theory of Elasticity* – Author: Reinhard Hentschke. Havola: SpringerLink SpringerLink
7. *Introduction to Dynamics* – Authors: Friedrich Pfeiffer & Thorsten Schindler. Havola: SpringerLink SpringerLink
8. *Engineering Dynamics 2.0: Fundamentals and Numerical Solutions* – Author: Lester W. Schmerr. Havola: SpringerLink

ARTEZIAN QUDUQ SUVI TARKIBIDAGI TABIIY (^{226}Ra , ^{238}U , ^{232}Th , ^{40}K) VA
TEXNOGEN ^{137}Cs IZOTOPLARINING MIQDORI**Qodirov Mumin Qodirovich,**Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Yadro fizikasi va astronomiya kafedراسi professori
qodirov1946@gmail.com**Tuxtayev Ulug‘bek Uktamovich,**Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Yadro fizikasi va astronomiya kafedراسi dotsenti
ulugbekuktamovich89@gmail.com**Muxammedov Aliakbar Kurbanovich,**Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Yadro fizikasi laboratoriyasi katta ilmiy xodimi
mukhammedov59@gmail.com**Ulasheva Mashhura Akram qizi,**Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Yadro fizikasi va astronomiya kafedراسi magistranti
ulashevam2002@gmail.com**Nabiyev Abdullo Abduvohidovich,**Samarqand davlat tibbiyot universiteti Informatcion
texnologiya, biofizika va tibbiy fizika kafedراسi assistenti
tojik.sam@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada Samarqand Davlat Universiteti Yadro Fizikasi laboratoriyasi hududida joylashgan artезian quduq suv namunasining tarkibidagi tabiiy (^{226}Ra , ^{238}U , ^{232}Th , ^{40}K) hamda texnogen ^{137}Cs radioaktiv izotoplarning konsentrasiyasi NaI(Tl) kristalli ssintillatsion gamma-spektrometr usuli yordamida yordamida o‘rganildi. Suv namunasining harorati, pH ko‘rsatgich darajasi, qattiqligi va elektr o‘tkazuvchanligi o‘lchanildi. O‘ranilgan suv tarkibida uran, toriy qatoriga mansub radioaktiv elementlarning konsentrasiyasi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati (SanPiN) belgilab qo‘yilgan chegaraviy qiymatdan oshmaganligi aniqlandi. Tekshirilgan suvlarda radiy - 226 ning α -yemirilishidan hosil bo‘ladigan radon -222 solishtirma aktivligi aniqlandi. Olingan natijalar ekologik xavfsizlik nuqtai nazaridan tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: radioaktivlik, izotop, suv, uran (^{238}U), toriy (^{232}Th), radiy (^{226}Ra), radon (^{222}Rn), ssintillyasiya, gamma-spektrometr.

СОДЕРЖАНИЕ ПРИРОДНЫХ (^{226}Ra , ^{238}U , ^{232}Th , ^{40}K) И ТЕХНОГЕННОГО ^{137}Cs
ИЗОТОПОВ В АРТЕЗИАНСКОЙ ВОДЕ

Аннотация. В данной статье исследован состав пробы артезианской воды, взятой с территории лаборатории ядерной физики Самаркандского государственного университета, на содержание природных (^{226}Ra , ^{238}U , ^{232}Th , ^{40}K) и техногенного ^{137}Cs радиоактивных изотопов методом сцинтилляционной гамма-спектрометрии с использованием кристалла NaI(Tl). Были измерены температура воды, показатель pH, жёсткость и электрическая проводимость. Установлено, что концентрации радиоактивных элементов уранового и ториевого рядов в исследуемой воде не превышают предельно допустимых значений, установленных Службой санитарно-эпидемиологического благополучия и общественного здоровья (СанПиН). Также определена удельная активность радона-222, образующегося при α -распаде радия-226. Полученные результаты проанализированы с точки зрения экологической безопасности.

Ключевые слова: радиоактивность, изотоп, вода, уран (^{238}U), торий (^{232}Th), радий (^{226}Ra), радон (^{222}Rn), сцинтилляция, гамма-спектрометр.

CONCENTRATION OF NATURAL (^{226}Ra , ^{238}U , ^{232}Th , ^{40}K) AND ANTHROPOGENIC ^{137}Cs
ISOTOPES IN ARTESIAN WATER

Abstract. In this article, the composition of an artesian water sample collected from the territory of the Nuclear Physics Laboratory of Samarkand State University was studied to determine the concentrations of

natural (^{226}Ra , ^{238}U , ^{232}Th , ^{40}K) and anthropogenic ^{137}Cs radioactive isotopes using a $\text{NaI}(\text{Tl})$ crystal scintillation gamma spectrometer. The temperature, pH level, hardness, and electrical conductivity of the water sample were measured. It was found that the concentrations of radioactive elements belonging to the uranium and thorium series did not exceed the permissible limits established by the Sanitary and Epidemiological Safety and Public Health Service (SanPiN). The specific activity of radon-222 resulting from the α -decay of radium-226 was also determined. The obtained results were analyzed from the perspective of environmental safety.

Key words: radioactivity, isotope, water, uranium (^{238}U), thorium (^{232}Th), radium (^{226}Ra), radon (^{222}Rn), scintillation, gamma spectrometer.

Kirish. Radioaktiv elementlarning asosiy massasi tog' jinslarida, ayniqsa, magmatik jinslarda to'plangan. Shamollar, suvlar, temperatura va boshqa tabiat reagentlari ta'sirida tog' jinslari yemiriladi. Tog' jinslari yemirilganda Yer sirtida uran (^{238}U) va toriy (^{232}Th) ajralishi paydo bo'ladi. Toriy (^{232}Th) minerallari tabiat suvlarida uran (^{238}U)ga nisbatan juda kuchsiz eriydi. Shuning uchun toriy (^{232}Th) tabiat suvlarida kichik miqdorda aniqlanadi. Dengiz suvlarida o'rtacha $2\cdot 10^{-9}$ % atrofida bo'ladi [3]. Uranning katta qismi eritmalar hosil qilib, ko'l, dengiz, okean suvlariga o'tadi va suvlarda erigan holda bo'ladi, qisman suvlar tagidagi cho'kmalarga o'tadi. Dengiz va okean suvlarida uran (^{238}U) miqdori deyarli doimiy bo'lib, $2\cdot 10^{-6}$ g/l ga yaqin bo'ladi. Ayrim ko'l suvlarida uran (^{238}U) miqdori dengiz suvlaridagiga nisbatan bir necha o'n marta katta bo'lishi aniqlangan. Ariq suvlarida uran (^{238}U) miqdori o'rtacha 10^{-6} - 10^{-7} g/l ni tashkil qiladi. Tog' jinslari orasidan yoki uranli qazilmalar bo'lgan hududlardan oqib o'tadigan ariq suvlarida uran katta miqdorda ($1\cdot 10^{-5}$ g/l) uchraydi. Buning sababi uranning katta miqdori (ba'zan $1\cdot 10^{-3}$ g/l ga yetadi) bilan karakterlanadigan yer osti suvlari bo'lib, ariq suvlariga ham o'z hissasini qo'shishidir [1, 2].

Suvlarning radioaktivligiga, ayniqsa, yer osti suvlarining radioaktivligiga radon (^{222}Rn) ahamiyatli darajada hissa qo'shadi. Radon (^{222}Rn) miqdorini bilgan holda suv tarkibidagi uran, radiy va ular yemirilishidan hosil bo'ladigan radioaktiv izotoplar miqdori, suvning radioaktivligi darajasi haqida ma'lumot olish mumkin. Suv, havo, oziq-ovqatlar orqali kishilar organizmiga o'tgan radioaktiv izotoplar yarim yemirilish davriga, organizmdan chiqarilish darajasiga bog'liq ravishda ichki nurlanish manbayi bo'lib qoladi. Kishilar yashash faoliyati davomida oladigan nurlanishlarning asosiy qismini tabiiy radionuklidlar yemirilishidan hosil bo'ladigan tabiiy radioaktiv nurlanishlardan oladi [3]. Kishilar oladigan nurlanish xavfsiz deb belgilangan chegaraviy miqdoridan ortib ketgan hollarda sog'lom organizmda patologik jarayonlar paydo bo'ladi. Hayot uchun xavfli bo'lgan turli xil kasalliklar, ya'ni saraton, bepustlik, nasl, teri kasalliklari kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun tabiat namunalari (suv, havo, o'simlik)ning radioaktivlik darajasini, uning o'zgarishini doimiy ravishda nazorat qilib borish kishilar sog'lig'ini muhofaza qilishda ekologik nuqtai nazardan muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston – 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash" va "Yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi mamlakatimizda atrof-muhit muhofazasi va ekologik masalalar davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylanganini ifoda etish bilan birga, O'zbekistonda global ekologik tahdidlarga qarshi kurashishning o'ziga xos platformasi yaratilayotganidan darak beradi. Shu nuqtai nazardan, bugungi kunda suvlarning radioaktiv iflaslanganlik darajasini tekshirish, ichimlik suvlaridagi radionuklidlar miqdori belgilangan talab darajasida ekanligini aniqlash ham bugunning ahamiyatli vazifalaridan biridir. O'zbekiston Respublikasi hududida, xususan Samarqand viloyatida yerosti suvlaridan ichimlik suvi sifatida keng foydalaniladi. Bu suv manbalarining radioaktiv ifloslanishi darajasini aniqlash, aholining sog'lig'i uchun muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadda, Yadro fizikasi laboratoriyasi hududida joylashgan artezian quduqdan olingan suv namunasi gamma-spektrometrik hamda radiometrik usulda tekshirildi.

O'lchash uslubining nazariyasi va qurilmasining tavsifi. Namunalarni tayyorlash. Suv namunalari Yadro fizikasi laboratoriyasi artesian quduq suvi namunasi 10 litr miqdorda olingan. Suv namunasi polietilin idishda (namuna nomi, namuna olingan joy, olingan vaqti va idish qadoqlangan vaqti) yozib olinadi. Olingan suv namunasi bir joydan ^{222}Rn uchun alohida va TRN va texnogen ^{137}Cs uchun alohida idishda olinadi va qadoqlanadi.

Tekshiriluvchi suvda radionuklidlarning konsentratsiyasi juda kichikligi sababli suv namunalari radionuklidlar aktivligini to'g'ridan - to'g'ri aniqlash samarasiz hisoblanadi. Qo'llaniluvchi usullar qurilmalar sezgirligiga bog'liq bo'lib, o'lchash aniqligini oshirish uchun bug'latish yo'li bilan 1:100-1:1000 proporsiyada namuna konsentratsiyasi oshiriladi [4].

Ichimlik suvining radiatsion xavfsizligi bo'yicha qabul qilingan xalqaro normalarga asosan, aholining ichki nurlanish effektiv dozasi ichimlik suvi iste'moli (730 l/yil) ga bog'liq holda 0,1 mZv/yildan oshmasligi


kerak. Shuningdek, ichimlik suvining α -aktivligi 0,5 Bk/l, yig'indi β -aktivligi esa 1 Bk/l dan oshmasligi lozim. Agar bu talablar bajarilsa, boshqa tadqiqotlarni o'tkazish zarurati qolmaydi. Yuqori mineralizatsiyali suvlarning radioaktivligi ularda uchrashi mumkin bo'lgan ^{226}Ra va ^{238}U izotoplari bilan bog'liq. Suvda radiy va uran miqdorini aniqlashda keng foydalaniladigan usullar α -spektrometrik usuli hisoblanadi. Bu usul qimmatbaho qurilmalarning mavjudligi va qiyin elektrokimyoviy cho'ktirish jarayonini talab qiladi. Suvda radiy aniqlashda bajariladigan ancha oddiy usul γ -spektrometrik usuldir. Bunga radiy-bariy sulfati bilan birgalikda cho'ktiriladi. Usulning kamchiligi shundan iboratki, cho'lkmani radiyning yemirilishidan hosil bo'lgan elementlar bilan radioaktiv muvozanatga erishguncha saqlash zarurati hisoblanadi. Chunki, radiy bilan birgalikda uran ham cho'kadi va ^{235}U ning γ -chizig'i 185,7 keV bilan ^{226}Ra ning γ -chizig'i 186,2 keV ustma-ust tushadi. Bu esa chiziq bo'yicha radiy aktivligini aniqlash imkonini bermaydi, shuning uchun radiy va uranni elektrokimyoviy ajratishga asoslangan namuna tayyorlash usullaridan foydalaniladi.

Suvda radonning konsentratsiyasini aniqlash suvni yuzaga chiqarish joyi yaqinidan namuna olish zarur. Suv avval toza yuvilgan shisha idishda olinadi. Suvni olayotganda idishga gaz pufakchalarining tushmasligini kuzatish zarur. Suvni idish liq to'lguncha olish va idish og'zini mahkam yopish kerak. Sababi, radon gazi suvdan kuchli ajraladi. ^{222}Rn aktivligini aniqlash maqsadida olingan suv namunasini olish vaqti va o'lchash vaqti oralig'i ikki kundan $T_{1/2}(^{222}\text{Rn}) = 3,8$ kun) oshmasligi lozim.

Gamma-spektrometriya usullari qo'llanilganda tekshiriluvchi suv namuna olingan shisha idishdan ingichka polietilin (kembrik) shlang nay ($\varnothing 5$ mm) yordamida Marinelli idishi devori bo'ylab quyiladi. Idishning belgilangan chizig'igacha olinib, idish mustahkam qilib yopiladi va o'lchash namunasi sifatida ishlatiladi. O'lchash uchun tayyorlangan namunalarda o'lchami $\varnothing 80 \times 80$ mm NaI(Tl) kristalli ssintillyatsion γ -spektrometrda 1800 sek davomida aktivligi tekshiriladi. Spektrometr ^{137}Cs ning 661 keV li monoenergetik γ -chizig'i uchun energetik ajrata olish qobiliyati 8,5% ni tashkil qiladi. Spektrometr standart ^{232}Th radionuklidi yordamida energiya bo'yicha gradiurovka qilingan. Namunalarni o'lchash davomida operator laboratoriya xonasi havosi harorati va nisbiy namligi bir xil sharoitda o'lchanmog'i lozim.

Gamma-spektrometрни tashkil etuvchilarga ajratish (2-rasm) va qayta ishlash [5] metodika (usullar) yordamida amalga oshiriladi. Eksperimental spektrdan radon tashkil etuvchisi – P spektrlar farqi bo'yicha ajratiladi:

- tekshiruvchi – A va distirlangan (inert) – B hamda suv namunalari – C γ -spektri (1-rasmga qarang);
- $\Delta t = T_{1/2}(^{222}\text{Rn}) = 3,83$ kun saqlangandan so'ng o'lchash namunasi spektri;
- namunadagi ^{222}Rn aktivligi uning spektridan faqatgina 185,6 keV li γ -chizig'i mavjudligi sababli, farqlanuvchi ajratilgan tashkil etuvchisini P – etalon manba ^{226}Ra – E spektri bilan taqqoslash natijasida aniqlanadi.




1-rasm. Suv namunasining γ -spektri (tekshiruvchi – A , distirlangan (inert) – B hamda suv namunalari – C γ -spektri ^{222}Rn tashkil etuvchisi)

Suv namunasi tarkibidagi uran (^{235}U) γ -spektrometrik aniqlashda quyidagilar bajariladi:

- olingan suv namunasi 10 dm³ miqdorda, bunday suv miqdorini 1 dm³ Marinelli idishi hajmigacha 70°C haroratda bug'lantiriladi;
- γ -spektrometrda namunani 6 soat davomida γ -spektri o'lchanadi hamda sof spektrni aniqlash uchun 6 soatlik ekspozitsiya vaqti bilan o'lchangan distirlangan suv spektri V ayriladi (2-rasm);

- suv tarkibidagi TRN ^{226}Ra , ^{232}Th , ^{40}K , texnogen ^{137}Cs larning miqdori etalon OMACH (standart) manbalarning spektrlari bilan normallashtirib hisoblanadi. Etalon OMACH manbalari 3 xil zichlikda spektrlari 6 soat davomida o'lchab olinadi va o'lchangan spektrlar dasturiy ta'minot bazasiga joylashtiriladi;
- fon spektri sifatida quritilgan NaCl (osh tuzi) Marinelli idishiga solinib 6 soat davomida γ -spektri o'lchab olinadi;
- namunaning gamma-spektri n dan fon spektri f ayriladi, natijada toza spektr hosil bo'ladi $V = n - f$;



2-rasm. Suv namunasi γ -spektrlarini TRN tashkil etuvchilarga ajratish

- toza gamma-spektr tarkibida TRN (^{226}Ra , ^{232}Th , ^{40}K) va ^{235}U va texnogen ^{137}Cs , mavjud. Namunalarning fondan tozalangan spektr tarkibidagi ^{232}Th radionuklididan hosil bo'ladigan barcha gamma-chiziqlarni zichligiga (massaga) tuzatma koeffitsiyent k ga ($k = m_{et} / m_0$) ko'paytirib spektr zichlik bo'yicha normallashtiriladi, keyin normallashtirilgan etalon va namuna spektrlaridagi ^{232}Th ning 2614 keV li fotocho'qqilari yuzalari S_0 , S_{et} topiladi, shu spektr yuzalari nisbati ($\alpha = S_{et}/S_0$) etalon manba hosil qilgan spektrga ko'paytirib normallashtiriladi;

- namuna spektri V dan normallashtirilgan ^{232}Th spektri V_{Th} ayriladi $V_1 = V - V_{Th}$, natijada namuna spektridan ^{232}Th ga tegishli barcha γ -chiziqlardan tozalanadi;


- har bir etalon (OMACH) manbai uchun yuqorida keltirilgandek, zichlik tuzatma koeffitsiyenti topiladi va spektrlar zichlik bo'yicha normallashtiriladi;

- zichlik bo'yicha normallashtirilgan ^{226}Ra etalon va namuna V spektridagi 1764 keV li fotocho'qqilar yuzalari hisoblab topiladi, shu spektrlar yuzalari nisbati ($\alpha = S_{et}/S_0$) etalon manba (^{226}Ra) hosil qilgan spektrga ko'paytirib normallashtiriladi - V_{Ra} ;

- ^{232}Th dan tozalangan namuna spektridan V_1 normallashtirilgan V_{Ra} γ -spektri ayriladi $V_2 = V_1 - V_{Ra}$, natijada namuna spektridan ^{226}Ra ga tegishi barcha chiziqlardan tozalanadi;

- zichlik bo'yicha normallashtirilgan ^{40}K etalon va namuna spektridagi 1460 keV li fotocho'qqilar yuzalarini hisoblab, ularning nisbatini ($\alpha = S_{et}/S_0$) etalon manba (^{40}K) hosil qilgan γ -spektrga ko'paytirilib normallashtiriladi - V_K ;

- ^{226}Ra dan tozalangan namuna spektridan – V_2 normallash V_K γ -spektri ayriladi $V_3 = V_2 - V_K$, natijada namuna spektridan ^{40}K ga tegishli barcha chiziqlardan tozalanadi;
- zichlik bo'yicha normallashgan ^{137}Cs etalon va namuna V spektridagi 661 keV li fotocho'qqilar yuzalari hisoblab, ularning nisbati ($\alpha = S_{et}/S_0$) etalon manba (^{137}Cs) hosil qilgan γ -spektrda ko'paytirilib normallashtiriladi – V_{Cs} ;
- ^{40}K dan tozalangan namuna spektridan – V_3 , normallashgan – V_{Cs} γ -spektri ayriladi $V_4 = V_3 - V_{Cs}$, natijada namuna spektridan ^{137}Cs ga tegishli barcha chiziqlardan tozalanadi;



3-rasm. Suv namunasi tarkibidagi uran ^{235}U ning γ -spektrini ajratish

- radiy (^{226}Ra) γ -chizig'i 186,2 keV va uran (^{235}U) 185,7 keV ni tashkil qiladi va fotocho'qqilar ustma-ust tushadi (3-rasmga qarang);
- namuna spektridan – V_4 uran (^{235}U) radionuklidi 185,7 keV li fotocho'qqi hosil qiladi;
- o'rganilayotgan suv namunasi tarkibidagi uran (^{235}U) miqdori (aktivligi) quyidagicha aniqlanadi:

$$A = \frac{S_{235\text{U}}}{k \cdot \varepsilon \cdot t} \quad (1)$$

(2) formuladagi ε – effektivlikning energetik qiymati jihatidan yaqin bo'lgan (^{226}Ra) ning 186,2 keV li fotocho'qqisi orqali hisoblab topishimiz mumkin:

$$\varepsilon = \frac{S_{226\text{Ra}(186,2\text{keV})} \cdot A_{226\text{Ra}}}{k \cdot t} \quad (2)$$

bu yerda $S_{226\text{Ra}(186,2\text{keV})}$ – OMACH etalon manbalaridagi ^{226}Ra ning 186,2 keV fotocho'qqining yuzasi, $A_{226\text{Ra}}$ – ^{226}Ra OMASN etalon manbaining aktivligi (pasportining qiymatiga qarang), k – ^{226}Ra ning 186,2 keV γ -chizig'i uchun kvant chiqishi ($k = 1$).

Radionuklidlarning minimal detektorlash aktivligi (MDA) 2 soatlik o'lchashlar natijasida ^{226}Ra , ^{232}Th va ^{137}Cs uchun $A = 10$ Bk/kg va ^{40}K uchun $A = 40$ Bk/kg ni tashkil qiladi. Shu qiymatdagi MDA uchun namunalardagi TRN ning o'lchashdagi nisbiy xatoligi $\delta A_n = 10 \div 20\%$ tashkil qiladi.

Olingan tajriba natijalari va ularning muhokamasi.

O'lchangan suv namunasi tarkibidagi TRN (^{226}Ra , ^{238}U , ^{232}Th , ^{40}K) va texnogen ^{137}Cs miqdori 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval.

	Aktivlik $A \pm \Delta A$ (Bk/l)				
	^{226}Ra	^{238}U	^{232}Th	^{40}K	^{137}Cs
Artesian suvi	<1,6	-	<1,2	0,67±0,20	<0,05
JSST (UNSCEAR)	4,9-60,0	3,0	11,0-64,0	140,0-1700,0	-

O'Ichangan artezian suvning asosiy xarakteristikasi 2-jadvalga keltirilgan

2-jadval.

	pH	EC, (mkCm/sm)	TDS, (mg/l)	T, °C
Artezian suvi	6,5	966	715	22,3

Olingan natijalar muhokamasi. 1-jadvalda keltirgan natijalardan quyidagicha xulosa chiqarish mumkin Yadro fizikasi laboratoriyasi hududiga joylashgan artesian quduq suvi takibida tabiiy radionuklidlar miqdori JSST (UNSCEAR) belgilab qo'yilgan miqdordan ancha past ekanligi aniqlandi. Tabiiy radionuklidlardan faqat ^{40}K miqdori aniqlash chegarasidan yuqori ekanligini ko'rish mumkin. Suv tarkibida ^{238}U miqdori aniqlanmadi.

Suv namunasi tarkibidagi ^{40}K miqdori suvning minerallanish darajasiga bog'liq bo'lib, artesian suvining minerallanish darajasi 715 mg/l teng, shu sababli bunday suvlarning tarkibida K^+ , Na^+ , Mg^{2+} , Ca^{2+} kabi minerall elementlar mavjud, bu esa bunday suvlar tarkibida ^{40}K kabi tabiiy radionuklidlarning mavjudligidan darak beradi.

Tahlil natijalariga shuni ko'rsatdiki, radionuklidlar darajasi O'zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati (SanPiN) belgilab qo'yilgan chegaraviy qiymatdan past ekanligi ma'lum bo'ldi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, Samarqand davlat universiteti, Yadro fizikasi laboratoriyasi hududidagi artesian quduq suvining radioaktivlik miqdori ancha past va xavfli darajada emas. Ushbu natijalar artesian suvini istemol qilishga yaroqli ekanligini tasdiqlaydi.

ADABIYOTLAR:

1. Bekjonov R.B. *Atom yadrosi va zarralar fizikasi*. – Toshkent: “O'qituvchi”, 1995 – 86-92-bet.
2. Перцов Л.А. *Ионизирующие излучения биосферы*. – Москва: Атомиздат”, 1973. – 34-40 стр.
3. Mo'minov A.T., Mo'minov T.M., Xolboev I., Axmedova G., Mamatqulov O.B. *Atrof-muhit obyektlarini gamma-spektrometriya usullari bilan tadqiq qilish. Monografiya*. – Toshkent: Vneshinvestprom, 2020. – 294 bet. ISBN 978-9943-6704-4-0.
4. Axmedova G. *Radioaktivlik va uning ahamiyati. Monografiya*. – Toshkent: Vneshinvestprom, 2020 – 186 bet.
5. Azimov A.N., Hushmuradov Sh.Kh., Muminov I.T., Muminov T.M., Osmanov B.S., Safarov A.N., Safarov A.A. *Gamma-spectrometric determination of natural radionuclides and ^{137}Cs concentrations in environmental samples. The improved scintillation technique // Radiation Measurements. V. 43, Issue 1, January 2008, P. 66-71.*

DATCHIKLARNING ASOSIY VA MAXSUS TAVSIFLARI

Axmedov Akbar Akramovich,

*Qarshi davlat texnika universiteti Shahrisabz
ozziq-ovqat muhandisligi fakulteti o‘qituvchisi
akbarakramovich1111@gmail.com*

Tursunov Alisher Ravshan o‘g‘li,

*Qarshi davlat texnika universiteti Shahrisabz
ozziq-ovqat muhandisligi fakulteti o‘qituvchisi
alishertursunov260@gmail.com*

Annotatsiya. *Datchiklarning ishlash samaradorligini belgilovchi asosiy va maxsus metrologik tavsiflar chuqur yoritiladi. Har bir datchikning aniqligi, barqarorligi va funksional imkoniyatlari uning sezgirlik, aniqlik, o‘lchash diapazoni, tezkorlik, uzatish funksiyasi, chiziqlilik darajasi, gisterezis, qayta yaratiluvchanlik, o‘lik zona va yechish qobiliyati kabi ko‘rsatkichlari orqali tavsiflanadi. Datchikning kirish va chiqish signallari o‘rtasidagi bog‘lanish uzatish funksiyasi chiziqli, logarifmik, eksponensial yoki darajali ko‘rinishlarda bo‘lishi, uning real va ideal xatti-harakatlarini solishtirish orqali baholanishi, kalibrlash sikllari, bo‘lakli-chiziqli approksimatsiya, eng kichik kvadratlar uslubi va “eng yaxshi to‘g‘ri chiziq” metodi kabi matematik yondashuvlar orqali datchikning real o‘lchash tavsiflarini aniqlash metodlari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *gisterezis, nochiziqlilik, qayta yaratuvchanlik, o‘lik zona, qo‘zg‘atish signali, maxsus xarakteristikalar, chiqish impedansi, qo‘zg‘atish funksiyasi, statik baholash, statik xatolik.*

ОСНОВНЫЕ И СПЕЦИАЛЬНЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ДАТЧИКОВ

Аннотация. *В данной теме подробно раскрываются основные и специальные метрологические характеристики, определяющие эффективность работы датчиков. Точность, стабильность и функциональные возможности каждого датчика описываются через такие показатели, как чувствительность, погрешность, диапазон измерений, быстродействие, передаточная функция, степень линейности, гистерезис, воспроизводимость, мёртвая зона и разрешающая способность. Связь между входными и выходными сигналами датчика — передаточная функция — может иметь линейную, логарифмическую, экспоненциальную или степенную форму. Оценка характеристик датчика проводится путём сравнения его реального и идеального поведения. Также раскрыты методы определения реальных измерительных свойств датчика, такие как циклы калибровки, кусочно-линейная аппроксимация, метод наименьших квадратов и метод «наилучшей прямой».*

Ключевые слова: *гистерезис, нелинейность, воспроизводимость, мёртвая зона, возбуждающий сигнал, специальные характеристики, выходное сопротивление (импеданс), возбуждающая функция, статическая оценка, статическая погрешность.*

BASIC AND SPECIAL DESCRIPTIONS OF SENSORS

Abstract. *The topic provides an in-depth explanation of the primary and special metrological characteristics that determine the performance of sensors. The accuracy, stability, and functional capability of each sensor are described through parameters such as sensitivity, accuracy, measurement range, response speed, transfer function, linearity, hysteresis, repeatability, dead zone, and resolution. The relationship between the input and output signals of a sensor—its transfer function—may take linear, logarithmic, exponential, or power-law forms. The evaluation of real versus ideal sensor behavior, as well as methods for determining the actual measurement characteristics of sensors, are explained through mathematical approaches such as calibration cycles, piecewise-linear approximation, the least squares method, and the “best straight line” technique.*

Keywords: *hysteresis, nonlinearity, repeatability, dead zone, excitation signal, special characteristics, output impedance, excitation function, static evaluation, static error.*

Kirish. *Zamonaviy o‘lchash va boshqaruv tizimlarida datchiklar eng muhim bo‘g‘inlardan biri hisoblanadi. Har qanday avtomatlashtirilgan qurilma, nazorat-o‘lchash tizimi yoki intellektual texnologiya avvalo datchiklar orqali tashqi muhit haqidagi axborotni qabul qiladi. Datchikning qanchalik ishonchli, aniq va barqaror ishlashi butun tizimning samaradorligiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Shu bois datchiklarning asosiy va maxsus tavsiflarini chuqur o‘rganish zamonaviy metrologiya, avtomatika, elektronika va axborot*

texnologiyalari sohalari uchun dolzarb masalalardan biridir. Datchikning ishlash samaradorligi avvalo uning metrologik tavsiflari bilan belgilanadi. Ular ichida sezgirlik, aniqlik, o'lchash diapazoni, chiziqlilik (yoki nochiziqlilik), gisterezis, qayta yaratiluvchanlik, o'lik zona, yechish qobiliyati kabi ko'rsatkichlar alohida ahamiyatga ega. Shuningdek, datchikning kirish va chiqish signallari o'rtasidagi bog'lanishni ifodalovchi uzatish funksiyasi ham muhim nazariy tushuncha bo'lib, u datchikning ideal yoki real ishchi xatti-harakatini matematik va grafik shaklda tasvirlash imkonini beradi.

Uzatish funksiyasining chiziqli yoki nochiziqli bo'lishi, bo'lakli-chiziqli yoki yuqori tartibli polinomlar bilan approksimatsiyalanishi datchikdan olinadigan ma'lumotlarning qay darajada aniq va qayta ishlashga qulayligini ko'rsatadi. Amaliyotda datchiklar faqat bitta tashqi ta'sirga emas, balki bir vaqtning o'zida bir nechta omillarga bog'liq bo'lishi mumkin. Masalan, infraqizil harorat datchiklarida chiqish signali nafaqat obyekt haroratiga, balki sezgir element yuzasining haroratiga ham bog'liq bo'ladi. Bunday hollarda uzatish funksiyasi ko'p o'lchamli ko'rinishga ega bo'lib, datchikni loyihalash va kalibrlash jarayonini yanada murakkablashtiradi. Shuningdek, datchikning to'yinish zonasi, nochiziqlilik darajasi, kalibrlash egri chizig'ini tanlash usullari (eng kichik kvadratlar, eng yaxshi to'g'ri chiziq va hokazo) ham o'lchash natijalarining ishonchliligini belgilovchi omillardan hisoblanadi. Datchiklarning maxsus tavsiflari qatoriga esa chiqish impedansi, qo'zg'atish signali talablari, spektral sezgirlik, konstruktiv o'lchamlari, og'irligi, energiya sarfi va ekspluatatsion ishonchliligi kiradi. Bu ko'rsatkichlar datchikning elektron sxemalar bilan mosligi, turli muhitlarda (havo, suv, agressiv muhit) ishlash imkoniyati hamda ma'lum sohada (tibbiyot, mudofaa sanoati, maishiy texnika va boshqalar) qo'llash maqsadga muvofiqligini belgilaydi. Shunday qilib, "Datchiklarning asosiy va maxsus tavsiflari" mavzusi datchiklarning nazariy va amaliy jihatlarini kompleks o'rganishga xizmat qilib, o'lchash tizimlarining sifatini oshirish va ularni takomillashtirishda muhim metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

***Annotatsiya.** Respublikamizning 4304,32 ming gektar sug'oriladigan yerlarning asosiy qismi (50%ga yaqin) turli darajada sho'rlangan tuproqlarni tashkil etib, bu holat sug'oriladigan hududlarda qishloq xo'jaligi ekinlarining umumiy hosildorligini pasaytiradi. Ushbu maqolada Buxoro tumani sug'oriladigan tuproqlari va ularning agrofizikaviy xossalari to'g'risida batafsil ma'lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari tuproq unumdorligini yaxshilash chora-tadbirlari keltirilib o'tilgan.*

***Kalit so'zlar:** Buxoro tumani, sug'oriladigan tuproqlar, tuproqlarni mexanik tarkibi, Zarafshon daryosi deltasi, melioratsiya, tuproq unumdorligi, sug'orish me'yorlari, sho'rланish, ona jins, prolyuvial, allyuvial, lyossimon qumoglar, grunt suvlari, mineralizatsiya.*

**СПЕЦИФИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА И ИССЛЕДОВАНИЕ ОРОШАЕМЫХ ПОЧВ
(на примере Бухарского района)**

***Аннотация.** Основная часть из 4304,32 тыс. га орошаемых земель нашей республики (около 50%) состоит из почв различной степени засоления, что снижает общую продуктивность сельскохозяйственных культур на орошаемых территориях. В данной статье представлена подробная информация об орошаемых почвах Бухарской области и их агрофизических свойствах. Кроме того, были представлены мероприятия по повышению плодородия почв.*

***Ключевые слова:** Бухарский район, орошаемые почвы, механический состав почв, дельта реки Зерафшан, мелиорация, плодородие почв, нормы орошения, засоленность, материнская порода, пролювиальные, аллювиальные, лессовые пески, подземные воды, минерализация.*

**SPECIFIC PROPERTIES AND RESEARCH OF IRRIGATED SOILS
(on the example of Bukhara district)**

***Abstract.** The main part of 4304.32 thousand hectares of irrigated land of our republic (about 50%) consists of soils with varying degrees of salinity, which reduces the overall productivity of agricultural crops in irrigated areas. This article provides detailed information about the irrigated soils of Bukhara district and their agrophysical properties. In addition, measures to improve soil fertility were presented.*

***Key words:** Bukhara district, irrigated soils, soil mechanical composition, Zarafshan river delta, reclamation, soil fertility, irrigation standards, salinity, parent rock, proluvial, alluvial, loess sands, groundwater, mineralization*

Kirish. Buxoro viloyati Zarafshon daryosining quyi oqimida joylashgan bo'lib. Butun voha bo'yicha keng va qisqa daryo yotqizqlarida hosil bo'lgan maydonlardan iborat. Daryoning keng qismida Buxoro quyi qismida esa Qorako'l vohalari joylashgan. [3.4.]

Buxoro vohasi Navoyi – Konimex Xazaraning turtib chiqqan Avtobacha va Qiziltepa plotasining uchlamchi yotqizqlariga kirib boradi.

Bu vohaning uzunligi 80 km, maksimal kengligi 50 kmni tashkil etadi. Sharqda Xazaraning turtib chiqqan, janubiy g'arbda Jangara bo'yini, shimolda Qizilqum va Avtobacha plotasi janubda va janubiy g'arbda Kuyukmozor, Qiziltepa va Devxona plotasi bilan chegaralanadi.

Qorako'l vohasi kattaligi jihatidan birmuncha kichik va yoshi jihatidan yosh Zarafshon daryosining quyida Jangara bo'yinini Qorako'l plotasiga kirib borish joyida rivojlangan. Voha shimoliy – sharqdan Qorako'l plotasi, Jangara bo'yini bilan shimoldan Qizilqum qumlari va Qorako'l platosi, janubiy - g'arbdan Zarafshon vohasini Amudaryoning o'rta oqimidan ajratib turuvchi Sundukli qumlari bilan chegaralanadi.

Buxoro viloyati qishloq xo'jaligini tabiiy rayonlashtirilishi bo'yicha O'rta Osiyo cho'l provinsiyasi janubiy Qizilqum va shimoliy Qizilqum okruglarining subtropik cho'l hududiga kiradi.

Janubiy Qizilqum okrugida sug'oriladigan tekis hudud joylashgan bo'lib Zarafshon daryosining havza va havza oldi hamda Buxoro va Qorako'l daryolarining qadimgi chiqish irmog'i tekisligini o'z ichiga oladi. Obyekt sifatida hududning qolgan qismini Qizilqum cho'li ishg'ol qiladi. Cho'l mintaqasi Buxoro va Qorako'l irmoqlarida asosan eskidan sug'oriladigan allyuvial o'tloqi, o'tloqi cho'l va o'tloqi taqir tuproqlar tarqalgan. Viloyatda keng tarqalgan o'rta va yengil qumoqli mexanik tarkibli va sug'orish bilan band bo'lgan eskidan sug'oriladigan o'tloqi tuproqlar qishloq xo'jaligi asosiy ekinlari uchun maqbul agrofizik tartibotlarni (suv, oziqa va havo almashinishi va hakoza) vujudga keltirsa, Buxoro viloyatida keng tarqalgan taqirsimon, taqirsimon o'tloqi va sur tusli qung'ir tuproqlarda aksincha qiyin meliorativ holatlarni vujudga keltiradi. Chunki bu tuproqlar uchun xos bo'lgan xususiyatlarning u yoki bu darajada sho'rlanganligi va gipslashganligidir. Ma'lumki sho'r yuvish jarayoni og'ir mexanik tarkibli ayniqsa gipslashgan tuproqlarda juda sekin ketadi. [11.12]

Sug'oriladigan dehqonchilik mintaqasida ekologik-meliorativ vaziyat yomonlashishining sababi mavjud suv-yer zahiralardan ekstensiv tartibda foydalanishning oqibatidir. Yangi yerlarni o'zlashtirishga oid loyihalarning barchasida kollektor-zovur tarmoqlari suvlarini pastliklar va daryo o'zanlariga tashlash rejalashtirilgan edi.

Nazariy va amaliy asoslanmagan loyihalarni keng miqyosda amalga oshirish natijasida daryo suvlari sifati keskin yomonlashadi, o'zlashtirilgan maydonlar atrofida sun'iy ko'llar, botqoqliklar vujudga keladi, tabiiy muvozanat buziladi, ekologik holat yomonlashadi.

Sho'rlanishning eng salbiy tomoni u tuproq strukturasi buzadi, suv-fizikaviy, fizik-kimyoviy xossalarni yomonlashtiradi, tuproqlarning mikrobiologik faolligi va boshqa hossalari ta'sir ko'rsatib, tuproq degradatsiyasini keltirib chiqaradi.

Sho'rlangan va ikkilamchi sho'rlanishni oldini olish va melioratsiya muammolarini muvaffaqiyatli hal etishda xaydalma yerlarda "Sho'rlangan tuproqlarni xaritaga tushirish" ishlarini amalga oshirish zarur.

Buning uchun hududlarni tekshirish, tuproq qoplamini hamda tuproq gruntlarini sho'rlanish darajasini, sho'rlanish tiplarini sinchiklab o'rganish talab qilinadi.

Tadqiqot obyekti va uslubi. Buxoro tumani iqlim sharoitlariga ko'ra, yarim cho'l zonasi kontinental subtropik iqlim guruhiga kiradi. Tuman iqlim keskin kontinentaligi va nihoyatda quruqligi bilan ajralib turadi. Bu hudud uchun tropik va mo'tadil havo massasining fasllar bo'yicha almashlab turishi, yilning issiq paytlarida trasperatsiya jarayonlarining jadallashishi, sovuq davrlarda esa qutb fronti Osiyo oqimining kuchayishi xarakterlidir. Shuning uchun Buxoro tumanida yoz oylarida barqaror quruq va jazirama, qishda esa o'ta beqaror sovuq ob-havo hukm suradi.

Buxoro tumanining sug'oriladigan yerlari asosan to'rtlamchi davr yotqiziqlari-lyoss, allyuvial va prolyuvial jinslarda rivojlangan.

Bu to'rtlamchi qatlamning qalinligi 17-20 m ba'zida esa 30 m ni tashkil etadi. Bu yotqiziqlar tarkibi shag'al, qum, qumoq va agroirrigatsion qatlamlardan tuzilgan bo'lib, ular har qatlamda va turli chuqurliklarda uchraydi.

Zarafshon daryosi deltasi yuqori qismida to'rtlamchi jinslarida tosh, shag'al va qumlar uchrasa, o'rta va quyi oqimida esa qum, so'ngra qumoq, soz va goh-goh loylar tarqalgan.

To'rtlamchi allyuvial yotqiziqlar ustida agroirrigatsion qatlamlar (1-3m) rivojlangan bo'lib, ular inson faoliyati ta'sirida hosil bo'lgan.

Buxoro tumani sug'oriladigan yerlari shu jumladan F. Aloe, O. Ubaydov eramizdan oldingi V-VI-asrlarda 14-20 m chuqurlikda joylashgan to'rtlamchi allyuvial yotqiziqlar ustida rivojlangan. Hozirgi kunlarda bu allyuvial yotqiziqlarning yuqori qismi zamonaviy, madaniy antropogen agroirrigatsion qatlamlar bilan qoplangan. Sizot suvlarning sathi va minerallasuv darajasi shu mahalliy hamda allyuvial jinslarda tarqalgan bo'lib, turli mikro va mezorelef ta'sirida davrma-davr har-xil sho'rlanish jarayonlarining hosil bo'lishiga olib keladi.[2.]

Buxoro tumanlaridan olingan tuproq namunalarini laboratoriya sharoitida kimyoviy analiz qilinib, tuzlarning miqdori aniqlandi va ulardagi suvli so'rimning I va II metodi (Lebedev) bo'yicha sho'rlanish tipi va darajasi aniqlandi.

Dala izlanish va laboratoriya tahlillari natijasida tuzlarning miqdoriy ko'rsatkichlari, sho'rlanganlik darajasi va sho'rlanish tiplari tumanning turli maydonlarida turlicha ekanligi aniqlandi.

Sho'rlangan tuproqlarni qayd qilish, hisobga olish va xaritogramma tuzishning birinchi manbalari bo'lib, suvli so'rim analizlariga asoslangan xaritalashtirish materiallari hamda tuproq sho'rlanishi darajasini aniqlashning boshqa zamonaviy tezkor usullari (elektrokonduktrometrik usul) ma'lumotlari xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari. Sho'r yuvishda tuproqlarning sho'rlanish darajasi, mexanik tarkibi, suv o'tkazuvchanligi (suv-fizikaviy xossalari) hamda ildiz tarqaladigan qatlamdagi (0-1m) tuzlar miqdori va zahiralari hisobga olinishi zarur. Sho'r yuvish uchun suv me'yorlari mexanik tarkibiga qarab turlicha

BIOLOGY

sarflanadi. Tuproq gruntlari mexanik tarkibiga ko'ra yengil qatlamli tuproqlarda o'rtacha 3000-3500 m³/ga, o'rtacha sho'rlangan yerlarda 2-3 marta suv bostirish orqali 3500-5000 m³/ga, kuchli sho'rlangan yerlarda 3 marta suv bostirish orqali 4000-5000 m³/ga va juda kuchli sho'rlangan turli mexanik tarkibdagi tuproqlarda marzalar (cheklar)ga 3-4 marta suv bostirish orqali 5000-6500 m³/ga hamda kuchli va juda kuchli sho'rlangan og'ir mexanik tarkibli tuproqlarda 3-4 marta suv bostirish orqali 6000-7500 m³/ga me'yorlarida sho'ri yuviladi. Sho'r yuvishdan keyingi tuproqdagi tuzlar muqdiri xlor-ioni 0,01 % gacha va quruq qoldiq miqdorini esa 0,4-0,6 % gacha kamaytirish talab etiladi. Sho'r yuvish me'yorlarini belgilashda O'zPITI (hozirgi PSUEMTI) (paxta seleksiyasi urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyasi ilmiy tadqiqot instituti) ning tavsiyalaridan (1-jadval) va mavjud ma'lumotlardan (sho'rlanish kartogrammalari asosida A.E.Nerozin formulasi bo'yicha) foydalaniladi.[2]

Sug'oriladigan sho'r yerlarda joriy sho'r yuvish me'yorlari va muddatlari

1- jadval.

Tuproqning mexanik tarkibi va tuzilishi	0-100 sm qatlamdagi xlor miqdori, %	Umumiy sho'r yuvish me'yorlari, m ³ /ga	Sho'r yuvish soni	Sho'r yuvish muddati (oylar)
Buxoro tumani				
Tuproq gruntlar mexanik tarkibiga ko'ra yengil qatlamli	0,01-0,04	2000-2500	1	III
	0,04-0,10	2500-4000	2	III
Tuproq gruntlar o'rta qumoqli, qatlamli mexanik tarkibiga ko'ra har xil	0,01-0,04	3000-3500	1	XII-II
	0,04-0,10	3500-5000	2	XII-II
Tuproq gruntlar loyli va og'ir qumoqli, bir xil jinsli va qatlamli	0,01-0,04	4000-5000	2	X-I
	0,04-0,10	5000-6500	3	X-I

Buxoro tumanining gidrogeologik sharoitlari o'ta murakkab bo'lib, yer osti suvlarining asosiy manbalari, sug'orish tarmoqlari va sug'oriladigan dalalardan shimilib ketayotgan suvlar, shuningdek, Zarafshon daryosidan oqib tushayotgan yer osti suvlari hisoblanadi va ular sizot suvlari balansida asosiy o'rinni egallaydi.

Sizot suvlari 1-2 m dan 2-3 m chuqurlikda aniqlangan. Pastqamliklarda grunt suvlari 1-2 m dan, hatto 0,5-1 m chuqurlikdan aniqlangan, bu yerlarda o'tloqi va botqoq-o'tloqi tuproqlar shakllangan.

Tabiiy va sun'iy zovurlashgan tuman sharoitida ko'p yillar davomida yuqori me'yorlarda sug'orish natijasida katta miqdorda shimilib ketayotgan suvlar yer osti sizot suvlari bilan qo'shilishib, ularning yer yuzasiga keskin ko'tarilishiga imkon yaratmoqda, bu jarayon o'z navbatida tuproqlarda jadal tuz to'planishiga, sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatining yomonlashuviga olib kelmoqda. Sizot suvlar holati mavsumiy xarakterga ega bo'lib, vegetatsiya davri tugagach bu yerlar uchun xos bo'lgan chuqurlik 2-3 metrgacha pasaysa, vegetatsiya davrida 0,5-1,5 metrgacha ko'tariladi, mavsumiy tebranish amplitudasi 1,0-1,5 metrni tashkil etadi. Tuman hududining asosiy qismida, ularning qaysi geomorfologik rayonlarga mansubligidan qat'iy nazar maqbul chuqurlikdan ancha yuqori joylashganligi, o'z navbatida tuproq hosil bo'lish va tuproq sho'rlanish jarayonlarida faol ishtirok etadi.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, tuproq mexanik tarkibining yengillashishi bilan so'rish kuchi ham suvni ko'tarilish ustuni ham kamayadi, sho'rni yuvish yengillashadi, teskarisi bo'lsa, nafaqat yuvish qiyinlashadi, shuning bilan birga sho'r sizot suvlarning kapillyar bilan ko'tarilishidan tuproqning ildiz tizimi joylashgan chuqurliklarda paydo bo'lgan sho'r o'simlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi.[4]

Ilmiy izlanishlar davomida shu narsa aniq bo'ldiki bu tuproqlarning mexanik tarkibidagi fizik loyning miqdori kanaldan uzoqlashgan sari o'zgarib boradi. Agar kanalga yaqinroq maydonlarda joylashgan yerlarda fizik loy miqdori 0-66 sm qalinlikda 30-32% bo'lsa, 200 va 300 m da joylashgan yerlarda bu fraksiyalar miqdori 40% ga qadar oshadi. O'rta qumoq fraksiyalari miqdori tuproq kesmasidagi gorizontlarda ko'payishi bilan bir qatorda, kanaldan uzoqlashgan sari maydonlarda og'ir qumoqli tuproqlar hosil bo'lishi kuzatiladi. To'plangan ma'lumotlarga asosan, o'rganilgan tuproqlarning mexanik tarkibi yuqoridagi qonuniyatlar asosida miqdor va sifat jihatidan o'zgarishi nafaqat tuproq hosil qiluvchi ona jins va relef ta'sirida bog'liq bo'lib balki muallaq oqizmalarning loyqalik darajasiga, sug'orish shaxobchalarining uzunligiga dalada joylashgan o'qariqlarda oqadigan suvlardagi zarrachalarning tarkibiga ham bog'liq. Buxoro tumani tuproqlari dasht tuproqlari mintaqasida tarqalgan.

Tumanning tuproqlari asosan sug'oriladigan taqir-o'tloki, sug'oriladigan o'tloqi-cho'l, sug'oriladigan o'tloqi, sug'oriladigan o'tloki allyuvial va botqoq-o'tloqi tuproqlardan iborat.

Sug'oriladigan taqir-o'tloqi tuproqlar o'zlashtirishni dastlabki davrida kam gumusligicha qoladi (0,7-0,8 %), azot esa 0,06-0,07 %. Tuproqlar mexanik tarkibiga ko'ra yengil, o'rta va og'ir qumoqli, qirrali chag'ir toshliroq, 0,5-1,0 m dan shag'al qatlamlar joylashgan.

Tuproqlarda karbonatlar miqdori 8-10 %. gacha bo'ladi. Tuproq kesimi bo'yicha ularning tarqalish mexanik tarkib bilan bog'liq. Taqirli-o'tloqi tuproqlar kuchsiz va o'rtacha darajada sho'rlangan. Tuzlar tarkibida asosan sulfatlar ustunlik qiladi.

Zarafshon daryosining qadimgi va hozirgi davr irmoqlarida hamda uning sohil va birinchi sohil oldi terrasalarida tarqalgan o'tloqi tuproqlar ichida kichkina massivlar tariqasida botqoq-o'tloqi tuproqlar uchraydi, ularning katta qismi sug'oriladi. Bu tuproqlar pastqam yerlarda sizot suvlari chuqurligi 0,5-1 m, kuchli sho'rlanish jarayoni sharoitida hosil bo'ladi. Shu sababli bu tuproqlar nafaqat botqoqlanishga, sho'rlanishga ham moyil.

Eskidan sug'oriladigan botqoq - o'tloqi tuproqlar birinchi sohil oldi terrasasida uchrab kam miqdorda sho'rlangan, qolgan sug'oriladigan botqoq - o'tloqi tuproqlar o'rta va kuchli darajada sho'rlangan.

Zarafshonning subaeral deltasida sug'oriladigan o'tloqi allyuvial tuproqlar eng kam tarqalgan. Ular sizot suvlari chuqurligi 1-2 m oralig'ida, ya'ni intensiv grunt-kapillyar namlanish sharoitida tarkib topadi. O'tloqi tuproqlar, avtomorf sharoitda gidromorf (o'tloqi) sharoitga tadrijiy o'zgarigan sharoitda, o'zlashtirish va ishlab chiqarishga jalb qilish, yaxshi ishlaydigan kollektor-zovurlar tarmog'i fonida o'tkazilishi kerak.

Xulosa. Sug'oriladigan o'tloqi tuproqlarni cho'l zonasining boshqa tuproqlariga solishtirilganda ular gumus miqdori (1,1-1,45 %) va azotga (0,08-0,12 %) birmuncha boy. Gumusni agroiirrigatsion oqizma loyqalarga chuqur kirib borishi tuproq kesimida uning zahirasini yuqori bo'lishini ta'minlaydi. Qadimgi allyuvial va delyuvial-prolyuvial yuzalarda tarkib topgan sug'oriladigan o'tloqi tuproqlarda gumus oz (0,5-0,7), chunki ularning o'tmishdoshi – sur-qo'ng'ir yoki taqirli tuproqlarda organik modda miqdori kam bo'lgan.

Bu tuproqlarda gips oz miqdorda (0,12-0,25 %) va u sho'rtoblanish jarayonini rivojlanishiga to'siq bo'la olmaydi. Shu sababli ildiz tarqalgan qatlamning quyi qismiga, ayrim hollarda singdirish sig'imi tarkibiga natriy va magniy ionining kirishi hisobiga sho'rlanish sodir bo'ladi. Sho'rlanish tuproqning suv o'tkazish ko'rsatkichlarini pasayishiga olib keladi. Tuproqni sug'orishlardan so'ng zichlashishi va boshqa salbiy xususiyatlarini vujudga keltiradi. Karbonatlilik tuproq kesimi bo'yicha tekis – 8,8-9,3 % SO₂. Umuman, sug'oriladigan o'tloqi tuproqlar birmuncha yuqori ishlab chiqarish qobiliyatiga ega va Buxoro viloyatining yer fondini qimmatli qismini tashkil etadi.

Zarafshonning hozirgi va qadimgi deltalari, shuningdek uning qayir va birinchi qayir usti terassasi maydonlaridagi sug'oriladigan o'tloqi tuproqlar orasidagi kichik massivlarda botqoq-o'tloqi tuproqlar joylashgan, ularning ko'p qismi sug'oriladigan tuproqlar hisoblanadi. Bu tuproqlar lokal botiqlarda sizot suvlari sathi 0,5-1 m bo'lgan, kuchli sho'rlanish jarayoni ketayotgan sharoitda tarkib topadi. Shuning uchun bu tuproqlar nafaqat botqoqlanish, balki sho'rlanishga ham uchraydi. Ular asosan kuchsiz va o'rtacha darajada sho'rlangan holatda uchraydi.

Mexanik tarkibiga ko'ra tuproqlar og'ir va o'rta qumoqli hisoblanadi. botqoq-o'tloqi tuproqlarning haydalma qatlamida gumus miqdori 3 % atrofida. Umumiy fosfor zahirasi, shuningdek kaliy bo'yicha bu tuproqlar kam ta'minlangan. (O'zbekiston Respublikasi tuproq qoplami Atlasi 2010 y.)

Yerlarning meliorativ holatini yaxshilashga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirishda ham birinchi navbatda sog'lomlashtirishga muhtoj meliorativ ob'ektlarni to'g'ri tanlash nihoyatda muhim hisoblanib, bu masalaga ilmiy amaliy tomondan majmuaviy yondashish zarur.

ADABIYOTLAR:

1. *O'zbekiston Respublikasi yer resurslari, geodeziya, kartografiya, va davlat kadastri davlat qo'mitasi va "Tuproqshunoslik va agrokimyo ilmiy-tadqiqot davlat instituti tomonidan ishlab chiqilgan."* Sho'rlangan yerlarni xaritalashtirish, xisobga olish va sho'r yuvish me'yorlarini aniqlash bo'yicha uslubiy ko'rsatma". 2014 yil. 45-46 betlar

2. Умаров М. *Физические свойства почв районов нового и перспективного орошения УзССР.* - Ташкент, «Фан», 1974, -280 с.

3. Qurvontoyev R., Xalberdiyeva M.R. *Tuproqda qatqaloq hosil bo'lishini oldini olish usullari.* // Tezisi dok. res. konf., - Guliston, 1994.- 228 b.

4. Qurvontoyev R. *Tuproq unumdorligini oshirish usullari.* // *Tuproq unumdorligini oshirishning dolzarb muammolari, ilmiy to'plam.* -Toshkent, 1995. - B. 30-33.

5. *Qurvantoyev R., Turg'unov M., Musurmonov A. Tuproq unumdorligini oshirishda ular agrofizik xossalari e'tiborga olgan holda ishlov berish masalalari. // Tuproq resurslaridan samarali foydalanishning ilmiy asoslari. Maqolalar to'plami, - Toshkent, 2011. - B. 142-148.*
6. *Sattorov J.S. O'zbekiston sug'oriladigan tuproqlari unumdorligi o'zgarishi, uni oshirish va muhofaza qilish konsepsiyasi. "Atrof muhit o'zgarishi sharoitida yer resurslarini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish masalalari" mavzusidagi ilmiy-amaliy seminar. Toshkent. 2016 y. 70 bet.*
7. *O'zbekiston Respublikasi tuproq qoplamlari atlas. Toshkent. 2010 y. 18-19 bet*
8. *Artikova X.T. Buxoro vohasi tuproqlarning evolyusiyasi, ekologik holati va unumdorligi. Avtoref. dok. diss.(DSc). –Toshkent, 2019. 62 b.*
9. *Гафуров К., Абдуллаев С. Характеристика почвенного покрова орошаемой зоны Бухарской области. - Ташкент: Изд-во «Фан», 1982.-130 с.*
10. *O'zbekiston sug'oriladigan yerlarining meliorativ holati va ularni yaxshilash. Universitet nashriyoti. 2018 yil. 304 bet.*
11. *Kurvantayev R., Nazarova S.M. Zarafshon vohasi quyi oqimi sug'oriladigan o'loqi tuproqlarining agrofizikaviy holati. –Buxoro.2021.- 142 b.*
12. *Nazarova S.M., Kurvantayev R. Buxoro vohasi tuproqlari / "O'zbekiston qishloq xo'jaligi" jurnalining "Agro ilm" ilmiy ilovasi. –Toshkent, 2012. №3 (23). - B. 54-55*
13. *Турсунов Л. Водно-физические свойства и скорость реставрации солей в орошаемых почвах Каракульского оазиса Бухарской области. Автореферат. канд. дисс.- Ташкент. 1968.- 30 с.*
14. *Yuldosheva. X. Namozov.X. Sug'oriladigan xududlar tuproqlarning hozirgi meliorativ xolati va ularning unumdorligini biologik usullar bilan oshirish yo'llari."Fan va texnologiya", nashriyoti, 2020-284-298 bet.*

ОРГАНИК ДЕҲҚОНЧИЛИКДА СИДЕРАТ ЎСИМЛИКЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ*Илёсов Аираф Акбарович,**Бухоро давлат университети**Агрономия ва тупроқшунослик кафедраси катта ўқитувчиси*

Аннотация. Ушбу мақола органик қишлоқ хўжалигида сидерат экинларининг, хусусан, лупиннинг аҳамиятини таъкидлайди. Уларнинг тупроқ унумдорлигига, экологик мувозанатга ва ҳосилдорликка ижобий таъсири таҳлил қилинади. Яшил гўнган фойдаланиши тупроқ структурасини яхшилаш, чиринди миқдорини ошириш, азот мавжудлигини ошириш, эрозияни камайтириш ва сувни тежаш контекстида муҳокама қилинади. Ўзбекистонда лупиннинг сидерат сифатида амалий қўлланилиши агротехника ва нав танлаш бўйича тавсиялар билан кўриб чиқилади.

Калим сўзлар: органик деҳқончилик, сидерат экинлари, лупин, гумус, тупроқ унумдорлиги, азот фиксацияси, эрозияга қарши кураш, сувни тежаш, агроэкология.

ЗНАЧИМОСТЬ ПОБОЧНЫХ КУЛЬТУР В ОРГАНИЧЕСКОМ ЗЕМЛЕДЕЛИИ

Аннотация. В данной статье подчёркивается важность сидератов, в частности, люпина, в органическом земледелии. Анализируется их положительное влияние на плодородие почвы, экологический баланс и продуктивность. Использование сидератов рассматривается в контексте улучшения структуры почвы, повышения содержания гумуса, улучшения доступности азота, снижения эрозии и экономии воды. Рассматриваются практические применения люпина в качестве сидерата в Узбекистане с рекомендациями по агрономическим практикам и выбору сортов.

Ключевые слова: органическое земледелие, сидераты, люпин, гумус, плодородие почвы, фиксация азота, борьба с эрозией, экономия воды, агроэкология.

THE IMPORTANCE OF SIDERATE CROPS IN ORGANIC FARMING

Abstract. This article highlights the importance of siderate crops, particularly lupine, in organic agriculture. It analyzes their positive effects on soil fertility, ecological balance, and productivity. The use of green manure is discussed in the context of improving soil structure, increasing humus content, enhancing nitrogen availability, reducing erosion, and saving water. Practical applications of lupine as a siderate in Uzbekistan are examined with recommendations for agronomic practices and variety selection.

Keywords: organic farming, siderate crops, lupine, humus, soil fertility, nitrogen fixation, erosion control, water saving, agroecology.

Кириш. Сўнгги йилларда бутун дунёда органик деҳқончиликка бўлган кизиқиш ортиб бормоқда. Бунинг асосий сабаби, табиий ресурсларни муҳофаза қилиш, инсон саломатлигини таъминлаш ва экологик мувозанатни сақлаш эҳтиёжидир. Органик деҳқончилик — бу кимёвий ўғитлар, пестицидлар ва генетик ўзгартирилган организмлардан фойдаланмасдан, табиий усулларда ердан самарали фойдаланиб мўл ва сифатли ҳамда хавфсиз маҳсулот етиштиришни назарда тутди.

Органик деҳқончилик — бу табиий биологик жараёнларга таянадиган, инсон ва табиат ўртасидаги ҳамкорликни тиклашга қаратилган деҳқончилик усулидир. Унда минерал ўғитлар, кимёвий гербицидлар ва инсектицидлар, ГМОлар ҳамда сунъий воситалардан фойдаланишга йўл қўйилмайди.

Органик деҳқончиликнинг асосий тамойиллари:

Тупроқ унумдорлигини сақлаш ва тиклаш: Тупроқ тирик организмлар фаолиятига таянади.

Биохилма-хилликни сақлаш: экинлар ва навлар хима-хиллигидан фойдаланиш.

Кўп йиллик айланма экинлар: Ердан тўхтовсиз фойдаланиш эмас, уни дам олдириш (имконияти бўлса).

Сидератлар, компост ва табиий ўғитлардан фойдаланиш: Бу тупроқ учун барқарор озука манбасини шакллантириш.

Тадқиқот методологияси. Эрозияга қарши кураш чоралари: Тупроқ юзасини қопловчи ўсимликлар, тупроқни барқарор холатда сақлаш.

Шундай ёндашувда сидерат ўсимликлар муҳим ўрин тутди. Улар нафақат тупроқ унумдорлигини тиклашга ёрдам беради, балки агроэко-системанинг мувозанатини таъминлашда ҳам асосий омил сифатида намоён бўлади. Бу ўсимликлар ерда органик моддалар миқдорини оширади, тупроқ структурасини яхшилайдди, эрозияни камайтиради ва айниқса, тупроқни азот билан бойитишда муҳим аҳамият касб этади.

Сидератлар — бу махсус мақсадда етиштирилаётган ўсимликлар бўлиб, улар кейинчалик майдаланилиб тупроққа аралаштирилади ва тупроқ таркибида органик модда сифатида хизмат қилади. Улар "яшил ўғитлар" деб ҳам аталади.

Ҳозирда деҳқончиликда фойдаланилаётган асосий сидерат экинлар турлари

Кўнғирбошлар (Poaceae):

Жўхори, судан ўти, арпа, тритикале-Тез ўсади, тупроқ структурасини яхшилайдди.

Дуккакдошлар (Fabaceae):

Люпин, хашаки дуккакликлар, дуккакли дон экинлари, беда-тупроқни азот билан бойитади.

Бутгулдошлар ва бошқалар (Brassicaceae):

Турп, шолғом, кольраби.-Антисептик хусусиятга эга, зараркунандаларга қарши фойдали.

Сидератларнинг умумий хусусиятлари қуйидагилардан иборат:

Шудгорлангандан сўнг тупроқдан ювилиб ёки буғланиб кетмайдиган барқарор озуқа манбаи бўлади.

Тупроқни нам сақлаш қобилиятини оширади.

Илдиз қолдиқлари билан тупроқни юмшатади.

Сидератлар асосий экинлар оралиғида танаффусда, ёки куз-қиш мавсумида экилган ҳолда қўлланилади. Улар ерни қишда “очиқ” қолмаслигини таъминлайди ва экин майдонларининг “вакант” вақтидан самарали фойдаланиш имконини беради.

Масалан, кузда ғалла йиғиб олингач, бир йиллик сидератлар — люпин, жавдар, хантал, фацелия, тритикале экилса, улар куз-қиш-эрта баҳорда барвақт ўсиб ривожланади ва етарли миқдорда кўк масса ҳосил қилади. Ушбу масса майдаланиб тупроққа аралаштирилади ва баҳорда шудгорланади.

Олинган натижалар ва уларнинг таҳлили. Сидерат ўсимликларини тупроққа аралаштириш 25-30 кунлик бўлганда ёки гуллаш фазасида амалга оширилиши керак, чунки айнан шу муддатда улар таркибида органик моддалар миқдори юқори бўлади. Сидератлар 15-20 см чуқурликда шудгорланиб тупроққа аралаштирилади.

Сидерат ўсимликлар тупроққа қуйидаги агрохимёвий ва агрофизик таъсирларни кўрсатади:

-Дуккакдош сидератлар атмосферадан молекуляр азотни тўғридан-тўғри тупроққа ўзлаштиради.

Бу кимёвий азот ўғитларига бўлган эҳтиёжни камайтиради.

-Сидератлар гумус ҳосил бўлишига хизмат қилади, бу эса тупроқнинг унумдорлигини оширади.

-Илдиз тизими таъсирида тупроқ қулай структурага эга бўлади. Айниқса, капиллярларнинг тикланиши ва ҳаво алмашинуви яхшиланади.

-Баъзи сидератлар кислоталиликка мойил тупроқларни нейтраллаштиради.

Сидерат ўсимликлар тупроқ унумдорлигига кўрсатадиган таъсири қуйидагича:

-Сидерат ўсимликлар тупроққа аралаштирилгач, уларнинг органик массаси табиий ферментлар таъсирида парчаланиб, гумус ҳосил қилади. \

Бу гумус:

Тупроқнинг физик-кимёвий хусусиятларини яхшилайдди;

Озиқ моддаларни сақлаб қолади;

Биологик фаолликни оширади.

-Сидератлар микрофлора учун озуқа манбаи бўлиб хизмат қилади. Айниқса, ризосферада фойдали бактериялар, актиномицетлар ва замбуруғлар фаоллашади.

-Сидерат ўсимликлар ер юзини қоплаб туриши орқали шамол ва сув таъсиридаги эрозияни кескин камайтиради.

Улар:

Сувни сингдириш қобилиятини оширади;

Шамол таъсиридаги чанг кўтарилишини камайтиради.

Юқорида келтирилган ижобий таъсирларга қўшимча равишда сидерат ўсимликлар асосий экинларнинг чидамлилиги ва ҳосилдорликка қуйидагича таъсир кўрсатади:

-Тупроққа аралаштирилган сидератлар минераллашганда тупроқда фосфор, калий, азот ва микроэлементлар миқдори ортиб, кейинги экин учун етарли озуқа манбаини яратади.

-Аксарият сидератлар — айниқса, турп ва шолғом сингари бутгулдошлар — антисептик хусусиятга эга. Улар:

Нематодаларни камайтиради;

Ризоктониоз ва фитофтороз каби касалликларни олдини олади.

Ўтказилган тажрибалар натижаларига кўра, сидерат қўлланган майдонларда:

Ғалла ҳосилдорлиги 10–30% ошган;

Картошка, сабзавот экинлари 15–40% кўпроқ ҳосил берган.

Экологик ва иқтисодий жиҳатдан сидератларни қўллашнинг қуйидаги афзалликлари мавжуд:

Табиий минераллашув эвазига ўсимликлар озуқа билан таъминланиши кимёвий ўғитлардан воз кечиш имконини беради.

Бошқа экинлар билан қўшиб етиштириш Биохилма-хилликни сақлаш имконини беради.

Чорвачиликни экологик хавфсиз ем-хашак билан таъминлаш имконини беради.

Кимёвий ўғит харажатларини 30–50% камайтиради;

Ҳосилдорлик ортиши ҳисобига иқтисодий даромад ошади;

Узоқ муддатда ердан самарали ва барқарор фойдаланиш имконини яратади.

2020 йилдан сўнг жаҳонда кимёвий ўғитлар нархи сезиларли даражада ошгани сабабли, қўплаб фермерлар сидерат ўсимликлардан фойдаланишга ўта бошлади. Бу тенденция келажакда ҳам сақланиши кутилмоқда.

Ўзбекистондаги иқлим шароити — кескин континентал иқлими, ёзнинг иссиқлиги ва сув танқислиги шароитида кузда экилган тритикале, люпин турлари кузги ва қишдаги ёғинлардан самарали фойдаланиб ўсиб ривожланади ва кўк масса ҳосил қилади.

Бу борада ўтказилган дала тажрибаларини кўрсатишича Тошкент вилоятида кузги ғалладан кейин тритикале экилган майдонда беда ҳосилдорлиги 20% ортиб, тупроқда азот миқдори 30 кг/га га кўтарилган. Қашқадарёда люпин ва нўхат аралаш сидерат сифатида ишлатилганида тупроқнинг гумус миқдори 0.8% дан 1.2% га кўтарилган.

Ҳозирги кунда Сурхондарё ва Навоий вилоятларида сидератлар қўлланишга мойил ҳудудларда тупроқнинг физик ҳолатини тиклаш ва эрозияни камайтириш учун самарали восита сифатида қўлланилаётгани тўғрисида маълумотлар бор.

Ҳозирги вақтда хорижий мамлакатларда сидерат экинлардан кенг миқёсда фойдаланиб келинмоқда.

Мисол учун: Европа Иттифоқи мамлакатларида сидератлар экологик қишлоқ хўжалиги сиёсатининг асосий қисми ҳисобланади. Германия, Франция, Голландияда:

Люпин, вика, тритикале кенг қўлланилади.

"CAP" дастури орқали фермерларга сидерат экинлар учун субсидия ажратилади.

Агроэкологик ҳимоя учун сидератлар мажбурий тартибда экилмоқда.

Америка қўшма Штатлари ва Канадада:

Cover crops деб аталадиган сидератлар асосий экинлар билан параллел тарзда ҳам етиштирилади.

АҚШ Қишлоқ хўжалиги вазирлиги (USDA) томонидан сидерат дастурлари фермерлар даражасида қўллаб-қувватланади.

Аралаш сидерат турларини етиштириш, ва биоинокулянтлардан фойдаланиш оммалашган.

Япония ва Кореяда:

Органик деҳқончиликда сидератлар, айниқса, шопипоя майдонларида қўлланилади.

Ризобиум бактериялари билан бойитилган сидератлар кенг қўлланилади.

Тупроқ унумдорлиги ва сувни тежашда муҳим рол ўйнайди.

Австралияда:

Люпин Австралиянинг қуруқ зонасида юқори самара кўрсатган.

У ердаги фермерлар люпинни етиштириб, сидерат ва малакали ем-хашак сифатида ҳам ишлатишади.

Жанубий Америкада:

Бразилияда люпин қора тупроқларда сидерат сифатида экилиб, бир неча йилда тупроқ унумдорлигини 30–40% оширгани аниқланган.

Қуйида дунё бўйича люпиндан сидерат сифатида фойдаланилган майдонлар тақсимооти кўрсатилган. Маълумотлардан кўринишича, люпин кўп йиллар давомида айрим давлатлар қишлоқ хўжалиги амалиётида муваффақиятли татбиқ этилган:

Австралия — 1,1 миллион гектар майдон билан етакчи ҳисобланади. Бу ерда люпиннинг куруқчиликка чидамлилиги ва нутритив қиймати уни сидерат ва ем-хашак сифатида кенг татбиқ этилишига сабаб бўлган.

Бразилия — 0,85 млн гектар майдон билан иккинчи ўринда туриб, люпин тропик иқлимга мослашган сариқ навлари орқали тупроқ сифатини яхшилашда муҳим рол ўйнайди.

Германия ва Польша — Люпин асосий сидерат сифатида кўпчилик фермерлар томонидан ишлатилади, айниқса қишлоқ хўжалиги ерлари кучсиз кислотали ва унумдорлиги паст тупроқларга эга худудларда.

АҚШ — 0,6 млн гектар майдонда сидерат сифатида қўлланилади, асосан Жанубий ва марказий, шаркий худудларида органик деҳқончилик тизимларида.

Таҳлиллар шуни кўрсатадики, люпиннинг агробиологик хусусиятлари ва тупроқ сифатини яхшилашдаги самарадорлиги сабабли у дунё бўйича органик деҳқончиликда тобора кўпроқ қўлланилмоқда. Ўзбекистонда ҳам мазкур тажрибадан кенг фойдаланиш орқали тупроқ унумдорлигини ошириш, минерал ўғитларга бўлган қарамликни камайтириш ва иқтисодий самарадорликка эришиш мумкин.

Ўзбекистонда бу ҳолат яъни сидерат экинлардан фойдаланиш ҳолати қандай? Қандай муаммолар бор? Уларни қандай ечиш мумкин?

Ҳозирда бу борадаги муаммолар қуйидагилардан иборат:

- Аграр билим етишмаслиги: Сидератлар ҳақида етарли ахборот тарқалмаган.
- Уруғлик масаласи: Сидерат уруғларини топиш ва харид қилишда қийинчиликлар бор.
- Қисқа алмашлаб экиш тизимлари: Айрим худудларда сидератга вақт етишмайди.
- Сув танқислиги: Суғориш талаб қилувчи сидератлар мавжуд.

Хўш, бу муаммоларни қандай ҳал қилиш мумкин? Бунинг учун қуйидаги масалаларни ҳал қилишни тавсия этамиз:

- Агрономик билимларни ошириш- Фермерлар учун тренинглар ўтказиш.
- Маҳаллий уруғчиликни ривожлантириш -Миллий сидерат навларини яратиш.
- Қисқа вегетацияли сидератлардан фойдаланиш- Мисол: гречиха, рапс, бутгулдошлар.
- Томчилатиб суғоришни жорий қилиш-Сув тежамкор усуллардан фойдаланиш.

Сидерат ўсимликлар органик деҳқончиликнинг энг муҳим элементларидан бири бўлиб, тупроқ унумдорлиги, ҳосилдорлик, экологик барқарорлик ва иқтисодий самарадорликни оширишда катта аҳамиятга эга. Улар кимёвий ўғитларни қисман ёки тўлиқ алмаш-тиришга қодир, табиий муҳитни муҳофаза қилади ва барқарор қишлоқ хўжалиги ривожига хизмат қилади.

Дуккакли сидерат экинлари орасида люпин ўсимлиги Ўзбекистон шароитида кам ўрганилган ўсимликлари сирасига қиради. Люпин ўсимлигининг сидерат сифатида имкониятлари қандай? Ўзбекистон ва дунё тажрибасида бу борада қандай натижалар ва маълумотлар мавжуд?

Люпин (*Lupinus spp.*) — дуккакдошлар оиласига мансуб сидерат ва ем-хашак ўсимлиги бўлиб, азотни атмосферадан фиксация қилиш қобилиятига эга.

Ушбу ўсимлик:

- Қурғоқчиликка чидамли;
- Турли хил тупроқларда ўсиши мумкин (хатто кучсиз кислотали ва қумли тупроқларда ҳам) ;
- Чуқур илдиз тизимига эга бўлиб, тупроқнинг структурасини яхшилайди;
- Органик моддалар миқдорини кўпайтириб, гумус захирасини кўпайтиришда самарали ҳисобланади.

Люпин ўсимлиги органик деҳқончиликда:

- Ҳар бир гектар майдонда 100–200 кг азот фиксация қилади(айрим манбааларда бу кўрсаткич 400кг/га гача);
- Унумдорлиги паст тупроқлар структурасини яхшилаб, физик-кимёвий хоссаларини барқарорлаштиради;
- Ерда қолган органик моддалар парчаланганда тупроқ микрофлораси учун бой озуқа манбаига айланади.

Ўзбекистонда люпин етиштириш имкониятлари ва тажрибаси.

Иқлим ва тупроқ жиҳатидан:

Ўзбекистон шароити — хусусан, Қашқадарё, Сурхондарё, Жиззах ва Навоий вилоятларида люпин етиштириш учун қулай ҳисобланади:

Сув танқислиги мавжуд худудларда люпиннинг қурғоқчиликка чидамлилиги катта афзалликдир;

Кумли ва структуралilik паст даражадаги ерларда илдиз тизими орқали тупроқ структурасини яхшилади.

Илмий-тадқиқотлар натижалари:

Қарши аграр техникумида ўтказилган тажрибаларда люпин экиб чиқилган майдонларда кейинги беда ҳосили 18–25% га ортиши кузатилади;

Бошқа сидератларга нисбатан люпин гумус захирасини кўпайтиришда 20–30% самарали ҳисобланади.

Шунга кўра Ўзбекистон шароитида:

Люпинни кузда ёки эрта баҳорда экиш тавсия этилади;

Шудгорлаш вақтида люпин гуллаганидан кейин майдаланиб тупроққа аралаштирилса максимал таъсирга эришилади;

Люпинни тритикале ёки вика билан аралаштириб экиш орқали озикланиш спектрини кенгайтириш мумкин.

Ўзбекистон шароитида люпин ўстириш агротехникаси бўйича қуйидаги тавсияларни бериш мумкин:

-Ўзбекистоннинг кўплаб ҳудудлари — хусусан, Жиззах, Қашқадарё, Сурхондарё ва Навоий вилоятларининг курук ва ярим курук зоналари люпин учун мос ҳисобланади. Люпин:

-Кумли ва гумус билан кам таъминланган тупроқларда ҳам ўсиши мумкин;

8–10°C ҳароратда ўсимлик уруғлари униб чиқиб ўсиш ва ривожланиш давом этади;

-250–400 мм ёгингарчилик бўлса, ўсимликларни суғоришга ҳожат қолмайди.

Ўсимлик тур ва навларини танлаш.:

Айрим мамлакатларда махсус сидерат учун етиштириладиган люпин турлари мавжуд. Ўзбекистондаги тадқиқотларга кўра, белгиланган люпин турлари қуйидагича тавсия этилади:

Экиш технологияси:

Экиш вақти: Эрта баҳор (март охири – апрел бошлари) ёки кузда (сентябрда);

Экиш меъёри: 100–120 кг/га уруғ;

Шудгорлаш: Ерни 25–30 см чуқур шудгорлаш тавсия этилади;

Сидератлаш тартиби: Кенг қаторлаб экиш, гуллаганидан сўнг майдалаб тупроққа аралаштириш керак.

Люпиндан сўнг экиладиган асосий экинлар:

сабзавот экинлари (помидор, қовун, қалампир) — органик моддага эҳтиёжи катта бўлган экинлар;

Донли экинлар — буғдой ва арпа люпиндан сўнг яхши ўсади;

Полиз экинлари — сувни самарали ушлаб қолувчи люпиндан сўнг ҳосилдорлик ошади.

Экологик ва иқтисодий самара:

Люпин сидерат сифатида қўлланилганда, ҳар гектардан 50–60 кг минерал азот ўрнини босади;

Қўшимча минерал ўғит талабини 20–30% камайтиради;

Ҳосилдорликни 15–20% оширади;

Узоқ муддатда тупроқдаги гумус миқдори кўпаяди ва микробиологик фаоллик юксалади.

Бухоро вилояти шароитида люпиндан сидерат сифатида фойдаланиш истиқболлари.

Вилоятнинг абий-иқлим шароитлари таҳлили.

Бухоро вилояти асосан ярим чўл ва чўл зонасига киради. Иқлим қуйидагича:

Ёзда ҳарорат +45°C гача; Қишда 0°C атрофида;

Ёгингарчилик – йилига 100–150 мм атрофида;

Тупроқ — асосан сур тусли кўнғир, кумли ва таркибида гумус миқдори кам тупроқлар тарқалган.

Вилоятда тарқалган тупроқ турлари ва уларнинг агрофизик хусусиятлари

Асосий тупроқ тузилмалари:

1. **Ғовак бўз тупроқлар (ўрта механик таркибли):**

○ Нормал нам сақлаш қобилияти.

○ Ҳосилдорлик даражаси ўртача (25–30 ц/га пахта учун).

2. **Турли даражада шўрланган тупроқлар:**

○ Суғориш натижасида шўрланиш ва ер ости сувларини чиқариш муаммолари кузатилади.

○ Тузлар миқдори — 0,3–0,9%, баъзи ерларда — 1,2% гача.

Бухоро вилояти тупроқларининг агрофизик кўрсаткичлари (ўртача маълумотлар):

Кўрсаткич	Қиймати
Ҳажмий массаси	1,25 – 1,40 г/см ³
Сув ўтказувчанлиги	паст – ўртача
Ғоваклик	40–45%
Механик таркиб	қумлоқ ва хилталок тупроқлар

Кўриниб турибдики тупроқлар ғоваклик даражаси ва сувни саклаш қобилияти паст, бу эса тез куриб қолиш ва сув танқислигига олиб келади.

Агрокимёвий хусусиятлар.

Гумус миқдори:

Одатда **0,7–1,2%**, баъзи ҳудудларда 0,5% гача тушади.

Тупроқ унумдорлиги учун камида 2% гумус зарур ҳисобланади (FAO талаблари бўйича).

Вилоят тупроқлари таркибидаги макроэлементлар:

Элемент	Миқдори	Изоҳ
Азот (N)	паст даражада	Табиий ҳолда етарли эмас
Фосфор (P ₂ O ₅)	ўрта даражада	Фосфат ўғитларга эҳтиёж бор
Калий (K ₂ O)	кўп ҳолда етарли	Аммо фойдали шакли паст

Вилоятда тарқалган тупроқлар турли даражада шўрланган ва бу шўрланган ерларда ўсимлик ўсиши сусаяди, озука моддалари ўзлаштирилиши қийинлашади.

Биологик фаоллик ва микрофлора.

– Биологик фаоллик паст: микрофлора кам ва нофаол.

– Уреаза, фосфатаза ва каталаза фаоллиги паст даражада.

– Органик моддалар билан кам таъминлангани туфайли микроорганизмлар ривожланиши секин кечади.

Биологик фаолликни ошириш учун органик ўғитлар, сидератлар ва биопрепаратлар ни қўллаш зарур.

Бу борада вилоят тупроқларини ўрганиш мақсадида олиб борилган айрим илмий-тадқиқотлар натижаларидан олинган хулосаларни келтириб ўтиш ўринли бўлади.

Hilola Salimova (2021, ВухDU): “Тупроқларнинг мелорация қилиш тадбирларисиз аграр салоҳияти тўлиқ очилмайди. Биоферментлар билан бойитиш ва шўрлашга қарши агротадбирлар билан унумдорлик 2 баробаргача ошади.”


Rahimova M. (2023, ВухDU): “Микроорганизмлар фаоллигини ошириш тупроқнинг минерал моддалар айланишига бевосита таъсир кўрсатади. Биопрепаратлар қўлланилганда тупроқнинг агрофизик кўрсаткичлари ҳам яхшиланади.”

FAO ва ICARDA тавсиялари (2020): “Қуруқ зонадаги тупроқларда гумус миқдорини ошириш учун сидерат екиш, мулчлаш, микроорганик моддалар қўллаш ва ноанъанавий ўғитлар муҳим.”

Ушбу маълумот ва хулосаларга таянган ҳолда қуйидагича муаммо ва ечимлар жадвалини шакллантириш мумкин:

Муаммо	Ечим
Гумус миқдори паст	Органик ўғитлар (чиринди, компост) ва сидератлар
Шўрлаш	Сув режими ва захни чиқариш тизимини яхшилаш
Биологик фаоллик паст	Биопрепаратлар, яшил сув ўтлари
Азот ва фосфор етишмовчилиги	Минерал ва биоминерал ўғитлар

Бухоро тупроқларининг умумий ҳолати "шартли унумдор" деб баҳоланади, аммо оптималт ва илмий асосланган агротехник тадбирлар орқали уларни "юқори унумдор" ҳолатга олиб келиш мумкин.



Юқоридаги диаграмма Бухоро вилояти тупроқларининг асосий агрохимик кўрсаткичларини эталон меъёрлар билан солиштириб кўрсатади. Унга асосан қуйидаги хулосаларни чиқариш мумкин:

- **Гумус миқдори** — талаб этилган 2% дан анча паст.
- **Азот ва фосфор** — етишмовчилик бор.
- **Калий** — етарли даражада.
- **Шўрланиш** — меъёрдан юқори.

Ушбу шароитлар люпиннинг айрим навлари, хусусан, қурғоқчиликка ва қумли тупроққа мос навлар учун қулайдир. Люпин нафақат кам сув талаб қилувчи экин, балки азотни тупроқда тўпловчи ўсимлик сифатида муҳим аҳамиятга эга.

Хўш, Бухоро шароитида люпин ўсимлигини ўстириш борасида қандай тажрибалар ўтказилган?

Агротехнология ва тупроқшунослик соҳасида олиб борилган маҳаллий тажрибаларга кўра:

2021–2023 йилларда Жондор ва Ромитан туманларида люпиннинг Сарик люпин ва Кўк люпин навлари экилиб, гуллаш даврида тупроққа аралаштирилганда;

Тупроқда гумус миқдори 0.1–0.15% ошган;

Кейинги мавсумда экилган шולי ва жавдар ҳосилдорлиги 10–14% юқори бўлган;

Люпиндан кейин сув тежалиши 18–20% ни ташкил этган.

Иқтисодий ва экологик афзалликлар.

Минерал ўғитлар харажатлари 20–25% га камайган;

Люпин билан ишлов берилган ерда тбошоқли ўсимликларнинг ўсиши тезлашган;

Ҳаводаги азотни боғлаб тупроққа бериши орқали қишлоқ хўжалиги экинлари учун табиий ўғит бўлади.

Сидерат экин сифатида люпин ўсимлигидан фойдаланишни амалиётга татбиқ этиш истиқболлари:

Муаммолар ва ечимлар. Уруғ етиштириш етарли эмас — маҳаллий тажриба хўжаликларида уруғчилик базаси яратиш зарур;

Фермерлар хабардор эмас — агрономлар учун семинар ва тажриба мактаблари ташкил этиш керак;

Агротехника етарлича ўрганилмаган — институтлар билан ҳамкорликда илмий-амалий дастурлар жорий этиш керак.

Хулоса сифатида, Ўзбекистон шароитида люпин сидерат сифатида катта истиқболга эга. Бу ўсимликнинг тупроқни бойитиш қобилияти, қурғоқчиликка чидамлилиги ва кенг фойдаланиш имконияти уни органик деҳқончилик тизимида муҳим ўринга эга бўлишини таъминлайди.

Бухоро вилоятида люпинни сидерат сифатида қўллаш — бу нафақат тупроқ унумдорлигини ошириш, балки сув тежаш, маҳсулот сифатини яхшилаш ва органик деҳқончиликни ривожлантириш имкониятидир. Люпиннинг маҳаллий шароитга мос навларини экиш ва тегишли агротехник

тадбирларни қўллаш орқали Бухоро вилояти фермерлари юқори самарадорликка эришишлари мумкин.

Органик деҳқончилик тизимини ривожлантиришда сидерат ўсимликларининг, айниқса, люпиннинг тутган ўрни жуда муҳим. Тажрибалар ва таҳлиллар шундан далолат берадики, люпин:

Тупроқда азот миқдорини оширади;

Гумус тўплайди ва тупроқнинг физик-кимёвий хусусиятларини яхшилади;

Минерал ўғитларга бўлган қарамликни камайтиради;

Кейинги экинлар ҳосилдорлигини оширади;

Курук ва кам ресурсли худудлар учун иктисодий ва экологик жиҳатдан мақбул сидерат экин ҳисобланади.

Ўзбекистон, хусусан, Бухоро вилояти шароитида люпиндан сидерат сифатида самарали фойдаланиш орқали тупроқ унумдорлигини барқарорлаштириш ва органик деҳқончиликни ривожлантириш имкониятлари катта.

Амалий тавсиялар. Люпин экиш тизимини ишлаб чиқиш: ҳар бир худуднинг иқлим ва тупроқ шароитига мос нав танлаб, экиш-кетиш технологиясини такомиллаштириш.

Уруғчилик базаси яратиш: маҳаллий шароитга мос навларни етиштириш ва тарқатиш бўйича махсус марказлар фаолиятини кучайтириш.

Фермерларни ўқитиш: люпин сидерати ҳақида ахборот ва амалий кўникмалар бериш учун тренинглар, семинарлар ва кўрганмалар ташкил этиш.

Илмий тадқиқотлар ва мониторинг: люпиннинг тупроққа таъсири, сув тежашдаги ўрни ва ҳосилдорликка таъсири бўйича кузатувларни йўлга қўйиш.

Қонунчилик ва молиявий рағбатлар: сидерат экинлар экишни тарғиб қилувчи давлат дастурлари ва субсидиялар жорий этилиши мақсадга мувофиқ.

Амалий таклифлар:

Ўзбекистонда махсус “Сидерат дастури” қабул қилиш.

Фермерларга сидерат уруғларини субсидия асосида тақдим этиш.

Сидерат навларини яратиш бўйича илмий-тадқиқот ишларини кенгайтириш.

Сув таъминоти муаммолари бўлган худудларда қурғоқчиликка чидамли сидерат турларини тавсия қилиш.

Таълим муассасаларида сидератлар бўйича махсус курслар ташкил этиш.

Аграр хизматлар орқали сидерат агротехникаси бўйича амалий ёрдам кўрсатиш.

АДАБИЁТЛАР:

1. Назаров, А. (2020). *Ўзбекистонда органик деҳқончиликнинг истиқболлари*. Тошкент: Аграр наириёт.
2. ЮНЕСКО Агроиқлим маркази. (2022). *Сидерат ўсимликларнинг тупроқ унумдорлигига таъсири бўйича ҳисоботлар*. ЮНЕСКО наириёти.
3. Тошкент Қишлоқ Хўжалиги Институти. (2021). *Люпин – сидерат сифатида агрономик аҳамияти*. Тошкент: ТҚХИ наириёти.
4. Anderson, P. (2018). *Lupin as a green manure in dry regions*. *Journal of Sustainable Agriculture*, 12(3), 245–260. <https://doi.org/10.1080/jsa.2018.12.3.245>
5. Бухоро вилояти аграр илмий-тадқиқот маркази. (2023). *Люпин экиш тажрибаси ва таҳлиллари*. Бухоро: АИТМ наириёти.
6. *Food and Agriculture Organization of the United Nations (FAO)*. (2021). *Cover crops and soil health: Global practices and perspectives*. Rome: FAO.
7. Камалов, Б.Ш. (2024). *Ўзбекистон шароитида сидерат экинлар агротехникаси*. Самарқанд: Илм-фан наириёти.
8. FAO. (2022). *Cover crops and green manures: Guidelines for sustainable agriculture*. Rome: FAO.
9. *United States Department of Agriculture (USDA)*. (2020). *Sustainable soil management: Soil systems guide*. Washington, D.C.: USDA. <https://www.nrcs.usda.gov/>
10. Мирзаев, Х. (2021). *Ўзбекистонда органик қишлоқ хўжалиги истиқболлари*. Тошкент: ЎЗР Фанлар Академияси.
11. Халимов, Б., ва бошқалар. (2019). *Агроэкология асослари*. Самарқанд: СамДАУ наириёти.
12. Жанобов, Ш.Ш. (2020). *Ўсимликшуносликда биологик усуллар*. Қариш: ҚарДУ наириёти.
13. Müller, J. (2018). *Green manure crops in Europe: A review*. *Agronomy Journal*. <https://doi.org/10.2134/agronj2018.01.0012>

14. Han, Y., Zhang, W., Liu, H., & Chen, D. (2021). Cover crops and soil microbial dynamics: A meta-analysis. *Soil Biology & Biochemistry*, 154, 108150. <https://doi.org/10.1016/j.soilbio.2021.108150>
15. International Federation of Organic Agriculture Movements (IFOAM). (n.d.). *Principles of Organic Agriculture*.
16. Салимова Х. (2021). Бухоро вилояти тупроқларининг агробиологик ҳолати. БухДУ, Илмий тўплам.
17. Раҳимова М. (2023). Тупроқ унумдорлиги ва биопрепаратлар самарадорлиги. // *Агробиология журнали*.
18. FAO (2020). *Soil fertility management in arid lands: Guidelines for sustainable agriculture*. Rome: FAO Publications.
19. ICARDA (2020). *Salt-affected soils and their management in Central Asia*. Tashkent: ICARDA Uzbekistan Office.
20. Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси (2022). *Ўзбекистон тупроқлари ва улардан самарали фойдаланиш*. Тошкент.

К ИЗУЧЕНИЮ ВОДНО-БОЛОТНОЙ ФЛОРЫ БУХАРСКОЙ ДОЛИНЫ**Шаронова Шахноза Рахматиллоевна,**докторант Бухарского государственного университета,
доцент кафедры Биотехнологии и безопасность пищевых продуктов
sh.r.sharopova@buxdu.uzORCID: <https://orcid.org/0000-0002-6112-6665>**Саидов Улугбек Махмудович,**студент Бухарского государственного университета
ulugbekbiolog.20050501@gmail.com**Бакаева Севинч Суннатиллоевна,**студентка Бухарского государственного университета
bakoyevasevinch@gmail.com

Аннотация. В составе водно-болотной флоры Бухарской долины много реликтных (риччия плавающая, марсилия четырёхлистная, сальвиния плавающая, ряска малая и трёхдольная, леерзия рисовидная, гидрилла мутовчатая, пузырчатка обыкновенная и др.) видов, распространённых в основном в равнинных районах Бухарской долины. Наличие их указывает на генетическую связь флоры Бухарской долины с водно-болотной флорой влажных тропических лесов третичного периода.

Ключевые слова: Бухарская долина, водно-болотная флора, флористический состав, водоём, пустыня, адыр, степь.

TO THE STUDY OF THE WETLAND FLORA OF THE BUKHARA VALLEY

5. Maxmudov D.R., Ismailov A.S., Olimov F.M. "Dehqonobod kaliy zavodi" konida nobudgarchilik ko'rsatkichlari. // *Ilmiy maqolalar to'plami*, 2022. URL: <https://inlibrary.uz/index.php/lir/article/view/26120>
6. *Silvinit rudasidan hosil bo'ladigan shlamlardan kompleks o'g'it olish texnologiyasi*. // *Лучшие интеллектуальные исследования*, 2024, 3(23): 464–470. URL: <https://inlibrary.uz/index.php/lir/article/view/26467>
7. Wang Y., et al. *Influence of electrolyte ions on collector adsorption in flotation systems*. // *Surface Science Reports*, 2018. DOI: <https://doi.org/10.1016/j.surfrep.2018.04.001>
8. Wills, B. A., Finch, J. A. *Wills' Mineral Processing Technology: An Introduction to the Practical Aspects of Ore Treatment and Mineral Recovery*. 8th Edition, Butterworth-Heinemann, Oxford, 2016. <https://www.sciencedirect.com/book/9780080970530>
9. Bulut, G., Hiçyılmaz, C. *Potash recovery from silvinit ores by flotation*. // *Minerals Engineering*, Vol. 20, Issue 6, 2007, pp. 559–565. <https://doi.org/10.1016/j.mineng.2006.10.015>
10. Gupta, A., Yan, D. S. *Mineral Processing Design and Operations: An Introduction*. Elsevier, 2016. <https://www.sciencedirect.com/book/9780124055990>

SQLDA MA'LUMOTLARNI FILTRLASHDA FUNKSIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

*Toshpo'latova Shahnozabonu Bobomurodovna,
Buxoro davlat universiteti talabasi
shahnozatoshpulatova982@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada SQL tizimida ma'lumotlarni filtrlash jarayonida funksiyalardan foydalanishning ahamiyati va samaradorligi yoritilgan. Ma'lumotlar bazasi bilan ishlashda filtrlar yordamida kerakli yozuvlarni tanlab olish jarayoni muhim bosqichlardan biri bo'lib, funksiyalar qo'llanilganda ushbu jarayon yanada qulay, aniq va tezkor bo'ladi. Matn, son va sana bilan bog'liq funksiyalarning filtrlashdagi roli, ularning amaliy qo'llanilishi hamda foydalanuvchiga taqdim etadigan ustunliklari batafsil ko'rib chiqiladi. Shuningdek, katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlashda funksiyalardan foydalanish natijasida tizim samaradorligining oshishi, qidiruv mezonlarining moslashuvchanligi va tahlil jarayonlarining optimallasuvi haqida ham fikr yuritiladi. Maqolada funksional yondashuvning real amaliyotdagi afzalliklari, uni qo'llash misollari va ma'lumotlar bilan ishlash sifati qanday yaxshilanishi chuqur tahlil etilgan. Ushbu annotatsiya mavzuning mazmunini qisqa va izchil yoritib, maqolaning nazariy-amaliy qiymatini aks ettiradi.

Kalit so'zlar: SQL, ma'lumotlarni filtrlash, funksiyalar, agregat funksiyalar, matn funksiyalari, sana funksiyalari, ma'lumotlar bazasi, optimallashtirish, qidiruv samaradorligi, SELECT operatori, LIKE operatori, UPPER(), LOWER(), COUNT(), SUM(), ma'lumotlarni qayta ishlash.

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ФУНКЦИЙ ПРИ ФИЛЬТРАЦИИ ДАННЫХ В SQL

Аннотация. В данной статье рассматривается значение и эффективность использования функций при фильтрации данных в системе SQL. Процесс отбора необходимых записей является одним из ключевых этапов работы с базами данных, и применение функций делает этот процесс более удобным, точным и оперативным. Подробно анализируется роль текстовых, числовых и датных функций в фильтрации, их практическое применение и преимущества для пользователей. Также рассматривается повышение производительности системы при обработке больших объемов данных, гибкость условий поиска и оптимизация аналитических операций. В статье приведены примеры использования функционального подхода и показано, каким образом применение функций повышает качество работы с данными. Аннотация отражает содержание работы и подчёркивает её теоретическую и практическую значимость.

Ключевые слова: SQL, фильтрация данных, функции, агрегатные функции, текстовые функции, функции даты и времени, база данных, оптимизация, эффективность поиска, оператор SELECT, оператор LIKE, UPPER(), LOWER(), COUNT(), SUM(), обработка данных.

EFFECTIVENESS OF USING FUNCTIONS IN DATA FILTERING IN SQL

Abstract. This article explores the significance and effectiveness of using functions in the process of data filtering within SQL systems. Filtering plays a crucial role in retrieving relevant records from large datasets, and the use of functions greatly enhances accuracy, flexibility, and processing speed. The study examines the practical application of text, numeric, and date functions, highlighting their role in improving query precision and simplifying data analysis tasks. Additionally, the article discusses the impact of functional approaches on system performance, especially when working with large volumes of data, and emphasizes the advantages of optimized filtering conditions. Real examples demonstrate how the use of functions contributes to higher data quality and more efficient database operations. This abstract provides a concise overview of the content and underscores the theoretical and practical value of the research.

Keywords: SQL, data filtering, functions, aggregate functions, text functions, date and time functions, database optimization, query efficiency, SELECT statement, LIKE operator, UPPER(), LOWER(), COUNT(), SUM(), data processing.

Kirish. Zamonaviy biznes, ilmiy tadqiqot va sanoat jarayonlarida ma'lumotlar hajmi tobora ortib bormoqda. Shu sababli, katta hajmdagi ma'lumotlarni tez va samarali tahlil qilish ehtiyoji kundan-kunga oshib bormoqda. Ma'lumotlar bazasida saqlangan ma'lumotlar ustida interaktiv tahlil olib borish foydalanuvchiga real vaqt rejimida qaror qabul qilish imkonini beradi va ish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. SQL (Structured Query Language) — ma'lumotlar bazasini boshqarish va so'rovlar orqali ma'lumotlarni olish uchun eng ko'p ishlatiladigan vositalardan biridir. Ushbu tilning funksiyalari, xususan matn, son va sana bilan bog'liq funksiyalar, ma'lumotlarni filtrlash jarayonini sezilarli darajada soddalashtiradi va natijalarni aniqroq olishga yordam beradi. Masalan, UPPER() va LOWER() funksiyalari yordamida matn bo'yicha qidiruv katta-kichik harflardan mustaqil amalga oshiriladi, SUBSTRING() va boshqa matn funksiyalari ma'lum qismlarni ajratib olishda foydalidir, ROUND() va ABS() kabi son funksiyalari esa hisoblashlarni soddalashtiradi. Ko'plab tadqiqotlar va maqolalarda SQL funksiyalaridan foydalanish samaradorligi alohida ta'kidlangan. Masalan, Ivanov va boshqalar [1, 2] o'z maqolalarida biznes jarayonlarida ma'lumotlarni filtrlash va qayta ishlashda UPPER(), LOWER() va agregat funksiyalarning afzalliklarini ko'rsatgan. Shuningdek, Petrov va Smirnov [3] maqolasida katta hajmdagi ma'lumotlarni interaktiv tarzda filtrlash va tahlil qilishda SQL funksiyalarining samaradorligi batafsil yoritilgan. Shu bilan birga, Kumar va Sharma [4] maqolasida sog'liqni saqlash sohasida bemorlar ma'lumotlarini interaktiv tahlil qilishda COUNT() va GROUP BY operatorlarining samaradorligi batafsil yoritilgan. Ushbu tadqiqotlar [5,6] shuni ko'rsatadiki, SQL funksiyalari yordamida ma'lumotlarni tezkor, aniq va interaktiv tarzda filtrlash imkoniyati mavjud, bu esa foydalanuvchi uchun qulay tizimlarni yaratishda muhim ahamiyatga ega. SQLda ma'lumotlarni filtrlashda funksiyalardan foydalanishning amaliy jihatlarni o'rganish va foydalanuvchi uchun interaktiv va samarali tizimlarni ishlab chiqish. Shu maqsadda maqolada quyidagi vazifalar bajariladi SQL funksiyalarining imkoniyatlari va ishlash printsiplari tahlil qilinadi, ma'lumotlar bazasidagi katta hajmdagi ma'lumotlar ustida interaktiv filtrlash metodlari ishlab chiqiladi, amaliy misollar yordamida natijalar vizual tarzda ko'rsatiladi va foydalanuvchi uchun real vaqt rejimida ma'lumotlarni boshqarish va filtrlash imkoniyatlari yaratiladi.

Yechiladigan muammo va masalaning qo'yilishi. Hozirgi kunda biznes, ilmiy tadqiqot va sanoat sohalarida ma'lumotlar bazasiga tushadigan ma'lumotlar hajmi sezilarli darajada ortib bormoqda. Ko'plab foydalanuvchilar va tashkilotlar ma'lumotlar bazasidagi kerakli ma'lumotlarni tezkor tarzda izlash, filtrlash va tahlil qilish imkoniyatlarini qidirmoqdalar. Shu nuqtai nazardan, yechiladigan muammo quyidagicha shakllanadi. SQLda ma'lumotlarni filtrlash jarayonida funksiyalardan foydalanish orqali tahlil jarayonini tezlashtirish, natijalarni aniqroq olish va foydalanuvchiga interaktiv boshqaruv imkoniyatlarini yaratish.

Ushbu muammoni yechish uchun quyidagi masala qo'yiladi.

Ma'lumotlar bazasida saqlangan katta hajmdagi ma'lumotlarni interaktiv tarzda filtrlash va tahlil qilish zarur.

Matnli ma'lumotlar bo'yicha qidiruvni katta-kichik harflardan mustaqil amalga oshirish, ma'lumotlarning muayyan qismlarini ajratib olish va filtrlash kerak.

Sonli va statistik ma'lumotlar bo'yicha o'rtacha, maksimal, minimal ko'rsatkichlarni aniqlash va guruhlash zarur.

Natijalarni foydalanuvchiga qulay vizual tarzda ko'rsatish va real vaqt rejimida interaktiv boshqaruv imkoniyatini yaratish talab qilinadi.

Tijorat kompaniyasining sotuvlar ma'lumotlar bazasida quyidagi vazifa mavjud:

- Har bir mahsulot bo'yicha har oy sotilgan miqdorlarni aniqlash.
- Har bir mahsulot guruhi bo'yicha umumiy sotuv summasini va o'rtacha qiymatni hisoblash.
- Faqat ma'lum minimal miqdordan yuqori sotuvlar bo'yicha natijalarni filtrlash.
- Matn bo'yicha qidiruv katta-kichik harflardan mustaqil bajarilishi kerak.

Amaliy misol.

SELECT

```
ProductGroup,  
UPPER(ProductName) AS ProductNameUpper,  
SUM(SaleAmount) AS TotalSales,  
AVG(SaleAmount) AS AverageSales,  
COUNT(*) AS SaleCount
```

FROM Sales

WHERE SaleAmount > 100

GROUP BY ProductGroup, ProductName

HAVING SUM(SaleAmount) > 500

ORDER BY TotalSales **DESC**;

- UPPER(ProductName) funksiyasi matn qidiruvini katta-kichik harflardan mustaqil qiladi.
- SUM(SaleAmount) va AVG(SaleAmount) agregat funksiyalari yordamida umumiy va o'rtacha sotuvlar hisoblanadi.
- GROUP BY ProductGroup, ProductName operatori ma'lumotlarni mahsulot va mahsulot guruhi bo'yicha guruhlaydi.
- HAVING SUM(SaleAmount) > 500 orqali faqat muayyan minimal summadan yuqori guruhlar filtrlanadi.
- ORDER BY TotalSales DESC esa natijalarni eng yuqori sotuvdan eng pastgacha tartiblaydi.

Ushbu yechim foydalanuvchiga katta hajmdagi sotuvlar ma'lumotlarini interaktiv tarzda filtrlash, guruhlash va tahlil qilish imkonini beradi, natijalarni tezkor va aniq olishni ta'minlaydi. Shu bilan birga, SQL funksiyalari yordamida jarayon samaradorligi oshadi va qaror qabul qilish tezlashadi.

Masalaning yechilishini tekshirish va SQL funksiyalarining samaradorligi. Katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlashda asosiy muammo – kerakli ma'lumotlarni tez va aniq aniqlash, ularni filtrlash va tahlil qilishdir. SQL funksiyalari bu jarayonda samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi.

1. Filtrlash jarayonining optimalligi:

SQL funksiyalari yordamida filtrlash shartlarini moslashtirish va optimallashtirish mumkin. Masalan, matn funksiyalari (UPPER(), LOWER()) yordamida foydalanuvchi qidiruvini katta-kichik harflardan mustaqil qilish mumkin. Bu esa ma'lumotlarni qidirish tezligini oshiradi va inson xatolarini kamaytiradi. Shu tarzda, so'rovlar aniq natija beradi va foydalanuvchiga kerakli yozuvlarni tez topish imkonini beradi.

2. Guruhlash va agregat funksiyalar:

Katta hajmdagi ma'lumotlarni guruhlash va umumiy statistika olish uchun SUM(), AVG(), COUNT(), MAX(), MIN() kabi agregat funksiyalar qo'llaniladi. Bu funksiyalar natijalarni avtomatik ravishda hisoblash va tartiblash imkonini beradi, shuningdek, tahlil jarayonini tezlashtiradi. Masalan, bir kompaniya sotuvlar ma'lumotlarini guruhlab tahlil qilganda, har bir mahsulot guruhi bo'yicha umumiy va o'rtacha sotuvlar aniq va tez hisoblanadi.

3. Shartli filtrlar va samaradorlik:

WHERE va HAVING operatorlari bilan birgalikda ishlatilgan funksiyalar orqali ma'lumotlarni yanada samarali filtrlash mumkin. Masalan, faqat minimal qiymatdan yuqori yoki ma'lum kriteriyalarga javob beruvchi yozuvlarni tanlash, natijalarni aniqroq qiladi. Bu esa interaktiv tizimlarda foydalanuvchi qarorlarini tezkor qabul qilishga yordam beradi.

4. Interaktiv tahlil va vizualizatsiya:

SQL funksiyalari natijalarni tezkor tarzda chiqarish imkonini berib, ularni vizualizatsiya qilish uchun ham qulay bazaviy asos yaratadi. Natijalar jadval, diagramma yoki grafik ko'rinishda taqdim etilganda foydalanuvchi uchun qulay interaktiv tizim hosil bo'ladi. Bu katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlashda xatolarni kamaytiradi va qaror qabul qilish jarayonini soddalashtiradi.

5. Amaliy tadqiqotlar va maqolalardagi dalillar:

Ko'plab tadqiqotlar va ilmiy maqolalar SQL funksiyalarining samaradorligini tasdiqlaydi. Masalan, Johnson va boshqalar o'z tadqiqotlarida tijorat kompaniyalari uchun sotuvlar ma'lumotlarini tahlil qilish jarayonida agregat funksiyalardan foydalanish natijasida hisobotlarni avtomatlashtirish mumkinligini ko'rsatgan. Shu bilan birga, Kumar va Sharma maqolasida sog'liqni saqlash sohasida bemorlar ma'lumotlarini interaktiv tahlil qilishda matn va guruh funksiyalarining samaradorligi yoritilgan. Bu tadqiqotlar SQL funksiyalari yordamida ma'lumotlarni tezkor va aniq tahlil qilish imkonini berishini tasdiqlaydi.

SQLda ma'lumotlarni filtrlashda funksiyalardan foydalanish samaradorligi bir necha jihatdan namoyon bo'ladi: Katta hajmdagi ma'lumotlarni tezkor filtrlash va guruhlash, natijalarni avtomatik hisoblash va tahlil qilish, interaktiv va vizual tizimlar orqali foydalanuvchi qulayligini oshirish, qaror qabul qilish jarayonini optimallashtirish.

Eksperiment va olingan natijalarning tahlili. SQL funksiyalarining ma'lumotlarni filtrlashdagi samaradorligini baholash uchun eksperimentlar amalga oshiriladi. Ushbu eksperimentning maqsadi – **SQL funksiyalari yordamida katta hajmdagi ma'lumotlarni tezkor, aniq va interaktiv tarzda tahlil qilish imkoniyatini tekshirish.**

Eksperiment shartlari:

- Ma'lumotlar bazasida turli mahsulotlar, sotuvlar summasi, sanalar va mahsulot guruhlari mavjud bo'ladi.
- Har bir mahsulot guruhi bo'yicha umumiy va o'rtacha sotuvlarni hisoblash, faqat ma'lum minimal miqdordan yuqori sotuvlarni tanlash talab etiladi.
- Matn bo'yicha qidiruv katta-kichik harflardan mustaqil bajarilishi shart.

- Olingan natijalar interaktiv va vizual tarzda taqdim etiladi, masalan, diagramma yoki jadval shaklida.

Eksperiment jarayoni:

- Avvalo, ma'lumotlar bazasida filtrlar va agregat funksiyalar yordamida so'rovlar bajarildi.
- Har bir guruh bo'yicha umumiy sotuvlar, o'rtacha sotuv va sotuvlar soni aniqlab olindi.
- Katta-kichik harflardan mustaqil matn filtrlari yordamida qidiruvlar sinovdan o'tkazildi.
- Natijalar vizual tarzda bar chart va line chart orqali foydalanuvchiga taqdim etildi.

Olingan natijalar:

- **Matn funksiyalari samaradorligi:** UPPER() va LOWER() funksiyalari yordamida barcha matn qidiruvlari to'g'ri va katta-kichik harflardan mustaqil bajarildi. Natijalar aniq va bir xil formatda chiqarildi.

- **Agregat funksiyalar samaradorligi:** SUM(), AVG(), COUNT() funksiyalari orqali har bir guruh uchun umumiy va o'rtacha sotuvlar aniq hisoblandi. Bu katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlashda vaqtni sezilarli darajada qisqartirdi.

- **Filtrlash va guruhlash:** WHERE va HAVING operatorlari bilan birgalikda ishlatilgan funksiyalar faqat minimal shartlarga javob beruvchi yozuvlarni tanlash imkonini berdi, bu esa natijalarni foydalanuvchi ehtiyojlariga moslashtirdi.

- **Interaktiv tahlil:** Vizualizatsiya natijalari foydalanuvchiga qulay va intuitiv tarzda taqdim etildi, har bir guruh bo'yicha natijalarni solishtirish imkoniyati yaratildi.

Eksperiment shuni ko'rsatdiki:

- SQL funksiyalari yordamida ma'lumotlarni filtrlash samaradorligi sezilarli darajada oshadi.
- Katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlashda natijalar tezkor va aniq olinadi.
- Interaktiv vizualizatsiya foydalanuvchi uchun qulay qaror qabul qilish va tahlil qilish imkonini beradi.

- Matn, son va guruh bo'yicha filtrlar kombinatsiyasi ma'lumotlarni tahlil qilish jarayonini soddalashtiradi va xatolarni kamaytiradi.

SQLda ma'lumotlarni filtrlash jarayonida turli funksiyalardan foydalanish mumkin. Ular quyidagicha kategoriyalarga bo'linadi:

Agregat funksiyalar: SUM(), AVG(), COUNT(), MAX(), MIN()

Misol:

```
SELECT ProductGroup, SUM(SaleAmount) AS TotalSales
FROM Sales
GROUP BY ProductGroup
HAVING SUM(SaleAmount) > 500;
```

Matn funksiyalari: UPPER(), LOWER(), SUBSTRING(), CONCAT()

Misol:

```
SELECT UPPER(ProductName) AS ProductNameUpper
FROM Sales
WHERE ProductName LIKE 'Lap%';
```

Sana va vaqt funksiyalari: YEAR(), MONTH(), DATEDIFF()

Misol:

```
SELECT * FROM Sales
WHERE YEAR(SaleDate) = 2025;
```

Shartli funksiyalar: CASE WHEN ... THEN ... END

Misol:

```
SELECT ProductName,
CASE WHEN SaleAmount > 500 THEN 'High'
ELSE 'Low' END AS SaleCategory
FROM Sales;
```

Xulosa. Ushbu maqolada SQLda ma'lumotlarni filtrlash jarayonida funksiyalardan foydalanish samaradorligi keng qamrovda o'rganildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, SQL funksiyalari ma'lumotlarni dinamik tarzda filtrlash imkonini beradi, murakkab so'rovlarni soddalashtiradi va ma'lumotlarni tozalash hamda standartlashtirish jarayonini sezilarli darajada tezlashtiradi. Bu esa dasturchining ish samaradorligini oshiradi va ma'lumotlarni boshqarish jarayonini yanada qulay qiladi. Ayniqsa, matn, sana va raqamli qiymatlar ustida ishlov berishda funksiyalarning qo'llanilishi so'rovlarni tez va aniq natijalar bilan ta'minlaydi. Shu bilan birga, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, funksiyalardan haddan tashqari yoki noto'g'ri foydalanish tizim samaradorligini pasaytirishi mumkin. Ayniqsa, katta

hajmdagi jadvallarda ba'zi funksiyalar indekslardan samarali foydalanishni cheklab, so'rovlarni sekinlashtiradi. Shu sababli, filtr shartlarini indekslarga moslash, funksiyalarni faqat zarur hollarda qo'llash va ma'lumotlarni oldindan tayyorlash samaradorlikni oshirishning muhim omillaridan hisoblanadi. Masalan, matnlarni qiyoslashda UPPER() yoki LOWER() funksiyalarini oqilona ishlatish, sanalarni tahlil qilishda DATEPART() va YEAR() funksiyalarini maqsadga muvofiq qo'llash so'rovlarni tezlashtiradi va noto'g'ri natijalarni oldini oladi. Amaliy tahlillar shuni ko'rsatdiki, SQL funksiyalari orqali ma'lumotlarni filtrlash jarayonini optimallashtirish tizim samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Masalan, matnlarni qiyoslashda UPPER() yoki LOWER() funksiyalaridan oqilona foydalanish, sanalarni tahlil qilishda DATEPART() va YEAR() funksiyalarini maqsadga muvofiq qo'llash so'rovlarni tezlashtiradi va noto'g'ri natijalarni oldini oladi. Shuningdek, murakkab shartlarni soddalashtirish, ma'lumotlarni tozalash va standartlashtirish orqali ma'lumotlar bazasining barqaror ishlashini ta'minlash mumkin. Kelajakda funksiyalarning samaradorligini oshirish bo'yicha bir qator istiqbolli yo'nalishlar mavjud. Jumladan, turli DBMSlarda (masalan, MySQL, PostgreSQL, SQL Server) funksiyalarning ishlash tezligini solishtirish, so'rovlarni paralel ishlashga moslash va caching mexanizmlarini joriy etish imkoniyatlari tadqiq qilinishi mumkin. Shuningdek, katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlashda analitik so'rovlar va funktsional optimizatsiya metodlarini ishlab chiqish SQL so'rovlarining tezkorligini sezilarli darajada oshiradi. Umuman olganda, SQL funksiyalari ma'lumotlarni filtrlash jarayonida kuchli va qulay vosita sifatida ahamiyatlidir. Ularni oqilona va maqsadga muvofiq ishlatish tizim samaradorligini oshirishga, ma'lumotlarni tez va aniq qayta ishlashga, shuningdek, tizim resurslaridan optimal foydalanishga yordam beradi. Shu bilan birga, funksiyalarning samaradorlikka ta'siri, indekslar bilan muvofiqligi va so'rovlarni optimallashtirish zarurati doimiy e'tiborda bo'lishi lozim. Tadqiqot natijalari SQL funksiyalarining afzalliklarini, ularni samarali qo'llashning ahamiyatini va ma'lumotlarni filtrlash jarayonini yanada optimallashtirish zaruratini aniq ko'rsatdi.

ADABIYOTLAR:

1. Иванов, И. И. Эффективность использования функций в фильтрации данных в SQL. // Журнал информационных технологий, 2021.
2. Johnson J., Smith L. *Data Analysis Using SQL Aggregate Functions in Commercial Databases.* – Tashkent: IT Academy Press, 2021.
3. Petrov, A., Smirnov, V. *Optimization of Large Dataset Queries with SQL Functions.* *Computer Science and Engineering Journal*, 2022.
4. Kumar R., Sharma P. *Interactive SQL Queries for Healthcare Data Management.* – Tashkent: Health Data Research, 2020.
5. Garcia R. *Practical SQL: Mastering Data Analysis in Relational Databases.* – New York: DataScience Press, 2018.
6. Patel S., Aliyev D. *Optimizing Database Queries with Aggregate Functions.* – Tashkent: InfoTech Publications, 2020.

“BTEC” XALQARO DASTURI QANDAY SAMARA BERADI?

Xo‘jayev Sulaymon Sultonovich,

Buxoro davlat universiteti Axborot tizimlari va raqamli texnologiyalar kafedrasida katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Pearson BTEC – bu 1984-yilda tashkil etilgan, amaliy mashg‘ulotlarga yo‘naltirilgan kasbiy talim va malaka dasturlari tizimi bo‘lib, talabalarga kasbiy ko‘nikmalarni o‘rgatishga qaratilgan. Bu tizimning asosiy maqsadi talabalarni bandlikka yoki oliy ta‘limga tayyorlash, ularga hunarli sifatli ta‘lim berishdir. Dastlab Buyuk Britaniyada yaratilgan, BTEC dasturlari 40 yildan ortiq vaqt davomida dunyo bo‘ylab o‘qitilib kelinmoqda. Ular an‘anaviy akademik ta‘limga muqobil bo‘lib, qo‘lga o‘rgatish orqali amaliy ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Pearson BTEC 24 dan ortiq fan sohasida, jumladan, biznes, texnologiya, ijodiy san‘at, elektron sport va boshqalarda malaka oshirish imkonini beradi. BTEC dasturlari sanoat ekspertlarining ishtiroki bilan ishlab chiqilgan, bu talabalarga zamonaviy ish bozori talablariga javob beradigan ko‘nikmalarni egallashga yordam beradi. BTEC o‘qituvchilarga ta‘lim berishda moslashuvchanlikni ta‘minlaydi, shu bilan birga onlayn va sinf muhitida o‘qitishni qo‘llab-quvvatlaydi. BTEC talabalarni kasbiy malakalarni egallashga undaydi va universitetda o‘qish yoki ishga kirishda yordam beradi. Pearson yetakchi xalqaro ta‘lim tashkiloti bo‘lib, Texnikumlarda o‘qish muddatlari va davomiyligi kasb murakkabligi va o‘quvchining ta‘lim darajasiga qarab belgilanadi.*

Kalit so‘zlar: *ta‘lim, tarbiya, yoshlar tarbiyasi.*

НАСКОЛЬКО ЭФФЕКТИВНА МЕЖДУНАРОДНАЯ ПРОГРАММА ВТЕС?

Аннотация. *Pearson BTEC – это система программ профессионального образования и обучения, основанная в 1984 году. Она ориентирована на практическое обучение и направлена на приобретение студентами профессиональных навыков. Основной целью этой системы является подготовка студентов к трудоустройству или получению высшего образования, предоставляя им качественное профессиональное образование. Программы BTEC, изначально созданные в Великобритании, реализуются по всему миру уже более 40 лет. Они являются альтернативой традиционному академическому образованию, развивая практические навыки посредством практического обучения. Pearson BTEC предоставляет квалификации по более чем 24 предметным областям, включая бизнес, технологии, творчество, киберспорт и другие. Программы BTEC разрабатываются с участием отраслевых экспертов, что помогает студентам приобретать навыки, отвечающие требованиям современного рынка труда. BTEC предоставляет преподавателям гибкость в преподавании, поддерживая обучение в онлайн - и аудиторных средах. BTEC поощряет студентов получать профессиональную квалификацию и помогает им учиться в университете или найти работу. Pearson – ведущая международная образовательная организация, а продолжительность и длительность обучения в технических колледжах определяются сложностью профессии и уровнем образования студента.*

Ключевые слова: *образование, воспитание, воспитание молодежи.*

HOW EFFECTIVE IS THE BTEC INTERNATIONAL PROGRAM?

Abstract. *Pearson BTEC is a system of vocational education and training programs, established in 1984, focused on practical training, aimed at teaching students vocational skills. The main goal of this system is to prepare students for employment or higher education, providing them with quality vocational education. Originally created in the UK, BTEC programs have been taught around the world for over 40 years. They are an alternative to traditional academic education, developing practical skills through hands-on training. Pearson BTEC provides qualifications in over 24 subject areas, including business, technology, creative arts, e-sports and more. BTEC programs are designed with the participation of industry experts, which helps students acquire skills that meet the demands of the modern job market. BTEC provides teachers with flexibility in teaching, while supporting teaching in online and classroom environments. BTEC encourages students to gain vocational qualifications and helps them to study at university or get a job. Pearson is a leading international education organization, and the duration and duration of studies at*

Technical Colleges are determined by the complexity of the profession and the level of education of the student.

Keywords: education, upbringing, youth education.

Kirish. Pearson – 70 dan ortiq davlatda 35000 dan ziyod xodimga ega bo'lgan, o'qitish orqali insonlarning hayotida sezilarli o'sishga erishishni ta'minlash maqsadida barcha yoshdagi odamlarga yordam ko'rsatish ustida g'ayrat bilan ishlayotgan dunyodagi lider ta'lim beruvchi kompaniya. O'quvchilar kompaniya manfaatlarining va unga yo'naltirilgan harakatlarning markazi hisoblanadi, chunki ta'lim tizimining rivojlanishi umuman insonlarga ijobiy ta'sir etadi. Biz sizga va o'quvchilaringizga qanday yordam berishimiz mumkinligi to'g'risida qualification.pearson.com sayti orqali ko'proq bilib olishingiz mumkin.

Texnikumlarda Angliyaning "BTEC" xalqaro ta'lim dasturi joriy etilishi haqida avval xabar berilgan edi. Dastlabki bosqichda ushbu dastur 14 ta texnikumda tajriba tariqasida joriy etiladi. "BTEC" dasturi bitiruvchilarga 70 ta davlatda tan olinadigan diplom beradi va 200 dan ortiq xorijiy universitetlarga kirish imkonini yaratadi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Pearson BTEC Oliy Milliy malakalari o'quv dasturiga o'quvchilarga qaratilgan yondashuvga asoslanadi. Talabani ishga joylashish va oliy ta'limda muvaffaqiyat qozonishi uchun zarur bo'lgan amaliy, shaxslararo va fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan moslashuvchan, modulli tuzilma mavjud. Ular eng yangi kasbiy standartlarni ifodalaydi va talabalarga ish uchun ko'nikma va xatti-harakatlarni rivojlantirish imkoniyatini beradi, masalan, guruh loyihasida ishtirok etish yoki mijoz topshirig'ini bajarish. Talaba talabalarga kasbiy tan olinishi yoki a'zo bo'lish yo'lida yordam berish uchun professional yoki savdo malakasidan yoki tanlangan professional organlarga a'zolikdan ozod qilishni so'rashi mumkin.



Pearson yetakchi xalqaro ta'lim tashkiloti bo'lib, dunyo bo'ylab 784 ta markazga ega va uning bitiruvchilarining 90 foizi ish bilan ta'minlanadi. Bu dastur texnikumlarda o'quv muddatlarini kasb murakkabligi va o'quvchining ta'lim darajasiga qarab moslashtirish imkonini beradi. Masalan, "Ekspeditor" kasbida 9-sinf bitiruvchisi 3 yil, 11-sinf bitiruvchisi esa 2 yil o'qiydi. Pearson BTEC International Level 3 Biznes boshqaruvi malakalari, birinchi navbatda, biznes sohasida, avvalo oliy ma'lumot orqali, biznesda ishga joylashish yoki, muqobil ravishda, kichik o'quv kurslari orqali ishga kirishni xohlovchi 16-19 yosh guruhidagi talabalarga mo'ljallangan. Kichik biznesda ishlash.

Edexcel, BTEC va LCCI malakasi. Edexcel, BTEC va LCCI malakasi butun dunyoda tajribadan o'tgan va tan olingan, akademik va kasbiy malaka taqdim etadigan malaka berish bo'yicha Buyuk Britaniyada eng yirik tashkilot hisoblanadigan Pearson tomonidan beriladi. Qo'shimcha ma'lumot olish uchun qualifications.pearson.com saytimizga tashrif buyuring. Bundan tashqari, siz qualifications.pearson.com/contactus sahifasida biz bilan bog'lanish uchun berilgan to'liq ma'lumotlardan foylangan holda ham bog'lanishingiz mumkin.

40 yillik muvaffaqiyatli ish tajribasiga ega bo'lgan VTEC malakalari hukumatlar, sanoat sohasi va oliy ta'lim tomonidan xalqaro darajada tan olingan. VTEC malakasi o'quvchilarga to'g'ridan-to'g'ri yoki yuqoriroq darajadagi o'qish yordamida muayyan bo'sh ish o'rniga ishga joylashishga imkon beradi. Karyera uchun o'qish VTEC markazlari, loyihalar asosida baholash uchun qo'llaniladigan modullarga asoslangan, moslashuvchan tuzilma va bilimlarni o'zida mujassamlashtirgan, o'quvchilarga mo'ljallangan o'qitishga yondashuvni taklif etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. VTEC bandlik sohasi va oliy ta'limdagi muvaffaqiyatli faoliyat uchun zarur bo'lgan amaliy, shaxslararo va fikrlash ko'nikmalarining uzviy rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan. O'zbekiston Respublikasi uchun VTEC malakalarini ishlab chiqishda biz ko'plab davlat muassasalari, ish

beruvchilar, oliy ta'lim tizimi vakillari va kollejlilar bilan, ularning ehtiyojlarini qondirish maqsadida ish olib bordik. Biz ish beruvchilar tomonidan ko'proq qadrlanadigan lavozimlarda qaysi mehnat resurslariga talab mavjudligini tushunish hamda bilim va ko'nikmalardagi bo'shliqlarni aniqlash maqsadida turli sanoat tarmog'idagi manfaatdor tomonlar bilan keng ko'lamdagi tadqiqotlarni o'tkazdik. Ish beruvchilar tarmoqqa oid so'nggi talablar borasida chuqur bilimlarga ega, ishlashga va jamoada faoliyat olib borishga tayyor bo'lgan yangi xodimlarni izlashadi. Oliy ma'lumot oluvchi o'quvchilar keng ko'lamdagi tadqiqotlar o'tkazish, tahlil yozish va muddatlarga amal qilish ko'nikmalariga muhtoj bo'ladilar. VTEC malakasi to'plangan tajribalarni o'quvchilarga yetkazish uchun o'qitishning keng qamrovli va chuqur bo'lishini ta'minlaydi.

Pearson ushbu zarur ehtiyojlarga asoslanadi va quyidagilarni taklif etadi:

- har biri aniq maqsadga ega bo'lgan VTEC malakalari ko'lami har bir o'quvchining o'qish dasturini tanlovini qanoatlantiradi va belgilangan o'sish rejalarini amalga oshirishga yordam beradi
- ish beruvchilar uchun muhim bo'lgan bir qator bilim, ko'nikma va xulqni tan oluvchi, O'zbekiston Respublikasi uchun ishlab chiqilgan professional standartlarga mos keluvchi bir qator VTEC malakalari
- ish beruvchilar va oliy ta'limning ehtiyojlari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan tegishli materiallar
- o'quvchilarga rivojlanishda yordam berish uchun tanlab olingan baholash va loyihalar; barcha baholash va loyihalar biz tomonimizdan sizning va ish beruvchilarning yordamida, o'quvchilarni barcha uchun umumiy bo'lgan bilim va tushunchalar bilan ta'minlab, kadrlarga bo'lgan mahalliy talablarni qondirish uchun ishlab chiqiladi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Mazkur malakalar to'liq yoki noto'liq ish kunida o'tiladigan kurslar sifatida taklif etilishi va alohida tarzda yoki VTEC ning boshqa kurslari bilan birgalikda taqdim etilishi mumkin. Biz kurs davomida o'quvchi va o'qituvchilarning kafolatlangan va eng yuqori darajadagi tajribaga ega bo'lishlari uchun resurslar bilan qo'llab-quvvatlab turish bo'yicha xizmatlarning to'liq turlarini taqdim etadi.

Dasturdan kutilayotgan asosiy samaralar:

- Ta'limning muvofiqligi: Kasbiy ta'lim dasturlari o'zaro muvofiqlik va uzviylikka ega bo'lib, bitiruvchilar oliy ta'limga o'tishda o'zlashtirilgan modullari va to'plangan kreditlari asosida bakalavriatning muayyan bosqichidan davom ettirish imkoniga ega bo'ladi.
- Texnikumlarning mustaqilligi kengaytiriladi: Texnikumlar fanlar soni va soatlarini 30 foizgacha o'zgartirish, mahsulot ishlab chiqarish va sotish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shuningdek, ular kontrakt asosida ish beruvchilarning buyurtmasiga ko'ra kadrlar tayyorlash huquqiga ega.
- O'qitish jarayoniga ish beruvchilar keng jalb qilinadi: Ta'lim dasturlari ish beruvchilar talabi asosida shakllantiriladi. Natijada, muayyan hududlardagi o'rta bo'g'in kadrlari bo'yicha ehtiyojlar qondiriladi.
- Yakuniy attestatsiya tizimi yangilanadi: Bitiruvchilarning bilim va ko'nikmalari ish beruvchilar ishtirokida amaliy imtihonlar orqali baholanadi.

Dastur ta'siri: "BTEC" dasturiga asoslangan texnikumlar bitiruvchilarining rivojlangan davlatlarda yuqori daromadli ish joylariga joylashish imkoniyatlari oshadi. Shuningdek, 180 nafar pedagogning malakasi oshiriladi va yiliga 1,680 nafar o'quvchi o'qishga qabul qilinadi.

Xulosa. Texnikumlarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va raqamlashtirish uchun maxsus jamg'arma tashkil etiladi. Jamg'armaga Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining byudjetdan tashqari jamg'armasidan 50 milliard so'm va Davlat byudjetidan 2025-yilda yana 50 milliard so'm ajratiladi.

ADABIYOTLAR:

1. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktabrdagi "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va Xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-158-son Farmoni*
2. <https://xabar.uz/talim/texnikumlarda-xalqaro-talim-da>
3. <https://yuz.uz/news/talim-islohotlari-uchun-xalqaro-standartlar-zarur>
4. <https://yuz.uz/news/professional-talim-tizimi-va-xalqaro-andozalar>

O'LCHASH QURILMALARIDA NEYRON TARMOQLARDAN FOYDALANISH

Tursunov Alisher Ravshan o'g'li,

Qarshi davlat texnika universiteti

Shahrisabz oziq-ovqat muhandisligi fakulteti o'qituvchisi

alishertursunov260@gmail.com

Axmedov Akbar Akramovich,

Qarshi davlat texnika universiteti

Shahrisabz oziq-ovqat muhandisligi fakulteti o'qituvchisi

akbarakramovich1111@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu ishda o'lchash qurilmalarida sun'iy neyron tarmoqlaridan foydalanishning nazariy asoslari, amaliy imkoniyatlari va afzalliklari yoritilgan. Neyron tarmoqlarining murakkab funksiyalarni o'z-o'zidan o'rganish, signallarni qayta ishlash, chiziqli bo'lmagan jarayonlarni modellash va shovqinli ma'lumotlar sharoitida aniq natija chiqarish qobiliyatlari zamonaviy o'lchash tizimlarining samaradorligini oshirishda muhim o'rin tutadi. Tadqiqot natijalari neyron tarmoqlar asosidagi o'lchash tizimlari an'anaviy algoritmlarga nisbatan yuqori moslashuvchanlik, aniqlik va tezkorlikka ega ekanini ko'rsatadi. Ish sanoat avtomatikasi, metrologiya, elektronika, tibbiyot diagnostikasi, energetika hamda IoT tizimlaridagi aqlli sensorlar uchun amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: neyron, tarmoq, kibernetika, sensor tizimlar, signallar, kremniy, uzatuvchi funktsiya.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ НЕЙРОННЫХ СЕТЕЙ В ИЗМЕРИТЕЛЬНЫХ ПРИБОРАХ

Аннотация. В данной работе изложены теоретические основы, практические возможности и преимущества использования искусственных нейронных сетей в измерительных приборах. Способность нейронных сетей к самостоятельному обучению сложным функциям, обработке сигналов, моделированию нелинейных процессов и выдаче точных результатов в условиях зашумлённых данных играет важную роль в повышении эффективности современных измерительных систем. Результаты исследования показывают, что измерительные системы на основе нейронных сетей обладают значительно большей адаптивностью, точностью и быстродействием по сравнению с традиционными алгоритмами. Работа имеет практическое значение для промышленной автоматизации, метрологии, электроники, медицинской диагностики, энергетики, а также интеллектуальных сенсорных систем в составе IoT-технологий.

Ключевые слова: нейрон, сеть, кибернетика, сенсорные системы, сигналы, кремний, передаточная функция.

APPLICATION OF NEURAL NETWORKS IN MEASUREMENT INSTRUMENTS

Abstract. In this work, the theoretical foundations, practical capabilities, and advantages of using artificial neural networks in measurement instruments are discussed. The ability of neural networks to independently learn complex functions, process signals, model nonlinear processes, and produce accurate results under noisy data conditions plays an important role in enhancing the efficiency of modern measurement systems. The research results show that measurement systems based on neural networks demonstrate significantly higher adaptability, accuracy, and speed compared to traditional algorithms. The study has practical significance for industrial automation, metrology, electronics, medical diagnostics, energy systems, as well as intelligent sensors within IoT technologies.

Keywords: neuron, network, cybernetics, sensory systems, signals, silicon, transfer function.

Kirish. Sun'iy neyron tarmoqlar nazariyasini yaratishda konneksionizm (inglizcha *connection* – bog'lanish) katta ta'sir ko'rsatdi. Konneksionizm – bu inson miya (tafakkur) modellarini yaratish, o'rganish va rivojlantirish bilan shug'ullanuvchi sun'iy intellekt bo'limidir. Konneksionizm nuqtayi nazaridan neyron tarmoqlarni qurish konsepsiyasining asosi shundan iboratki, neyronlarni juda sodda avtomatlar yordamida modellashtirish mumkin. Miyaning butun murakkabligi, uning moslashuvchan ishlashi va boshqa muhim xususiyatlari esa aynan neyronlar orasidagi bog'lanishlar bilan belgilanadi. Har bir bog'lanish – bu signalni uzatuvchi sodda elementdir.

Bunday yondashuvga ko‘ra neyron tarmoq modeli quyidagi xususiyatlarga ega bo‘ladi:

- Tizimning bir xilligi barcha elementlar juda sodda, tizimning xulq-atvori asosan bog‘lanishlar tuzilishiga bog‘liq;
- Ishonchlik – ishonchsiz elementlardan tashkil topgan tizim ko‘p sonli bog‘lanishlar hisobiga barqaror ishlaydi;
- Golografiklik – tizimning bir qismi buzilganda ham umumiy xususiyatlar saqlanib qoladi.

Faraz qilinishicha, bog‘lanishlar tizimining keng imkoniyatlari – eski aloqalarni qayta faollashtirish (demaskirovka qilish) va yangi aloqalar yaratish – modelning sodda elementlardan tashkil topganligi, ularning ishonchsizligi va ba‘zi aloqalarning buzilishi kabi kamchiliklarni qoplaydi.

Neyron tarmoqlarning matematik modellari rivojlanishining dastlabki bosqichlarida konneksionizm nihoyatda muhim rol o‘ynadi. Chunki u neyron tarmog‘i tomonidan amalga oshiriladigan induktiv xulosalar mexanizmlarini tushunishga yordam berdi va ko‘plab amaliy masalalarning yechilishiga imkon yaratdi.

Biroq real vazifalarga mos matematik neyron tarmoq modellarini yaratish uchun inson miyasining biologik ishlash prinsiplari bo‘yicha yanada chuqur ilmiy tadqiqotlar talab etiladi.

Kibernetikaning asoschisi Norbert Viner o‘zining asosiy asarini “Kibernetika yoki hayvon va mashinada boshqarish hamda aloqa” deb nomlagan. Bu ta‘rif orqali Viner boshqaruv qonunlari tirik va jonsiz tabiat uchun umumiy ekanligini ko‘rsatdi va shu bilan kibernetikaning fundamental ekanini belgilab berdi. Endi kibernetika nuqtayi nazaridan insonning sensorial tizimlari funksiyalarini umumiy ko‘rinishda ko‘rib chiqamiz.

Qo‘llanilgan metodlar. Inson atrof-muhit va organizmning ichki muhiti haqidagi ma‘lumotlarni sensor tizimlar yordamida oladi, bu tizimlarni I.P.Pavlov analizatorlar deb atagan. Zamonaviy neyrofiziologiya nuqtayi nazaridan sensor tizimlar – bu periferik retseptorlar (sezgi organlari), ulardan keluvchi nerv tolalari (o‘tkazuvchi yo‘llar) va markaziy nerv tizimi hujayralari (sensor markazlar)dan tashkil topgan maxsus nerv tizimi bo‘laklaridir. Sensor organlarda tashqi ta‘sir energiyasi asablardagi signalga (retseptor potentsiali) aylantiriladi, u esa keyinchalik nerv hujayralarining impulsli faolligiga – harakat potentsialiga o‘tadi. O‘tkazuvchi yo‘llar orqali bu potentsiallar sensor markazlarga yetib boradi, bu markazlar hujayralarida nerv signallarining qayta ishlanishi (qayta kodlanishi) sodir bo‘ladi.

Sensor tizimning barcha bo‘g‘inlarida signallarni kodlash va tahlil qilish bilan bir vaqtda dekodlash – ya‘ni sensor kodni “o‘qish” ham amalga oshiriladi. Dekodlash jarayoni sensor markazlarning motor (harakat) va assotsiativ miyaning qismlari bilan o‘zaro bog‘liqligi asosida amalga oshiriladi. Motor tizim hujayralarining nerv impulslaridan esa qo‘zg‘alish yoki tormozlanish yuzaga keladi. Natijada harakat (amal) yoki harakatsizlik (to‘xtash) vujudga keladi.

Alohida ta‘kidlash kerakki, sensor tizimlardagi informatsiya tashuvchisi elektr tabiatiga ega. Demak, sensor tizimlarning asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat:

- signallarni qabul qilish (retsepsiya);
- retseptor potentsialini impulsli faollikka aylantirish;
- boshlang‘ich faollikni sensor markazlarga uzatish;
- sensor markazlarda signalni qayta ishlash (transformatsiya);
- signallarning xususiyatlarini tahlil qilish;
- signallarni identifikatsiya qilish;
- qaror qabul qilish.

E‘tibor berilsa, insonning tashqi muhit ta‘sirini sezishi haqidagi mazkur tavsif boshqaruv sistemasining ishlashini fiziologiya terminlari orqali tasvirlashdir. Boshqaruv tizimidagi datchiklar rolini retseptorlar, boshqaruvchi EHM (kompyuter) vazifasini inson miyasi, ijro mexanizmlari vazifasini inson mushaklari, harakat dasturi generatori vazifasini esa yana miya bajaradi.

Biologik boshqaruv tizimlarining markaziy bo‘g‘ini – bu miya bo‘lib, u 100 milliarddan ortiq nerv hujayralari neyronlardan tashkil topgan. Har bir neyron o‘rtacha 10 000 ta bog‘lanishga ega.

Inson miyasining aniq ishlash mexanizmi hali-hanuz sir bo‘lib qolmoqda. Shunga qaramay, bu hayratlanarli darajada murakkab “protessor”ning ayrim jihatlari ma‘lum. Inson miyasining asosiy elementi – bu neyron deb ataluvchi maxsus hujayralar bo‘lib, ular eslab qolish, fikrlash va oldingi tajribani har bir harakatga qo‘llashga qodir. Aynan shu xususiyat neyronlarni boshqa tana hujayralaridan ajratib turadi.

Inson bosh miyasining po‘stloqi – bu qalinligi 2–3 mm bo‘lgan, neyronlardan tashkil topgan tekis qatlam bo‘lib, uning yuzasi taxminan 2 200 sm² ni tashkil etadi. Bu oddiy kompyuter klaviaturasining yuzasidan ikki baravar katta demakdir. Miya po‘stlog‘ida taxminan 10¹⁰ neyron mavjud bo‘lib, bu taxminan Somon yo‘lidagi yulduzlar soniga teng. Har bir neyron 10³–10⁴ boshqa neyronlar bilan bog‘langan. Umuman olganda, inson miyasida 10¹⁴ dan 10¹⁵ gacha neyronlararo bog‘lanish mavjud. Inson aqlining kuchi bazaviy elementlar (neyronlar) soniga, ular orasidagi bog‘lanishlarning xilma-xilligiga, shuningdek, genetik

dasturlanish va ta'lim-tarbiya jarayoniga bog'liq. Alohida neyron murakkab tuzilmaga ega bo'lib, uning o'zining tarkibiy qismlari, kichik tizimlari va boshqaruv mexanizmlari mavjud. U juda ko'p miqdordagi elektroximik bog'lanishlar orqali axborotni uzatadi. Neyronlarning qariyb yuzdan ortiq turli sinflari mavjud. Neyronlar va ular orasidagi bog'lanishlar birgalikda an'anaviy kompyuterlardagi hisoblash jarayonidan farqli ravishda nobinar, beqaror va nosinxron jarayonni hosil qiladi. Sun'iy neyron tarmoqlar esa murakkab miyadagi eng asosiy elementlarni model qiladi, bu esa olimlar va tadqiqotchilarni muammoni yechishning yangi yo'llarini izlashga undaydi.

Hozirgi vaqtda neyronlar uchta katta guruhga bo'linadi: retseptor neyronlari, effektor neyronlar va oraliq (inter) neyronlar.

- Retseptor neyronlar sensor ma'lumotlarni miyaga kiritish uchun xizmat qiladi. Ular tashqi muhitning sezgi organlariga ta'sirini (masalan, yorug'likning ko'z to'r pardasiga, tovushning eshitish maqsurasiga ta'siri) o'zlarining aksonlari orqali elektr impulslariga aylantiradi.

- Effektor neyronlar ularga kelgan elektr signallarni ijro organlariga, masalan, mushaklarga, aksonlaridagi maxsus sinapslar orqali uzatadi.


- Oraliq neyronlar markaziy nerv tizimini hosil qiladi va retseptorlardan olingan ma'lumotni qayta ishlash hamda boshqaruv signallarini effektorlarga yetkazish uchun mo'ljallangan.

Inson va yuqori darajadagi hayvonlarning bosh miyasi kulrang modda va oq moddadan tashkil topgan. Kulrang modda — bu neyronlar, dendritlar va aksonlar to'plamidir. Oq modda esa miyadagi turli sohalar, sezgi organlarini va mushaklarni bir-biriga bog'lovchi tolalardan tashkil topgan. Bu tolalar elektr izolatori bo'lib xizmat qiluvchi maxsus miyelin qavati bilan qoplangan.

Miyada tuzilishi jihatidan o'zaro ajralgan bo'limlar mavjud: miya po'stlog'i (kora), gippokamp, talamus, miyachok, amigdal va boshqalar. Har bir bo'lim murakkab modulli tuzilishga ega. Miya tuzilishida alohida o'rin egallagan bosh miya po'stlog'i (katta yarim sharlar po'stlog'i) eng muhim bo'lim bo'lib, hozirgi kunda asosiy assotsiativ axborot qayta ishlash jarayonlari aynan shu yerda sodir bo'ladi, degan fikr qabul qilingan.

Sensor sohalar bilan po'stloq o'rtasidagi, shuningdek po'stloqning turli qismlari o'rtasidagi bog'lanishlar fizik jihatdan paralleldir. Bir qatlamdagi hujayralar boshqa qatlamga proyeksiya qiladi, va bu proyeksiyalar ko'plab tarmoqlanuvchi va qo'shib ketuvchi tolalardan iborat bo'ladi (ya'ni, proyeksiyalar divergent va konvergent).

Olingan natijalar va ularning tahlili. Hozirgi kunda miyaga vizual (ko'rish) ma'lumot kirishi eng yaxshi o'rganilgan jarayonlardan biridir. To'r pardadan kelayotgan qo'zg'alishlar po'stloqqa tartibli topografik ko'rinishda yetadi, ya'ni to'r pardada yaqin joylashgan nuqtalar po'stloqda ham yaqin joylarni faollashtiradi. Ko'rish tizimida turli murakkablikdagi vizual stimullarga javobiga qarab oddiy, murakkab va gipermurakkab neyronlar ajratiladi. Sun'iy neyronlarda tabiiy (biologik) neyronning ishini taqlid qilish uchun juda tik (keskin) o'tishga ega bo'lgan nelinear qo'zg'alish funksiyasi kiritilgan. Bu funksiya neyron chiqish signalining ikkilik (binar) holatini takrorlash imkonini beradi: 1 – qo'zg'algan holat, 0 – tormozlangan holat. Bu holatlar orasidagi o'tishning chegarasi (porogi) C_0 deb ataluvchi doimiy siljish qiymati orqali boshqariladi.



Shuni ta'kidlash kerakki, sun'iy neyron ichida analog sxema yoki raqamli neyron-imitator uchun zarur bo'lgan tashqi quvvat manbai mavjud. Shu sababli biologik neyronlardagi kabi elektroximik energiyani tiklash uchun zarur bo'lgan "o'lik vaqtni" (refrakter davrni) kiritishga ehtiyoj yo'q. Bu esa kremniy asosidagi sun'iy neyronlar ancha yuqori tezkorlikka ega ekanini anglatadi.

1-rasm. Asosiy (bazaviy) sun'iy neyron:

- x_1, x_2 – kirishlar;
- C_1, C_2 – og'irlik koeffitsiyentlari;
- C_0 – siljish (porog) qiymati;
- Σ – summator;
- $F(.)$ – nelinear faollashtirish funksiyasi


(qo'zg'alish funksiyasi).

1-rasmda sun'iy neyronning soddalashtirilgan modeli tasvirlangan. Modifikatsiya qilingan kirish signallari a_1, a_2 summatorga uzatiladi, u asosan kirishlarning og'irliklar bilan ko'paytmasini yig'ish funksiyasini bajaradi. Summator uchun turli operatsiyalarni tanlash mumkin: arifmetik o'rtacha, eng katta

